



**Tadqiqot UZ**



**ЎЗБЕКИСТОН  
ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ  
ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАРИ  
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2021**

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



Crossref



**30 APREL  
№27**

**CONFERENCES.UZ**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 27-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
12 - ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
27-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-12**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
27-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-12**

**ТОШКЕНТ-2021**



**УУК 001 (062)**  
**КБК 72я43**

## **"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]**

**"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар"** мавзусидаги республика 27-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрель 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 68 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **5. Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



### **8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

### **9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

### **10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

### **11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

### **12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

### **13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

### **14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

### **18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

### **19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **21.Кимё фанлари ютуқлари**

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



## **22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

## **23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## **24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## **25. География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

*Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва ақтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ СОҶАЛАРИНИ  
РИВОЖЛАНТИРИШ

<b>1. Akramova Gulizarxon Yorqinjon qizi</b> “OMMAVIY MADANIYAT” – MA’NAVIYAT KUSHANDASI .....	8
<b>2. Mamasidiqov Ibroxim Mamasodiq o’g’li</b> SAN’AT VA UNING SHAKLLANISH TARIXI .....	10
<b>3. Usmonaliyev Ikromjon Murodjon og’li</b> YOG’OCH O’YMAKORLIK SAN’ATI TARIXIDAN .....	13
<b>4. Mamasidiqova Dilnoza Mamasodiq qizi</b> ANTIK SAN’AT VA MADANIYAT TARIXI .....	15
<b>5. Halimov Ibrohim Alisherovich</b> MUSTAQILLIK SHAROITIDA MILLIY QADRIYATLARIMIZ, URF-ODATLARIMIZNI TIKLANISHI .....	17
<b>6. Yakubova Nafisa Odiljanovna</b> O’QUVCHILARGA BADIY NAQSH ISHLASHDA SHAKILLARINING TAVSIFI USULINI O’RGATISH .....	18
<b>7. Bazarbayeva Aynura Bakhtiyarovna</b> FEATURES OF THE CULTURE OF THE KOREAN PEOPLE .....	20
<b>8. И.Салимова</b> МИЛЛАТЛАРАРО ТУТУВЛИК СИЁСАТИНИ МУСТАҲКАМЛАШДА МИЛЛИЙ МАДАНИЙ МАРКАЗЛАРНИНГ ЎРНИ .....	22
<b>9. Йўлдошева Азиза Зокир қизи</b> ДЕВОРЛАРГА БИТГАН ОЛТИН ХАЗИНА .....	24
<b>10. Олимхўжа Исломович Каримов</b> УРМА ЧОЛГУЛАР ИЖРОЧИЛИГИДА МИЛЛИЙ ВА МАҲАЛЛИЙ УСЛУБЛАР .....	28
<b>11. Madrimov Bahram Xudoynazarovich</b> MADANIYAT VA SAN’AT SOHALARIDA TA’LIM OLAYOTGAN TALABALARNI ESTETIK TARBIYALASHDA XORAZM DASTONLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI .....	30
<b>12. Norova Shoiria Umrzoqovna</b> MADANIYAT VA SAN’AT SOHASIDA TA’LIM OLAYOTGAN TALABALARDA AXLOQIY TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHDA XUSAYIN VOIZ KOSHIFIYNING USTOZ-SHOGIRD MUNOSABATLARI HAQIDA FIKRLARI .....	32
<b>13. Джуҳонова Нохида Ҳаётжоновна</b> ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНИДА МИЛЛИЙ-МАЪНАВИЙ МЕРОСНИНГ ТУТГАН ЎРНИ .....	34
<b>14. Rajabov Azamat Sharifovich</b> “SHARQ MUTAFFAKKIRLARINING CHOLG’U SOZLARI RIVOJI VA TAKOMMILLASHUVIGA QO’SHGAN HISSALARI” .....	36
<b>15. РажабовТўхтасин Ибодович</b> ЎҚУВЧИЛАРГА ЎЗБЕК МИЛЛИЙ ФОЛЬКЛОР ҚЎШИҚЛАРИ ВОСИТАСИДА ЭСТЕТИК ТАРБИЯ БЕРИШ .....	39
<b>16. Raxmatov Nurbek Erkinovich</b> FORTEPIANO SOZINING KELIB CHIQISH TARIXI VA UNING MADANIYAT VA SAN’AT SOHASIDA O’QITILADIGAN FANLARDA TUTGAN O’RNI .....	41
<b>17. Ruziyev Davron Yuldashevich</b> MADANIYAT VA SAN’AT TA’LIMIDA O’QUVCHILAR JAMOASINI MUSIQIY-ESTETIK TARBIYALASHNING AYRIM MASALALARI .....	45
<b>18. Ҳасанов Ҳалим Равшанович</b> МАДАНИЯТ ВА САНЪАТИМИЗ РИВОЖИДА МУМТОЗ МУСИКА ЖАНРЛАРИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ .....	47

<b>19. Xamidova Shaxlo Shermatovna</b> O‘ZBEK MILLIY AKADEMIK DRAMA TEATRI SPEKTAKLLARIDA FOLKLOR TOMOSHALARINING AKS ETTIRILISHI .....	49
<b>20. Baxromjon Inatullayev Boqijanovish, Komilxo‘jayev Zoxidjon Shuxrat o‘g‘li</b> MADANIYAT VA SAN‘AT SOHASIDA FAN TA‘LIM VA ISHLAB CHIQRISH O‘RTASIDAGI INTEGRATSIYANI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI.....	51
<b>21. Nabijonova Nazokatxon A‘zamxon qizi</b> MADANIYAT VA SAN‘AT SOHALARINI RIVOJLANTIRISH.....	53
<b>22. Ochilova Rayxon Muxlisovna</b> ALISHER NAVOIY G‘AZALLARINI NEMIS TILIDA TARJIMASI.....	55
<b>23. Yendirboyeva Ozoda</b> QISQAGINA UMR KO‘RIB, UZOQ YASHAB KELAYOTGAN ZOTLARGA TA‘ZIM.....	57
<b>24. Зуева Арина Викторовна</b> ВЫДАЮЩИЕСЯ ПРЕДСТАВИТЕЛИ ПЕЙЗАЖНОЙ ЖИВОПИСИ В РУССКОМ ИС- КУССТВЕ .....	59
<b>25. Зуева Виктория Викторовна</b> НАУКА ОБ ИСКУССТВЕ. ЧТО ЭТО ТАКОЕ? .....	61
<b>26. Реймов Мухамедали Кенгесбаевич</b> ИСКУССТВО КАК ФЕНОМЕН КУЛЬТУРЫ.....	63
<b>27. Raximov Abdurasul Ravshan o‘g‘li</b> O‘ZBEK MUSIQA SAN‘ATIDA KOMPOZITORLIK IJODIYOTINING SHAKLLANISHI .....	65



## МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ СОҲАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

### “OMMAVIY MADANIYAT” – MA’NAVIYAT KUSHANDASI

**Akramova Gulizarxon Yorqinjon qizi,**  
Qoʻqon DPI 2-guruh talabasi.  
akramova78@bk.ru  
tel:+998937384938

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada “ommaviy madaniyat” tushunchasi va uning kelib chiqishi haqida aʼzi bir fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, maqolada “ommaviy madaniyat” ning insonlar hayoti va asrlar davomida saqlanib kelgan maʼnaviyatiga jiddiy tahdid ekanligi bayon etilgan.

**Kalit soʻzlar:** “ommaviy madaniyat”, maʼnaviyat, hayot, maqsad, jaholat, maʼrifat, tahdid, hatar.

### «ОБЩЕСТВЕННАЯ КУЛЬТУРА» - ДУХОВНАЯ ОПАСНОСТЬ

**Акрамова Гулизархон Ёркинжон кизи,**  
Кокандский ГПИ студент 2-й группы.  
akramova78@bk.ru  
Тел:+998937384938

**Аннотация.** В этой статье рассматривается понятие «популярная культура» и его истоки. В статье также говорится, что «массовая культура» представляет собой серьезную угрозу для жизни и духовности человека, которая сохраняется веками.

**Ключевые слова:** «массовая культура», духовность, жизнь, цель, незнание, просвещение, угроза, опасность.

### «PUBLIC CULTURE» – SPIRITUAL HARM”

**Akramova Gulizarkhon Yorqinjon qizi,**  
Kokand DPI 2nd group student.  
akramova78@bk.ru  
phone:+998937384938

**Annotation.** This article discusses the concept of “popular culture” and its origins. The article also states that “popular culture” is a serious threat to human life and spirituality, which has been preserved for centuries.

**Keywords.** “popular culture”, spirituality, life, purpose, ignorance, enlightenment, threat, danger.

«Ommaviy madaniyat» Gʻarb dunyosida oʻtgan asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Uni Gʻarbda «populyar» yoki qisqartirilgan holda, «pop-kultura» (yaʼni «ommaviy madaniyat») deb atashadi. Garchi «madaniyat» deb atalsa-da, aslida, tub mazmun-maʼnosiga, maqsad-niyatiga koʻra «ommaviy madaniyat» chinakam madaniyatning kushandasidir.

Mutaxassislar (faylasuf va sotsiolog olimlar)ning fikricha, hali ilm-fanda «antikultura» («gʻayrimadaniyat») degan ilmiy tushuncha shakllanmaganligi uchun «Pop (ommaviy) madaniyat» tushunchasi, nochorlikdan qoʻllanilmoqda. Chunki, «ommaviy madaniyat», aslida madaniyatsizlik, yaʼni maʼnaviyatsizlik va axloqsizlik sinonimidir. «Ommaviy madaniyat» shu boisdan, eng avvalo, yuksak isteʼdod va oʻlmas maʼnaviy-axloqiy gʻoyalar bayroqdori boʻlgan mumtoz madaniyatga,



san'atga, uning boyliklariga qarshi tish-tirnog'i bilan kurashib, uni inkor etib kelyapti. G'arb dunyosining o'zidagi faylasuflar, sotsiolog olimlar, «Bizga «To'qqizinchi simfoniya» (Betzoven) kerak emas!» yoki «Mona Liza»ni loyga qorishtiramiz!» kabi jaholatparastlikka asoslangan xitoblar «ommaviy madaniyat» tarafdorlari va muxlislarining dasturiy qarashlari negizini tashkil etadi, deb yozadilar.

Taassuflari jihati shundaki, gohida g'oyatda iste'dodli insonlar ham «ommaviy madaniyat» targ'ibotchilarining qutqusiga uchrab, uning tegirmoniga suv quymoqda. Masalan, rassom Salvador Dali Leonardo da Vinchining «Mona Liza» («Jakonda») asarini kulgi qilib, Mona Liza lablari ustiga mo'ylov chizgan va «Mo'ylovli Jakonda» asarini yaratgan. Tadqiqotchilarning fikricha, mana shunday «achchiq istehzoli, qora mazmunli kulgi» - «ommaviy madaniyat» faoliyatining eng yetakchi belgilaridan biridir. «Ommaviy madaniyat» namoyandalari qora, zaharxanda, behayo kulguni «isyon ifodasi» deb bilishadi. «Nimaga qarshi isyon» degan savol tug'iladi. Agar «pop-madaniyat» dunyoga «ehson» etayotgan «pop-art» («tasviriy san'at» desa ham bo'ladi), «pop-muzika», «pop-adabiyot» natijalariga qarab hukm yuritadigan bo'lsak, ular insoniyat yaratgan barcha qadriyatlarni isyonkorlik bilan inkor etadi: yuksak madaniyatni, ma'naviyatni, axloqni, yuksak orzu-maqсадlarni mensimaydi... [1]

Ular uchun ezgulikning o'zi yo'q. Jumladan, san'at - alohida iste'dodlar tomonidan yaratiladigan ma'naviy boylik, mo'jiza ekanligi kabi ijodning oliy mezonlari «pop-madaniyat» tarafdorlarining o'ta darajada g'ashini keltiradi. Ularcha, hamma san'atkor bo'lishi mumkin. Hamma narsa san'at atalishi mumkin. «Pop-art» - ommaviy san'at shu xulosa manbaida vujudga kelgan.

Chunonchi, «ommaviy madaniyat» namoyandalaridan biri Karl Manning fikricha, atrof-borliqda, maishiy hayotda mavjud barcha narsalar (masalan, konserva bankalari, siniq tish cho'tkalari, mashina, vodoprovod kabilarning zanglagan bo'laklari, turli suratlar, jurnal-gazeta qiyqimlari ham) hayot bag'ridan alohida ajratilib, ularga muayyan tartib berilib, odamlar nazariga tutilsa, bu oddiy chiqindilar baayni arxeologik qazilmalar chog'ida topilgan qadimgi yunonlar davriga xos osori atiqalarday o'zgacha ahamiyat kasb etib, «san'at, madaniyat namunalari» qatoridan o'rin olar emish.

«Pop-art»chilarning dasturiy qarashi shundayki, ular insonni emas, aksincha, narsalar va buyumlarni e'zozlashadi; ma'naviy dunyoni emas, maishiy-iste'molchilik his-tuyg'ularini qadrlaydilar va ularni keng ommalashtirishga intiladilar. Ularning ma'naviy pozitsiyasi - ma'naviyatni o'ldirish va «narsalarga qullik»ni rag'batlantirishdir. Amerikaning taniqli adibi R. Bredberi aytganidek, «ommaviy madaniyat» maktabidan o'tgan avlod uchun hayotning ma'nosi - avtomobil, televizor, muzlatkichga ega bo'lish. Agar televizor ikkita bo'lsa, ularga shuncha yaxshi. [2]

«Ommaviy madaniyat»da «Pop (ommaviy)-muzika» alohida o'rin tutadi. «Pop-muzika»ni «Yangi rok» belgilaydi. «Yangi rok», ta'bir joiz bo'lsa, kuchaytirilgan ritmik tuzilmali musiqadir. Ya'ni jazavali ritm, zarb, shovqin ushbu musiqaning qiyofasidir. Bu musiqa tinglashga, qalbdan huzurlanishga emas, balki vujud harakatiga, talvasali raqsga yo'naltirilgan. «Ommaviy madaniyat»dagi texnik-ijro vositalari musiqa imkoniyatlarini nihoyatda toraytirmoqda, polifonizm - musiqiy sadolar boyligi va rang-barangligini yo'qqa chiqarmoqda.

Umuman aytganda, «pop-muzika» ijrochiligi ko'ngilochar musiqa niqobi ostida ommaviy vasvasali, shaytoniy talvasali, badaxloq raqslar, ko'pincha oxiri janjal, ur-yiqit, vahshiyliklarga borib yetadigan agressiv diskoteka shoularini uyushtirish bilan ajralib turadi. 1970 yilda Kaliforniyaning Altamonte shahrida bo'lgan musiqa festivalida o'zini «pop-muzika» qiroli hisoblaydigan «Rolling Stounz» («Aylanayotgan tosh») guruhi konserti ana shunday ur-yiqitlar bilan tugab, politsiya bu mojaro oqibatlari bilan uzoq muddat shug'ullanishiga to'g'ri kelgan edi. «Pop-muzika» namoyandalari o'z «ommaviy»liklarini ta'kidlash uchun sahnadagi xatti-harakatlari va kiyim-liboslari namoyishida ham - odob-axloq, jamiyatga ehtirom tuyg'ularini rad etib - asosan ko'cha, olomonchilik qonun-qoidalarga amal qiladilar. Va o'zlarining kulguli darajada ajralib turadigan shunday raftorlaridan faxrlanadilar. Afsuslanarli tomoni shundaki, bunday holatlarni «pop-muzika»chilar san'atdagi demokratizmning, xalqchilikning tantanasi, deb bilishadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Aminova "Ommaviy madaniyat tushunchasi va uning mohiyati", Qo'qon.: "Turkiston". 2018 yil, 34 b
2. U.Qodirova "Postmadaniyat tushunchasi", ilmiy maqola, Toshkent.: 2020 yil, 2 b



## SAN’AT VA UNING SHAKLLANISH TARIXI.

**Mamasidiqov Ibroxim Mamasodiq o’g’li**

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

2-bosqich talabasi.

Tel:+998935197877

ibrohim19960000@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada San’at va uning shakllanish tarixi haqida so’z boradi.

**Kalit so’zlar:** mutoz antik davr san’ati, lasko go’ri, modernizm, qorong’u asrlar, grotesk.

San’at madaniyatning estetik zavq beruvchi, musiqa, musavvirlik, haykaltaroshlik kabi voqeylikni badiiy obrazlar vositasida aks ettiruvchi o’ziga xos uslubi. “San’at --mo’jizadir. Yurak va miyaning shunday xilvat joylari borki, unga faqat san’at vositasidagina kirish mumkin” degan edi buyuk ajdodimiz Abu Ali ibn Sino. San’atni tushunish, uning kishilar hayotidagi ro’lini aniqlash masalasi butun madaniyat tarixi davomida keskin baxs, tortishuvlarga sabab bo’lib kelgan. Ko’pincha san’at ko’zga tashlanadigan narsadir va XVIII, XIX va XX asrlarning boshlarida estetik fazilatlarini tahlil qilish haqiqatan ham san’at tarixida markaziy o’rinni egallagan. Bu davrda qadimgi yunon va rim san’atiga taqlid qilgan san’at (mumtoz antik davr san’ati) abadiy mukammallikni o’zida mujassam etgan deb hisoblangan. San’atshunoslar tasviriy san’at deb atalmish - rasm, haykaltaroshlik va arxitektura - ularning shakllari fazilatlarini tahlil qilishga e’tibor qaratdilar. So’nggi bir yarim asr ichida san’at ham, san’at tarixi ham tubdan rivojlandi. San’at – ijtimoiy ong shakllaridan biri bo’lib, manaviy madaniyatning tarkibiy qismi, dunyoni manaviy anglashning maxsus turidir. San’atning turli ko’rinishlari voqelikning, undagi hodisa, narsa va holatlarni o’zlariga hos usullar yordamida aks ettiradi. (masalan, musiqada – tovushlar ularning o’zaro bog’lanishi, uyg’unligi orqali, badiiy adabiyotda – so’z, obrazlar orqali). Lekin shu bilan birga, ular o’rtasida ma’lum umumiylik mavjud. Bu umumiylik shundan iboratki, ularning hammasida voqelik badiiy – badiiy obrazlik tarzda aks ettiriladi. San’at tarixi o’n minglab yillarga borib taqaladi - eng qadimgi sivilizatsiyalar odamlari o’zlari uchun muhim bo’lgan ob’ektlarni tasvirlash uchun mavjud bo’lgan usullardan foydalanganlar. Dastlabki davrlardan to hozirgi kungacha ko’plab badiiy harakatlar paydo bo’ldi, ularning har biri paydo bo’lgan davrning siyosiy va ijtimoiy xususiyatlarini aks ettiruvchi xususiyatlarga ega edi. Uyg’onish davridan tortib to modernizmga qadar bo’lgan ajoyib san’at asarlari, shubhasiz, tarixda iz qoldirdi. Modernizmga to’xtalsak XIX asr oxiri XX asr boshida AQSH va Yevropa san’ati va adabiyotida realizmga qarshi bo’lgan, an’anaviy shakllar va estetikasi inkor qiluvchi oqimlarni umumiy nomi shunday atalgan. Ko’pgina zamonaviy rassomlar o’z asarlarida o’tmish san’atiga tarixiy havolalardan foydalanadilar, shuning uchun tarixiy kontekstni va har bir davrning san’at tarixi uchun ahamiyatini bilish ko’plab rasmlarni tushunish uchun juda muhimdir. San’at tarixining kelib chiqishi yozilish paydo bo’lishidan ancha oldin tarixiy davrlardan boshlangan. Dastlabki asarlar Paleolit yoki Qadimgi tosh asrlariga tegishli - bu tosh rasmlari, gravyuralar, rasmlar, haykaltaroshlik va tosh kompozitsiyalar. Ushbu davr san’ati qadimiy sivilizatsiyalar hayotida nihoyatda muhim bo’lgan buyumlar, hayvonlar va marosimlarning tasvirlarini yaratish uchun tabiiy bo’yoqlardan va tosh o’ymakorligidan foydalanishga asoslangan edi. Tarixdan qadimgi san’atning eng taniqli namunalaridan biri 1940- yilda Fransiyaning Lasko g’oridan topilgan paleolit davriga oid tosh rasmlari. Ular 20000 yildan ortiq yoshda bo’lib, hududning yirik hayvonlari va o’simliklarini tasvirlaydi. Milodiy 476-yilda Rim imperiyasi qulaganidan keyin iqtisodiy va madaniy tanazzul tufayli O’rta asrlar ko’pincha “qorong’u asrlar” deb nomlanadi. Ushbu davrning dastlabki yillarda yaratilgan badiiy asarlarning aksariyati shu davrning “zulmatini” aks ettiradi va grotesk (voqea hodisalarni ataylab kuchaytirish, kichraytirish, kulgili tasvirlashdan iborat badiiy usul) obrazlari va qattiq landshaftlar bilan ajralib turadi. O’rta asr san’atida cherkov mavzulari ustunlik qilardi; birinchi ming yillikdan so’ng, Bibliyadagi hikoyalar va klassik mifologiyaning sahnalari bilan bezatilgan cherkovlar paydo bo’la boshladi. Bu davrda dunyoda yoritilgan qo’lyozmalar (miniatyura va bezaklar bilan bezatilgan) va gotika me’morchiligi uslubi paydo bo’lib, rivoj topib gullab-yashnagan edi. O’rta asrlar san’atining taniqli namunalariga Rimdagi katakombalar, Istanbuldagi Ayasofiya, yoritilgan qo’lyozmalarining eng taniqli namunalaridan biri bo’lgan Lindisfarne Xushxabari va Gotika me’morchiligining ajoyib namunasi bo’lgan Noterdam sobori kiradi.



Qadimgi san'at Mesopotamiya, Misr, Yunoniston va Amerika mamlakatlarini o'z ichiga olgan rivojlangan sivilizatsiyalar tomonidan yaratilgan (bu holda ular yozma tilga ega bo'lgan sivilizatsiyalar deb hisoblanadi). Ushbu davrdagi san'at asarlari turli xil sivilizatsiyalarda turlicha bo'lgan, ammo asarlarning aksariyati bir xil maqsadlarga xizmat qilgan: hikoyalar aytib berish, uy-ro'zg'or buyumlarini (idish-tovoq va qurollarni) bezash, diniy va ramziy tasvirlarni tasvirlash va ijtimoiy mavqeni namoyish etish. Ko'plab asarlar avlodlarga buyuk hukmdorlar, hudolar va ma'budalar haqida hikoya qilish uchun yaratilgan.<sup>1</sup> San'atshunoslik universitetlarda mustaqil fan sifatida XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi. Tarix fanidan ajralib, san'atshunoslik gumanitar fanlar qatorida mustahkam o'rni egalladi: universitetlarda mutaxassislar tayyorlaydigan nazariya va san'at tarixi kafedralari birinchi marta paydo bo'lib, so'f san'at tarixining maxsus ilmiy jurnallari paydo bo'ldi. Zamonaviy san'at tarixi faol ijodiy hodisa sifatida ulkan salohiyatga ega, chunki u fanlararo tadqiqotlar uchun yangi vositaga tayanadi. Zamonaviy san'atshunoslar individual rassomning davri, uslubi, ijodini o'rganayotganda, ma'lum bir davrning butun madaniy tasvirini sintez qilishadi, badiiylik, falsafa, din ya'ni o'zaro bog'liqlikni kuzatadilar. San'at tarixi uchta bo'limdan iborat: san'at tarixi, san'at nazariyasi va san'atshunoslik. San'at tarixiga oid birinchi asar XVIII asrda nemis olimi Iogan Vinkkelman (1717-1768-yillar) tomonidan yozilgan. Ko'pgina olimlarning fikriga ko'ra, quyidagi faktlar san'at tarixidagi dastlabki qadamlar uchun nihoyatda muhim qadam bo'lgan. Ko'p sonli arxeologik kashfiyotlar va ilmiy izlanishlar san'at tarixining chegaralarini kengaytirdi. Vinkkelman davrida na Sharq sivilizatsiyalari, na Qadimgi Misr haqida deyarli hech narsa ma'lum bo'lmagan va yunon antik davrining g'oyasi asosan Rim nusxalariga asoslangan edi.<sup>2</sup> Qadimgi Misr san'atini bilishda bizning o'zimiz sabablarini tushunishni zamonaviy misrshunos olim N.L. Pavlov: «Qadimgi odamning dunyo idrokiga yaqinlashish uchun ongimizda aynan shu olamni insoniy idrok qilishning umumiy asosi bo'lib xizmat qiladigan ko'rsatmalarni topish va rivojlantirish zarur. Faqatgina asl, tabiiy haqiqat ana shunday diqqatga sazovor joylar bo'lishi mumkin: osmonning moviy yarim shari, oltin quyosh, yashil yer, quruqlikni o'rab turgan dengiz, yerni ufqdan ufqqa kesib o'tuvchi daryo. Biz ularning tabiiy idrok qilish odatini yo'qotdik.» Biz boshqacha, bu haqiqatlarni qanday ko'rishni unutganmiz. Bizning ongimizda sivilizatsiya yaratgan nishonlar tizimi ibtidoiy inson tabiatiga xos emas.<sup>3</sup> Misrdagi san'at rivojlanganligidan yana bir yorqin dalil piramidalar va me'moriy inshootlardir. Piramidalar qullar tomonidan qurilgan degan ilgari tarqalgan fikrni endi arxeologlar va tarixchilar rad etishmoqda, chunki piramidalar yonidan erkin dehqonlar va hunarmandlarning turar joylari qoldiqlari topilgan. Piramidalar qurilishida qatnashish ilohiy bilan muloqotga teng, ibodat bilan barobar edi. Qadimgi Qirollikda ibodatxonalar piramidalar yonida qurilgan. Marhum shohning yer osti dunyosiga olib boradigan yo'li ma'bad orqali o'tdi. Yangi Shohlikda fir'avnlarining kuchi bilan ruhoniylarning kuchi o'rtasida raqobat boshlanadi. Ma'bad - bu Xudoning maskani, muqaddas joy, shuning uchun eshik oldida qo'riqchilar kabi turgan haykallar uni tashqi dunyodan himoya qilgan. Gallereyani tashkil etgan ustunlari bo'lgan hovli gipostil zaliga olib bordi. Zalning katta ustunlari har xil balandlikda bo'lib, tomni qo'llab-quvvatlagan.<sup>4</sup> San'at tarixi yana tasviriy san'atdagi ramzlar, mavzular, xususan, nasroniy san'atidagi diniy simvolizmning ma'nosini tahlil qiladigan ikonografiyani ham o'z ichiga oladi. Ushbu va boshqa usullar zamonaviy olimlarning uzoq o'tmishda davom etgan badiiy mahsulotlar va urf-odatlar to'g'risida batafsil va har tomonlama tushunchalarini shakllantirish uchun ishlatilgan.<sup>5</sup> San'at juda qadimiy tarixga ega. U jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida mehnat jarayoni bilan, kishilar ijtimoiy faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq holda vujudga kela boshlagan. San'at asarlari yaratilishi ikki narsani, ya'ni badiiy obrazli tafakkur qilishni hamda uni amalda ifoda eta olish malakasini o'z ichiga oladi. San'at ijodiy mehnat mahsulidir. Agar badiiy obrazli fikr yuritish voqelikni badiiy o'zlashitirish badiiy imkonni tug'dir bo'lsa faqat ijodiy mehnatgina uning voqelikka aylanishiga asos bo'la oladi. Hayotni kuzatish san'atkoriga ham, olimga ham juda zarur.

<sup>1</sup> <http://visual-club.cdn.ampproject.org>

<sup>2</sup> История искусств. Г.В. Драча, Т.С. Панитовой. Москва. 2014.

<sup>3</sup> Pavlov N.L. Qadimgi Misrning yagona fazoviy san'atida daryo va quyosh. Koinotning badiiy modellari: maqolalar to'plami. 1997-yil.

<sup>4</sup> San'at tarixi. Birinchi sivilizatsiyalar. A.M. Muez: M.B. Romo: P.K. Moreno [va boshq.]. Barselona: Beta xizmati. 1998-yil.

<sup>5</sup> <http://britannica.com>



San'atda voqelik badiiy to'qimasiz, to'qima esa voqea narsalarsiz aks etmaydi. Voqelik hayol tasavvur hosil qiladi. Badiiy qiyofo mazmuni uning shakli yaratishli jarayonida o'zgarib ketishi ba'zan uni qayta mushoxada qilish sodir bo'lishi mumkin. San'atshunoslik keng ma'noda jamiyatning badiiy madaniyatini, umuman, san'atni o'rganish, tatqiq etish bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy fanlar majmuidir. Bu majmuaga kiruvchi adabiyotshunoslik (filologiya fanlari sirasiga ham kiradi), musiqashunoslik, teatrshunoslik, kinoshunoslik va tor ma'nodagi san'atshunoslikdan iborat. Tor ma'nodagi san'atshunoslik tasviriy san'at, amaliy bezak san'ati va me'morchilikni tatqiq etish bilan shug'ullanadigan ijtimoiy fan bo'lib, san'atshunoslik deganda, ko'pincha uning shu ma'nosi ko'zda tutiladi va keng ishlatiladi. Estetik ehtiyojlari har xil ekanligidan tashqi dunyoning ko'p qirraliligidan inson idrokining o'ziga hos xususiyatlariga ega ekanligidan voqelikni o'zi hilma-xil va rang baranglikdadir. Ulardan har bir hayotning biron muayyan tomoninigina bir-biriga nisbatan yaxshiroq aks ettira olishi mumkin. San'atga doir ma'lumotlar dastlab Yunonistonda qadimdan o'rganila boshlangani ma'lum. Milodiy dastlabki asrlarda O'rta Osiyo mamlakatlari ham me'morchilik va san'atga oid risolalar yaratilgan. Ular mazmuni jihatdan hammabop bo'lib, ham metodik qo'llanma, ham o'qish kitobi sifatida xizmat qilar, kitobxon e'tiboriga tarix, hikoyat, nasihat va mushohadalar havola qilinardi. XIX asrda O'rta Osiyoda tasviriy san'at Toshkent, Samarqand, Buxoro va Qo'qon miniaturachilari ijodiyotida o'zini namoyon qildi. Ma'rifatparvar, shoir, faylasuf, hattob, falakiyotchi bo'lgan Ahmad Donish (1827-1897-yillar) yana musavvir iste'dodiga ega edi. Uning bizgacha yetib kelgan rasmlari: Abduqodir Bedilning "To'rt unsur" qo'lyozma asariga bag'ishlab chizilgan "Shoir va rassom" miniaturasi hamda shahar mirshabini aks ettirgan satirik miniaturasi bundan dalolat beradi. U chizgan miniaturlar nihoyasiga yetkazilgan mukammal rasm, o'rniga qo'yilgan bo'yoqlar, aniq-ravon kontr chiziqlari, uning grafik dastxati bilan ajralib turadi. Ahmad Donishning shogirdi Abdulxoliq Mahmud ham qurt-qumursqalar va gullarni mahorat bilan aks ettirgan rassom sifatida tanilgan. XX asr boshlarida Turkistonda o'rta o'quv yurtlarida rasm va chizmachilikdan dars beradigan o'qituvchi-rassomlarning paydo bo'lganligi holati o'lkada tasviriy san'at va tasviriy savodxonlikning dastlabki kurtaklari nishura boshlaganidan dalolat berganini ta'kidlash mumkin. Xalqimizning amaliy san'ati boy analarga va uzoq tarixga ega. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan badiiy ijod namunalari xalq amaliy san'atining tarixi tosh asriga borib taqalishini ko'rsatadi. Dunyodagi boshqa xalqlar qatori o'zbek xalqi ham o'z madaniy san'at merosini o'zi vujudga keltirgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [http:// visual-club.cdn.ampproject.org](http://visual-club.cdn.ampproject.org)
2. История искусств. Г.В. Драча, Т.С. Панитовой. Москва. 2014. 3. Pavlov N.L. Qadimgi Misrning yagona fazoviy san'atida daryo va quyosh. Koinotning badiiy modellari: maqolalar to'plami. 1997-yil.
4. San'at tarixi. Birinchi sivilizatsiyalar. A.M. Muez: M.B. Romo: P.K. Moreno [va boshq.] Barselona: Beta xizmati. 1998-yil.
5. <http://britannica.com>



## YOG'OCH O'YMAKORLIK SAN'ATI TARIXIDAN

**Usmonaliyev Ikromjon Murodjon og'li**  
AnDU tayanch doktoranti  
ikromjonusmonaliyev@gmail.com  
+998901577879

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yog'och o'ymakorligi san'ati tarixi va uning badiiy san'atda tutgan o'rni va uning rivojlanish tarixidan ayrim fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, maqolada inlonlar hayotida yog'och o'ymakorligi san'atining ma'naviy va madaniy rivojlanishidagi tutgan o'rni haqida bayon qilingan.

**Kalit so'zlar.** Yog'och, san'at, madaniyat, ma'rifat, tarix, hayot, usta, hunarmand, rivojlanish.

## ИЗ ИСТОРИИ ИСКУССТВА РЕЗЬБЫ ПО ДЕРЕВУ

**Усмоналиев Икромжон Муроджон ўғли**  
Базовый докторант AnDU  
ikromjonusmonaliyev@gmail.com  
Тел: +998901577879

**Аннотация.** Эта статья дает представление об истории искусства резьбы по дереву, его месте в изобразительном искусстве и истории его развития. В статье также обсуждается роль резьбы по дереву в духовном и культурном развитии жизни инлонов.

**Ключевые слова.** Дерево, искусство, культура, просвещение, история, жизнь, мастер, ремесленник, развитие.

## FROM THE HISTORY OF THE ART OF WOOD CARVING

**Usmonaliyev Ikromjon Murodjon ogli**  
AnDU base doctoral student  
ikromjonusmonaliyev@gmail.com  
phone: +998901577879

**Annotation.** This article provides some insights into the history of the art of wood carving and its place in the fine arts and the history of its development. The article also discusses the role of wood carving in the spiritual and cultural development of the life of the Inlons.

**Keywords.** Wood, art, culture, enlightenment, history, life, master, craftsman, development.

Qadimzamonlarda qayerda markazlashgan davlat shakllangan bo'lsa, shu joyda hunarmandchilik, ilm-fan, san'at gurkirab rivojlangan. Yangi-yangi saroylar, uy-joylar, madrasa, masjidlar qurilgan, albatta ularni qurganda binoni mustahkamligini, go'zalligini oshirish maqsadida ustunlar, darvozalar, eshiklar yog'ochdan ishlangan. Ularning ko'pchiligi naqshinkor bo'lib bugungi kungacha kishilarni hayratga solib kelmoqda. XIX asr boshlarida Xiva xonligi taxtiga Qo'ng'iro't sulolasi vakillari kelganlaridan keyin Xiva shahrini qayta qurish ishlari boshlanib ketdi va shaharda bir talay yangi inshootlar barpo qilindi. Xiva xonlari va amaldorlari tomonidan qurilgan binolarni Xorazmning yog'och o'ymakor ustalari o'zlarining chiroyli, ulug'vor ustunlari va bejirim darvoza hamda eshiklar, panjaralari bilan bezaganlar. Bu san'at asarlarini yaratgan ustalar o'z davrida nomlari doston bo'lgan insonlar bo'lib, ularning ishlarini hozirda farzandlari hamda shogirdlari davom qildirmoqdalar.

XIX asr boshlarida Xiva xonligi taxtiga Qo'ng'iro't sulolasi vakillari kelganlaridan keyin Xiva shahrini qayta qurish ishlari boshlanib ketdi va shaharda bir talay yangi inshootlar barpo qilindi. Xiva xonlari va amaldorlari tomonidan qurilgan binolarni Xorazmning yog'och o'ymakor ustalari o'zlarining chiroyli, ulug'vor ustunlari va bejirim darvoza hamda eshiklar, panjaralari bilan bezaganlar. Bu san'at asarlarini yaratgan ustalar o'z davrida nomlari doston bo'lgan insonlar



bo‘lib, ularning ishlarini hozirda farzandlari hamda shogirdlari davom qildirmoqdalar. XIX asrda yaratilgan me‘moriy inshootlardagi san‘at asarlarida quyidagi yog‘och o‘ymakor ustalarning ismlari har zamonda islmiy naqshlar orasida uchrab turadi.[2]

Mashhur xalq ustasi koshinpaz, naqqosh Abdulla jin Shayxlar qishlog‘idan, Masharif naqqosh Mevaston mahallasidan, Matkarim naqqosh, Momit o‘rachi va o‘g‘illari Bolta o‘rachi, Xo‘ja o‘rachi, Abdurahmon usta Matkarim usta o‘g‘li (Sapo Bog‘bekovni bobosi), Ota Polvonov, Bog‘bek Abdurahmonov kabi ustalar o‘z hunarlari ila xon va uning amaldorlari tomonidan qurilgan inshootlardagi darvoza, eshik va ustunlarni qalb qo‘rlari ila yaratganlar.[1] Qadim Xorazmda har bir usta yog‘och o‘ymakorligining ma‘lum bir sohasi bo‘yicha ijod qilgan. Masalan: – mashhur ustalar avlodidan bo‘lgan Safo Bog‘bekov, otasi Bog‘bek Abdurahmonov, bobosi Abdurahmon Matkarimovlar faqat qo‘shabaqali o‘yma darvoza va eshiklar ishlash bilan shug‘ullanganlar, ustalardan Momit o‘rachi va uning o‘g‘illari Bolta, Xo‘ja o‘rachilar faqat naqshinkor ustunlar ishlaganlar, Xivaning mashhur xalq ustasi Ota Polvonov ko‘pincha o‘ymakor ustun ishlab, ayrim vaqtlardagina qo‘shabaqali eshiklar yasagan, Shayxlar qishlog‘ida yashagan mashhur xalq ustasi Abdulla jin bir vaqtda o‘ymakor ustunlar uchun tut va gujum daraxtlaridan ustun tagliklari hamda koshinpazlik, naqqoshlik san‘ati bilan shug‘ullangan. Yog‘och o‘ymakorligi bilan shug‘ullanadigan ustalar naqqoshlar bilan hamkorlik qilib takrorlanmas san‘at asarlarini yaratganlar.

Ko‘pchilik hollarda o‘ymakor ustalar naqsh ulgisini naqqoshlardan olishgan, shuning uchun ular naqqoshlar bilan hamkor bo‘lib ishlaganlar. Lekin ayrim hollarda ustaning o‘zi ham naqqosh, ham hattot va o‘ymakor bo‘lgan. Ota Polvonovning shogirdi mashhur xalq ustalarining zurriyodi Sapo otaning aytishicha, naqqoshlar madrasani tamomlagan, tarixni bilgan, musiqa va adabiyotdan yaqindan tanish bo‘lganlar. Ular “ulgi” chizish uchun 5-7 yil ustaga shogird tushishgan. Ko‘pchilik hollarda hunar otadan bolaga meros tariqasida o‘tgan. Ana shunday ustalar shajarasidan birini quyida keltiramiz.

Yog‘och o‘ymakor xalq ustasi Matkarim ibn Muhammad (1768-1859) Xivadagi Gandumkon qishlog‘ida yog‘och o‘ymakori oilasida tug‘ilgan. Naqqosh va o‘ymakor. Uning o‘g‘li Abdurahmon (1832-1928) Gandumkon qishlog‘ida tug‘ilgan. Xorazmda mashhur yog‘och o‘ymakori va naqqosh Bog‘bek Abdurahmon o‘g‘li (1873-1954) Gandumkon qishlog‘idan bo‘lib, otasidan hunarini o‘rganib, 16 yoshida usta darajasiga etgan. O‘g‘li Sapo Bog‘bekov (1904-1978) ota-bobolarini an‘anasini davom qildirib ko‘zga ko‘ringan usta bo‘lib etishadi va 1920 yildan keyin mustaqil eshik va ustunlar ishlab boshlagan. Mashhur usta Ota Polvanov va Abdulla Boltaevlardan naqqoshlik sirlarini yanada puxta o‘rgangan, ular bilan birga ishlab juda ko‘p san‘at asarlarini yaratgan hamda avlodlar ishini davom qildirib ko‘plab shogirdlar tayyorlagan. 1972 yilda uning tashabbusi bilan Xiva shahrida ochilgan “Yog‘och o‘ymakorligi” guruhida har yili o‘nlab yoshlar o‘qib-o‘rganib, qadimgi Xorazm san‘atini hozirgacha asrab avaylab kelmoqdalar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. E.Rahmonov “Hunarmanchilik an‘analari”, Farg‘ona.: “mashaqqat”, 2019 yil, 27 bet.
2. Z.Esonov “Milliy hunarmandchilik tarixidan”, Qo‘qon.: “Turkiston”, 2018 yil, 61 bet



## ANTIК SAN'AT VA MADANIYAT TARIXI

**Mamasidiqova Dilnoza Mamasodiq qizi**  
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika  
instituti Tasviriy san'at va muhandislik  
grafikasi yo'nalishi 2-bosqich talabasi  
Telefon: +998943621216  
dinozamamasidikova001@gmail.com

**Annotatsiya:** Biz yashab turgan zamonda albatta san'at va madaniyat muhim ahamiyat kasb etadi. Zero madaniyat va san'at qadimdan rivojlanib, shakllanib har bir xalqni, elatni ijtimoiy, siyosiy, diniy va madaniy ko'rinishlarini aks ettirib, hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan. Antik san'at va madaniyat ham o'z davrida rivoj topib kelajak uchun boy madaniyat va san'at durdonalarini meros qoldirgan. Mazkur maqolada ham antik san'at va madaniyat shakllanishi, uning ahamiyati haqida va jahon san'at va madaniyatiga qo'shgan hissasiga urg'u berilgan.

**Kalit so'zlar:** antikvus, ellinizm, lukomon, toskan orderi, appiy yo'li, kapitell, gajak.

Insoniyat yaratib qoldirgan madaniy qadriyatlar oddiy boyliklar bo'lib qolmay, balki o'zida inson aql-zakovati, hayot to'g'risidagi fikr-o'ylarini aks ettiruvchi ko'zgu hamdir. Jahon san'ati tarixini o'rgatish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, o'tmish odamlarning his-tuyg'u, hayotiy tajribalarini o'rganish g'oyaviy-estetik qarashlarning shakllanishini bilish demakdir. Bu so'zsiz, kishilarda hayotiy tajribalarning boyishiga, hayotga yanada keng va atroficha yondoshishga yordam beradi. Tasviriy san'at turlariga rangtasvir, arxitektura, grafika, haykaltaroshlik kiradi. Qadimgi dunyo san'atkori o'ziga xos formalarda kundalik turmush voqealarini aks ettira boshladi. Bu davrga kelib, odamlarning diniy tushunchalari ham o'zgara bordi. Odamlar tabiat kuchlariga sig'inishdan asta-sekin ilohiy kuchlarga - xudolarga sajda qila boshladilar. Bu xudolar timsolida odamlar aqliy barkamol, mo'tabar, har narsaga qodir bo'lgan, o'z xarakteri va ko'rinishi jihatdan odamlarga o'xshaydigan obrazlarni tasavvur eta boshladilar. Antika iborasi lotincha «antikvus» so'zidan olingan bo'lib, «qadimiy» degan ma'noni bildiradi. Bu ibora XV asrda Italiya gumanistlari tomonidan kiritilgan va asosan, qadimgi Grek-Rim madaniyati va san'atini ta'riflash uchun ishlatilgan. Antik san'atning kuchi va so'zi shunday buyuk qudratga egaki, go'yo Nika Samofrakiyalik yo'qolgan boshini hamon talab qilayotganday, uning marmar qanotlatidan chiqayotgan unsiz shovqinni asrlar to'liqini ham bosib keta olmaydiganday tuyuladi. O'zining shunday jozibador kuchi tufayli antik san'at o'quvchilarning abadiy maktabiga aylanib qolgan.

Bu davr san'atidagi asosiy yo'nalish – insonning umumlashgan obrazidan qaytish va insonni alohida, individual mavjudod sifatida anglashga intilish, buning natijasi o'laroq, uning psixologiyasiga, shaxsning milliy, ijtimoiy va boshqa jihatlariga qiziqishning ortishi bo'ldi.[1] Qadimgi Rim madaniyati Apenin yarim orolida (er.avv. VIII asr) yashagan ilk Etrusk qabilasining aristokratik shahar-davlatlaridan tortib toki, eramizdan avvalgi VI asrdan milodiy V asrlargacha bo'lgan davrdagi quldorlik respublikasi hamda imperatorlik boshqaruviga xos tarixiy-siyosiy hamda iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlar bilan bog'liqdir.[2]

Eramizdan avvalgi VIII-VI asrlarda Italiyaning o'rta va G'arbiy hududlarida Etrusk qabilasi yashagan. Ular qurilish borasida mohir usta- hunarmand bo'lishgan. Etruriya ko'plab shaharlarni o'z ichiga olgan va har-bir shaharda kichik-kichik shaharchalari bo'lgan mamlakatdir. Respublika davri Rim me'morligida greklarning ion-korinf, etrusklarning toskan orderlari bino bezagining ajralmas qismiga aylandi. Rim me'morligining badiiy hashamdorligi imperatorlik davrida kuchaydi. Ayniqsa, eramizdan avvalgi 27-yildan milodiy 14-yillarda birinchi imperator Oktavian Avgust hukmronligi vaqtida sa'nat rivoji yuqori bosqichga erishib, «oltin asr» nomini oldi. Ayni paytda me'mor Vitruviy ijodi shahar va ijtimoiy-ma'muriy binolar qurilishida katta ahamiyatga ega bo'ldi.[3]

Antik me'morchilikda order tizimiga kirgan ustunning amaliy bezak qismi kapitell deb ataladi. Kapitellar to'singa tushadigan yukni stunlaiga teng taqsimlashga xizmat qilgan. Ular dastlab yog'ochdan yasalgan. Yunon me'morchiligi ta'sirida toshdan yasala boshlangan. Baqtriya me'morchiligida ham tosh kapitellarning ioniy va korinf turlari mavjudligi aniqlangan. Ioniy kapitellarning asosiy unsure-uning ikki tomonidan pastga qayrilgan gajak- valyutalardir.



Valyutalar estetik ahamiyatidan tashqari ramziy ma'nolarga ham ega. Xalq orasida ularni qo'y (echki) shoxlariga qiyoslab, bino yoki inshootlarni yovuz kuchlardan asraydi, degan aqida mavjud. Valyutalar shuningdek, gajak (spiral) shaklida ham bo'ladi. Gajak kelib chiqish, kengayish, rivojlanish, davriy va muttasil davomiylik kabi ramziy ma'nolarga ega. U ilk markazdan chiquvchi va cheksizlikka yo'naltiruvchi kuch va harakat tadrijini ifodalaydi. Gajak-oy, hosildoriik, hayotning tadrijiy rivojlanish davomiyligi deb qaralgan.[4]

Odamlar, hayvonlardan farqli o'laroq, estetik tuyg'ularga ega, ular badiiy ijod va ularning ichki dunyosi va tajribalarini aks ettiradigan keng madaniyatga muhtoj. Shuning uchun san'at kabi bir hodisa paydo bo'ldi. San'atning asosiy xususiyati dunyoni hissiy idrok qilish hisoblanadi. Badiiy ekspressivlik yordamida odam o'z hayotidagi ba'zi hodisalarga, voqealarga o'z munosabatini bildiradi va shu bilan boshqa odamlarga murojaat qiladi, shunda ular uning tajribasi chuqurligini va san'at asarining badiiy ekspressivligini ham bilib olishlari mumkin. San'atning yana bir o'ziga xos xususiyati uning subyektivligidir. Inson ijodkor sifatida ishlaydi, u butun hissiyotlar va hayot haqidagi g'oyalari nuqtai nazaridan taqdim etiladigan butun badiiy olamni yarata oladi. San'at shunchaki voqelikning aksi emas, san'at insonda estetik tuyg'ularni uyg'otishga qaratilgan -go'zallik tuyg'usi. Antik san'at asrlar mobaynida insoniyatni maftun etib, uni o'ziga jalb etib keldi. Yevropa xalqlari ana shu san'at va madaniyatga, grek va rimliklar yaratgan ma'naviy boyliklarga murojaat qilib keldilar. Bugungi Yevropa tasviriy san'ati va madaniyat, teatr, adabiyoti va falsafasi antik dunyoga suyanadi. Bu o'z o'rnida jahon san'atiga ta'sirini yanada ravshanroq his etish imkoniyatini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Qadimgi sivilizatsiyalar. Shuhrat Ergashev "O'zbekiston NMIU, 2016-yil.
2. Tasviriy san'atda afsona va rivoyatlar. K. Akilova, I. Abdurahmonov, Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent 2016-yil.
3. Tasviriy san'at tarixi, (Qadimgi dunyo san'ati), Dilmurod Po'latov, Namangan nashryoti 2019-yil.
4. O'zbekistonda buddaviylik va buddaviy meros. Pidayev. Sh. P, O'zbekiston, 2011.



## MUSTAQILLIK SHAROITIDA MILLIY QADRIYATLARIMIZ, URF- ODATLARIMIZNI TIKLANISHI

**Halimov Ibrohim Alisherovich**

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani

24-umumiy o'rta ta'lim maktabi yoshlar yetakchisi  
(+998934411498)

**Annotatsiya:** Mustaqilligimiz ta'lim-tarbiya, odob masalalarida ham tub burilish davrini boshlab berdi. Milliy an'analar, milliy madaniyat, milliy qadriyatlar o'zining qaddini rostlay boshladi

**Kalit so'zlar:** O'zlikni anglash, mustaqillik, qadriyatlarni tiklash, millatlararo totuvlik, demokratiya, yurt istiqboli, urf-odat, an'ana, madaniyat, huquq ustuvorligi, milliy g'urur.

O'zbek millatida o'zlikni anglash jarayoni Chor Rossiyasi bosqinidan keyin mustaqillik uchun kurashlarda mustamlakachilik davrida o'zligini saqlab qolish harakatlarida namoyon bo'ladi. Mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyin o'zlikni anglash ikki yo'nalishda amalga oshirildi. Birinchi yo'nalish - sobiq sho'rolar davrida toptalgan urf-odatlarini, qadriyatlarni tiklash, umuman ma'naviy merosimizni o'zlashtirishdan iborat bo'ldi. Ikkinchi yo'nalish esa demokratiya va huquq ustuvorligiga asoslangan jamiyat qurish bilan bog'liq bo'lgan islohotlarni o'tkazish jarayonida yuzaga kelgan muammolarni xal qilishdagi umummillat harakatlarda namoyon bo'ldi.

Umuman "Istiqlol bizga o'zligimizni anglash imkonini berdi. Inson o'zining butun mohiyatini, insonligini qanchalik chuqur tushunsa, yashash mazmun-mohiyatini ham shunchalik chuqur anglaydi. Demak o'zligini anglagan inson bevosita ichki bir da'vat va ilohiy quvvat bilan ma'naviy yetuklikka, komillikka intiladi. Bu mustaqillikning yana bir mo'jizasi".

Shu o'rinda "bugun vatanning har bir asl farzandi o'zini ota yurtining ajralmas bo'lagi deb his etayapti va bundan faxrlanayapti. Istiqlol bergan eng katta boyliklardan birinchisi ana shu desak, aslo yangilishmagan bo'lamiz". Endilikda xalqimizning ongida keskin o'zgarishlar ro'y bermoqda, ular o'z qadr-qimmatlarini teranroq anglay boshlayapti, natijada ular qalbida vatan tuyg'usi, uning qudrati va yutuqlaridan faxrlanish, kelajagi buyuk davlatni barpo qilishdek muqaddas tuyg'u shakllanmoqda. Shuning uchun ham mustaqillik sharoitida o'zbek xalqining o'z-o'zini anglashni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgandir. O'zbek millatida o'z-o'zini anglash hissini mustahkamlash va rivojlantirish hozirgi kunning eng dolzarb masalasidan biridir". Chunki o'z-o'zini anglash natijasida ichki ruhiy kayfiyat milliy g'ururni shakllantiradi. Milliy g'ururli inson esa o'z millati va davlatining fidoiysi sifatida maydonga chiqadi. Milliy g'ururli inson millatni sevadi, davlat yutuqlaridan quvonadi, faxrlanadi. Moddiy va ma'naviy merosimizni teran anglaydi. Natijada o'z millatiga mehr-muhabbati oshib boradi hamda millat taqdiri haqida qayg'uradi.

Umuman milliy g'ururi mustahkam bo'lgan millatni birligi mustahkam bo'ladi. Natijada mazkur millatni qurol kuchi bilan ham yengib bo'lmaydi. Shuning uchun ham millatimizning o'zligini anglashi keyingi yillarda mustaqillik mafkurasiga aylanib qoldi. «Bu tushuncha - deb ko'rsatadi I.Karimov, - avvalo O'zbekistonning istiqboli va istiqloli haqida qayg'urish; o'zining va o'z xalqining, vatanining qadr-qimmati, or-nomusini anglab, uni himoya qilish; yuksak g'oyalar, yangi fikriy kashfiyotlar, niyatlar og'ushida mehnat qilib, iste'dodi, bor imkoniyatini, kerak bo'lsa jonini yurt istiqboli, eliga baxshida etishdir».

Mustaqillik qadriyatlaridan yana biri millatlararo totuvlikdir. "Millatlararo totuvlik - milliy istiqlol mafkurasininng asosiy g'oyalaridan biri: muayyan hudud, davlatda turli millat vakillarining xamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyati yuritishini ifodalovchi tushuncha". Hozirda O'zbekistonda yuzdan ziyod millat va elat vakillari yashaydi. Mazkur millat va elatlarning birgalikda hamjihat yashashi natijasida yurt tinchligi va xalq farovonligidan olijanob maqsadga erishish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mustaqillik izohli ommabop lug'at. T.,2000
2. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar va atamalar lug'at.
3. O'zbekistan tarixi 11-sinf uchun darslik. T.2019-y, 10-bet.
4. Internet ma'lumotlari



## О'QUVCHILARGA BADIY NAQSH ISHLASHDA SHAKILLARINING TAVSIFI USULINI O'RGATISH.

**Yakubova Nafisa Odiljanovna**

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi  
+998975692991nafisaodiljonovna07@gmail.com  
Djabborova Zilola Abdurahmon qizi  
+99899 4788865

**Annotatsiya:** O'zbek xalqining amaliy me'morchilik san'ati o'ziga xos boy an'analarga ega. Bizning davrimizga qadar etib kelgan ama'liy me'morchilik san'ati asarlari rang – barang va hilma – hildir. Badiiy naqoshlik, o'ymakorlik, kashta tikish san'ati namunalarini –hayotni, tabiat manzaralarining aksini, chiroyli gullarning shakillarini binolarning peshtoqlarida, eshiklarida, uy anjomlarida va boshqalarda ko'rasiz, ularning mohirlik bilan tasvirlanganligini chuqur his etasiz.

**Kalit so'zi:** naqsh, bezak, tasviriy san'at, madaniyat, qobiliyat, mehnat, muloqat, tabiat, gozallik.

Badiiy naqqoshlik san'ati to'g'risida, uni o'rgatish haqida ma'lumot berar ekanmiz, avvalo, sizlarni uzoq o'tmish madaniyatining namunalarini, tarixiy obidalarni xayolan ko'z o'ngingizga keltrishga, tasavvur etishga undaymiz. Qo'li gul halqning aqil idroki ila yaratilgan bu ajoyib maftunkor obidalarni, noyob badiy naqshlarni insonlar zavq-shavq bilan tomosha qiladilar.

Badiiy naqoshlik, o'ymakorlik, kashta tikish san'ati namunalarini –hayotni, tabiat manzaralarining aksini, chiroyli gullarning shakillarini binolarning peshtoqlarida, eshiklarida, uy anjomlarida va boshqalarda ko'rasiz, ularning mohirlik bilan tasvirlanganligini chuqur his etasiz.

Naqqoshlikni o'rganishga qo'yilgan dastlabki qadamda avvalo ko'z bilan mo'ljallashga, rasimlar simmetriyasini tartib, chidam bilan ishlashga, mehnatni sevishtga so'ng har hil qog'oz va yog'ochlarga turli tasvirlarni chizib, bo'yashga odatlanib boradilar. Qarabsizki ko'p o'tmay, siz ishlagan chiroyli naqqoshlik buyumlari odamlarga estetik zavq beruvchi moddiy boyliklarga aylanib qoladi.

Naqshning kompozitsiyasi uchun temani hayotdan, tevarak - atrofdagi tabiatdan, mehnat ahli faoliyatidan tanlash maqsadga muvofiq. Naqsh ishlashda oldin o'simlik dunyosi, hayvonat olamining tuzilishini, hususiyatini diqqat bilan o'rganilishi, so'ngra uning shakli ishlanishi kerak.

Naqshlanadigan buyumning shakli va nimaga ishlatilishiga qarab naqshning ma'lum turi, hoshiya, turnuj va grih tanlanadi.



Naqshlarning turlari xilma-xil bo'lib, doira ichiga chizilgan turunj naqishlar bir hil shakillardan tarkib topadi va to'g'ri yoki egri chiziq bo'lib takrorlanib turadigan ornamental lentalar, frizlar, hoshiyalardan iborat bo'ladi. Bunga paxta islimi misol bo'la oladi.


Geometrik shakillarga o'xshash to'rsimon naqshlar, kvadrat, romb, uchburchak, to'g'ri to'rt burchaklardan iborat bo'ladi. Ularni simmetrik naqshlar deyilib, arxitektura buyumlariga naqsh solinganda qo'llaniladi.

O'quvchilarga gyometrk naqshlarning tuzulishi va ishlatilishi haqida uslublardan foydalangan holda o'rgatish.

Naqsh o'rgatish jarayonida madohili naqsh usulida ham o'rgatish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'zbekiston naqqoshlik amaliy san'ating hamma turlarida juda ko'p uchraydigan uslubdir. Asosan madohili shakli lola gulini stillashtrib tasvirlashdan kelib chiqqan. Lekin halq naqqoshlari gul bargini chiroyli ko'rsatishga intilib, ularni madohili shaklida tasvirlaydilar. Madoxili uch yaproq shaklidan iboratdir.



Eng avval kvadrat chizilib, uning ichidan yon tomonlariga hoshiya tortiladi. Keyin kvadratning to'rt tomoniga nuqtalar qo'yib, uni uchta teng bo'lakka bo'linadi. U nuqtalarni tik va yotiq chiziqlar bilan birlashtilganda kvadrat 9 katakka bo'linadi. O'tqazilgan chiziqlar o'q chiziq hisoblanib, ularning ikki tomonidan ma'lum o'lchovda yondosh chiziqlar tortish bilan naqsh yasaladi. Bu naqsh yasalish jihatidan ancha murakkab bo'lib, kvadratlarni bo'lishadako'z bilan aniq chamalashni talab qiladi. Kvadrat ichidagi chiziqlar biri ikkinchisining ustidan to'g'ri o'tib ketavermasdan, balki bir gal tegidan, ikkinchi gal ustidan o'tib tugun hosil qiladi.



Ikkinchi usulida kvadrat chizilib, kvadratning har ikkala tomoni teng to't bo'lakka bo'lib, 16 ta katak hosil qilinadi. to'rtta eng chetki katakning diogonal chiziladi. Diagonallarni to'g'ri chiziq bilan birlashtirib, oddiy guruh naqshining shakli chiziladi.

Girih tugun demakdir, to'g'ri chiziqlarning kesishishi natijasida shunday chigal shakillar hosil bo'ladi, ularning qanday yasalganinidarrov aniqlash qiyin.

Hozirgi vaqtda yangi – yangi girihlar ijod etish imkoniyatlari vujudga keladi. Girih yasash shunchaki bir ermak ish emas, albatta. U geometric shakillarni tartib bilan joylashtirishdan hosil bo'ladi. Har bir grihning o'ziga hos nomi bo'lib, uning nomi shakliga bog'liqdir. Masalan, taqsim asosi besh va o'n rahlik yulduz bo'lsa, "beshu o'n rahlik" girih deb ataladi. Xuddi shunga o'xshash boshqa bir tuzilish "sakkizu o'n olti rahlik" bo'lishi mumkin.

Girih turli sohalarda, chunonchi, panjaralar yasashda, o'ymakorlik, naqoshlikda qo'llaniladi. Xalq me'morlari ijodida asrlar davomida avlodlar tajribasi umumlashgan va sayqal topgan. Ularni o'r yaratgan ganish orqali qadimiy yodgorliklar tarixini bilib, xalqimiz go'zalliklarni yanada yaxshiroq anglab boramiz.

O'quvchilar bu naqshlardan foydalangan holda o'zlarining qiziqishlariga qarab kampozitsiyalar yaratadilar. Qarabsizki, ko'p o'tmay, siz ishlagan chiroyli naqqoshlik buyumlari odamlarga estetik zavq beruvchi moddiy boyliklarga aylanib qoladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at ta'imi konsepsiyasi.- Toshkent.1995.
2. Tasviriy san'at o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlar. R.Hasanov. Toshkent -2006.
3. Boshlang'ich naqsh ishlash uslubiyati. M.A. Mirzahmedov. Toshkent – "O'zbekiston" – 2002.



## FEATURES OF THE CULTURE OF THE KOREAN PEOPLE.

**Bazarbayeva Aynura Bakhtiyarovna**

student of the Nukus State Pedagogical Institute  
aynurabazarbaeva001@gmail.com + 91-736-06-58

**Abstract:** The article reveals the peculiarities of the culture of the Korean people, as well as important aspects of the social sphere of activity.

**Key words:** Korean people, art, dance, music, holidays, family traditions.

There is one interesting parable among the Korean people about the appearance of the Korean people. Legend has it that the son of the heavenly ruler, Hwanun, descended to earth out of curiosity into the high mountain Paektusan and met a woman. Then he fell in love and decided to marry, who had previously been a bear. After some time, they have a boy named Tangun. The boy descended from Paektusan Mountain and founded the first Korean state. Korean scholars argued about the legend for a long time, did they think it could be so? After that, opinions diverged, one side believed that the legend was true, and the other rejected his opinion. Then, after extreme calculations, it was established that Tangun sat down in 2333 BC. But more and more people are starting to take an interest in South Korea. I don't know I'm drawn there either, probably because I first studied Korean and watched dramas with her. But after a while, the circumstances changed. 5 years have passed since then, in fact, if a person wants, he will do anything, just want. Everything is in the hands of man. What their society is truly famous for, and what they talk about first of all when they remember the traditions of South Korea. This applies to literally everything: behavior on the street, at home and at a party, correct appeals to people of different ages and status. It comes to the point that even nouns and verbs for the same situations may differ. Their alphabet is called Hangul and they celebrate the day of writing as a holiday. Koreans take pride in their alphabet, since it consists of letters, and not of phrases or words, as, for example, in Chinese or Japanese characters. Like all peoples, the wedding is considered the most important moment in the life of each of us, and Koreans also treat them with respect.

Respect for elders.

What their society is truly famous for, and what they talk about first of all when they remember the traditions of South Korea. This applies to literally everything: behavior on the street, at home and at a party, correct appeals to people of different ages and status. It comes to the point that even nouns and verbs for the same situations may differ.

Art.

Be sure to get to know him if the opportunity arises. The approach to painting here is very different from the Western view. Each canvas is literally imbued with oriental motifs and flowing lines, which, it seems, can only be found here.

Dance culture.

There are two main directions: folk and secular (as they are also called – «courtiers»). The former are distinguished by a fast rhythm and great expression, among them peasant, shamanic and mask dance are common. The latter, on the contrary, are melodic, measured and solemn; it is customary to dance with restraint and unhurriedness.

Music and K-Pop groups.

This phenomenon is no longer only in the local, but also in the global modern culture. K-Pop groups are usually young people from 16 to 25 years old, moreover, purely female (girls band) and purely male groups (boys band) are prevalent. Sociologists identify this genre as a new youth subculture.

The main holidays that Koreans must celebrate.

Lunar new year.

It is also called «Seollal» and is celebrated at the end of January, reckoned according to the lunar calendar. They celebrate on a grand scale and for a long time – as many as three (or even four) days, from about 27 to 30. In the past, the celebration took half a month, but with the current rhythms of life, this is no longer possible.

Birthday of Buddha.



On this day (it usually falls in May, it is counted, just like the lunar new year, in accordance with the lunar calendar), all residents officially rest. The holiday is very much appreciated, it is celebrated all over the country magnificently and on a grand scale. The most important date of the year.

Children's Day.

The attitude towards children is almost sacred here. The birth of a child is usually expected by the whole family, including even distant relatives, this is always a significant event for any kind. It is believed that with the birth of a baby, an angel comes to the house to protect him. It is not surprising that such a holiday means a lot to this nation.

Family traditions

Attitude to weddings. Of course, in the life of each of us there are weddings, it is the happiest moment, so to speak.

Almost the most serious life event for everyone. In this case, it is not advised to rush – the couple must be firmly convinced of their intention to create an alliance. The fact of getting married raises status in society, while divorce, on the contrary, is considered a great shame.

Chuseok.

This important event is considered to be very «family», when it is necessary to pay tribute to the older members of the family. It is customary to visit grandparents, uncles and aunts. It is imperative to remember those relatives who have already departed to another world.

Harvesting kimchi.

This is the familiar sauerkraut «Korean» cabbage. Every self-respecting family has a recipe, according to which mass preparations of this dish are made annually. By the way, they respect him so much that they even managed to add him to the menu for astronauts!

«Sabaton» from the elders.

This is a gift to children for the New Year and Christmas holidays from older relatives – in monetary terms. And if in our country it is not always considered polite to give money (and they don't risk giving it to children), then this is a normal phenomenon here, kids do not expect any material gifts from grandmothers and grandfathers.

In the end, we can say that the Korean people are very friendly, polite, welcoming, so I want to go there. Even if, for example, they stepped on you, they will apologize because they are tolerant. And they also have their own teaching methods, I really like them, with the help of which almost everyone can easily learn this language.

#### **Literature:**

1. Gabrusenko T.V., Sirotina E.A. Korean plots [The image of a tiger in Korean culture] // Oriental collection (M.). 2002, No. 2 (9). S. 63-70.
2. Filimonova, E.N. Symbols of animals in translated works. «Sacred» animals (based on translations from Korean and Chinese) / E.N. Filimonova // Language, Consciousness, Communication: Sat. Articles. – Issue. 26. – M.: «Max Press», 2004, - S. 51-82.



## МИЛЛАТЛАРАРО ТОТУВЛИК СИЁСАТИНИ МУСТАҲКАМЛАШДА МИЛЛИЙ МАДАНИЙ МАРКАЗЛАРНИНГ ЎРНИ

И.Салимова

ЎзДЖТУ ўқитувчиси  
Телефон: +998909997504  
irodasalimova@inbox.ru

**Аннотация:** Ушбу мақолада миллий маданий марказлар ва дўстлик жамиятлари фаолиятини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш ҳамда хорижий ислоҳотлар изчил амалга оширилгани ҳақида ёндашган

**Калит сўзлар:** миллатлараро тотувликни, диний бағрикенглик, халқаро дўстлик, миллат ва элат, осойишталик, барқарорлик, динлараро зиддиятлар, миллатлар манфаатларини уйғунлаштириш, Миллатлараро тотувлик ғояси.

Ўзбекистон Республикасининг хорижий мамлакатлар билан маданий ҳамкорлигини юксалтириш йўлида мамлакатимизда истиқомат қилувчи турли миллат вакиллари томонидан вужудга келтирилган миллий маданий марказларнинг ўрни алоҳида аҳамият касб этади. Ўзбекистоннинг мустақиллик йилларида қўлга киритган катта ютуқларидан бири кўп миллатли фуқаролар ўртасида тинчлик ва миллатлараро тотувликнинг таъминланганидир. Бугунги кунда Республикаимизда фаол «халқ дипломатияси» асосида фуқаролар тотувлиги барқарорлигини, турли миллатлар вакиллари ўртасидаги тинчлик ва ҳамжиҳатликни таъминлаш, ватандошларимиз онгида кўп миллатли ягона оила туйғусини мустаҳкамлаш, миллий маданий марказлар ва дўстлик жамиятлари фаолиятини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш ҳамда хорижий мамлакатлар билан маданий-маърифий алоқаларни кенгайтиришга доир ислоҳотлар изчил амалга оширилмоқда. Жумладан, 2017 йил 19 майда Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Миллатлараро муносабатлар ва хорижий мамлакатлар билан дўстлик алоқаларини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» Фармон эълон қилинди. Дарҳақиқат, ушбу Фармон асосида соҳага оид амалга оширилаётган ишлар ва чора-тадбирларни самарали мувофиқлаштиришга йўналтирилган давлат сиёсатини босқичма-босқич рўёбга чиқариш мақсадида Республика Байналминал маданият маркази ва Ўзбекистон хорижий мамлакатлар билан дўстлик ва маданий-маърифий алоқалар жамиятлари кенгаши негизида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Миллатлараро муносабатлар ва хорижий мамлакатлар билан дўстлик алоқалари кўмитаси ташкил этилди. Президентимиз Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек, «Бизнинг қадимий ва саҳоватли заминимизда кўп асрлар давомида турли миллат ва элат, маданият ва дин вакиллари тинч-тотув яшаб келган. Меҳмондўстлик, эзгулик, қалб саҳовати ва том маънодаги бағрикенглик бизнинг халқимизга доимо хос бўлган ва унинг менталитети асосини ташкил этади. Мустақиллик йилларида мамлакатимизда миллатлараро муносабатлар ривожига янги босқич бошланди. ... Юртимизда ҳукм сураётган дўстлик ва бирдамлик муҳити – тинчлик ва барқарорлик, амалга оширилаётган ислоҳотлар самарадорлигини ошириш, Ўзбекистоннинг халқаро майдондаги обрў-эътиборини янада юксалтиришнинг энг муҳим омилдир». Маълумки, «Давлатнинг барқарорлиги кўп жиҳатдан миллатлараро муносабатлардаги турли муаммоларни ҳал этиш қобилиятига боғлиқдир. Кейинги вақтларда, глобаллашиб бораётган дунёдаги можаролар, шу жумладан, миллатлараро низолар кучаяётган бир шароитда, бу муаммо, айниқса, муҳим ўринга чиқиб борапти. Шу муносабат билан мамлакатлараро тотувлик ҳар қандай кўпмиллатли давлат учун ҳал қилувчи омил сифатида аҳамият касб этмоқда». Бинобарин, мамлакатимизда ишлаб чиқилган оқилона миллий сиёсатнинг туб ўзагини «Кўп миллатлилик – Ўзбекистоннинг бойлиги» деган бош ғоя ташкил этади. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясининг V устувор йўналиши – хавфсизлик, миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенгликни таъминлаш ҳамда чуқур ўйланган, ўзаро манфаатли ва амалий ташқи сиёсат соҳасида белгиланган вазифалар ижросини таъминлашга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Мамлакатда турли миллатга мансуб фуқароларнинг ижтимоий-иқтисодий, сиёсий-ҳуқуқий, маънавий маърифий ҳаётдаги фаол иштирокини таъминлаш, уларнинг миллий ўзлигини англаши ҳамда этник қадриятларини сақлаб қолишлари учун кенг имкониятлар яратилди.



Юртимизда юритилаётган оқилона миллий сиёсат натижасида мактабларимизда 7 та миллий тил (ўзбек, қорақалпоқ, рус, қозоқ, қирғиз, тожик, туркман тиллари)да ўқитиш ишлари ва Ўзбекистон Миллий телерадиокомпаниясининг телерадио каналлари орқали 10 дан ортиқ тилда (ўзбек, қорақалпоқ, рус, қозоқ, қирғиз, тожик, туркман, инглиз, немис, корейс, татар, уйғур, озарбайжон тилларида) кўрсатув ва эшиттиришлар намойиш этилиб, газета ва журналлар нашр қилинмоқда. Таъкидлаш жоизки, мамлакатимизда истиқомат қилаётган туркманлар ўз тилларини ўзбек тили билан туркий тиллар гуруҳига кириши ҳамда умумий тарихи, миллий қадриятларининг муштарақлиги, айни пайтда, давлатлараро муносабатларда ҳам муҳим аҳамият касб этади. Мамлакатимизда истиқомат қилаётган барча миллат ва элатлар вакиллари қаторида Ўзбекистон ҳукумати туркман миллатига мансуб фуқароларни қўллаб-қувватлаш ҳамда ижтимоий ва маънавий-маърифий ривожланишига алоҳида эътибор бермоқда

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Мирзиёев Ш. М. Миллий таракқиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – Б. 295-296.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий таракқиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кутарамиз. 1-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 2017.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимиз розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баходир. 2-жилд. - Т.: Ўзбекистон, 2018.
4. Мирзиёев Ш.М. Билимли авлод - буюк келажакимизнинг, тадбиркор халқ - фаровон ҳаётнинг, дустона ҳамкорлик эса таракқиётнинг қафолатидир. -Т.: Ўзбекистон, 2018.



## ДЕВОРЛАРГА БИТГАН ОЛТИН ХАЗИНА

Йўлдошева Азиза Зокир қизи  
Санъатшунослик илмий тадқиқот  
институтини таянч докторанти  
Телефон +998(97)7569556  
aziza95yuldasheva@gmail.com

*Мени доим, халқим мухаббатини ва хурматини қозона олдимми, шогирдларимда халқига,  
томошабинга, меҳр мухаббатни уйғота олдимми деган фикр ташвишлантиради.*

*Чингиз Ахмаров*

**Аннотация:** Бугунги кунда тасвирий санъат соҳасида кенг миқёсдаги ўзгаришлар кузатилмоқда. Маҳобатли санъат усталари ижоди ва шу жумладан Чингиз Ахмаров ижодий фаолияти, унинг ноёб асарлари ва деворий суръатлари ёш олимлар томонидан ўрганилиб келинмоқда. Мақолада ҳам айнан унинг Сўғд тўйи деворий суръати хусусидаги мулоҳазалар жой олган.

**Калит сўзлар:** Тасвирий санъат, деворий суръат, миллий мафкура, миниатюра анъаналар, антик давр, нодир ёдгорликлар.

Ўтган асрдаги сиёсий тузум ҳаёти, миллий мафкураси, фан - маъданият ва санъат ва бошқа бир қанча соҳаларга катта таъсир кўрсатди. Ўз тарихи, маъданияти, урф одатлари, анъаналарига эга ўзбек халқи учун оғир ва оғриқли давр бўлди. Ўз эркидан маҳрум бўлган ва эндиликда совет тузуми гирдобига тушган халқ учун янги давр келган эди. Бу тузум санъат ва маъданиятга ҳам ўз таъсирини кўрсатмай қўймади. Ўша даврда халқ янги тузумга бўйсунушга мажбур эди. Хар бир давр, муҳит санъатда жумладан тасвирий санъатда яққол намоён бўлади. Шу давргача Ўзбекистон тасвирий санъатида эркин мавзулар, халқ ҳаёти билан боғлиқ маиший жанрдаги асарлар, алломалар, улуғ сиймолар тасвирланган бўлса, бу даврга келиб Совет иттифоқи асосий мавзу қилиб олиш масаласига алоҳида аҳамият қаратилди. Эндиликда рассомлар фақатгина коммунизм ғояларини, гўзал ҳаёт ва барчасини идеаллаштиришга мажбуран киришдилар. Агитацион ғоялар биринчи планга чиқиб, диққат марказимизда фақат коммунизмга бағишланган палотнолар купая бошлади. Аммо баъзи рассомлар ижодида қарши фикрлар ва ўз ғоясига содиқлик қамаймади. Жумладан устоз Чингиз Ахмаров ҳам даврнинг қийин шароитига бўйсунушга давр талаби ва ижод эркинлигини мутаносиб олиб борган ҳолда санъатда ўз ижодини давом эттирди. Монументалист рассомнинг асарини солномачининг китобига қиёс қилса арзийди. Солномачи ўзи яшаб ўтган даврда содир бўлган воқеа ва ҳодисалар ёзиб қолдиради, ундан келажак авлодни воқиф қилади. Деворий суратлар ишловчи рассом эса муҳим воқеаларни қаср ҳамда қошоналарнинг деворига рангли бўёқлар воситасида нақш этади. Бу бўёқлар бизни ўша давр тасвирий санъатининг ўзига хос жиҳатлари, анъаналари билан таништиради.

Ўзбекистон маҳобатли рангтасвирида Ч.Ахмаров, А.Алиқулов, Б.Жалолов самарали ижод этган. Мазкур маҳобатли рангтасвирчиларнинг ҳар бири ўзига хос ижодий услубга, турли мавзуларнинг ўзига хос бадиий ечимига эгадирлар. Уларнинг ижодлари миллий маҳобатли рангтасвирда алоҳида ўринга эга. Ўзбекистон тасвирий санъатида миниатюрага хос ажойиб ранг полотнолар яратиб миллий санъатимизнинг ривожланишига улкан ҳисса қўшган Чингиз Абдурахмонович Ахмаров ўз ижодий йўли ва санъат мактаби мавжуд. У ёшлик йиллариданоқ Қарши, Самарқанд шаҳридаги шарқона меъморчилик обидалари, амалий санъат сирлари билан астойдил танишади. Чингиз Ахмаров ўзбек халқининг тарихи, унинг анъанавий санъат меросига қизиқади.

Ўз ижодида миниатюра анъаналарини маҳорат билан қўллаётган маҳобатли рангтасвир устаси Ч.Г.Ахмаровнинг “Зулфия” (1965), “А.Навоий шогирдлари билан” (1968), “Нодира” (1975), “Бухоро рақси”, “Х.Носирова Ширин ролида” каби асарлари дастгоҳли асарлари билан бир қаторда, Алишер Навоий номидаги Давлат опера ва балет театри, Бегруний номдаги Давлат Шарқшунослик Институтини, Ўзбекистон Миллий театри, Ўзбекистон метрополитенидаги бекатлар ва бошқа бир қатор масканларнинг деворларида маҳобатли рангтасвир намуналари мавжуд. Шу жумладан: Ангрендаги Гулистон кафесига ишлан-



ган Сўғд тўйи деворий сурати ҳам ижодкорнинг энг ноёб ишларидан биридир. Ч.Ахмаров ва Ж.Умарбеков ижодий ҳамкорлигида яратилган уникал маҳобатли рангтасвирдан бири Турбаздаги “Тулистан” кафесининг “Сўғд тўйи” асари саналади. Мазкур деворий сурат афсуски авваллари санъатшуносларнинг тадқиқот доирасига кирмаган. Маълумот учун “Тулистон” кафеси Ангрен яқинидаги Лашкерек қишлоқчасида жойлашган. 1970-йилларнинг ўрталарида кенг археология тадқиқотлари ва санъатшунослик изланишлари натижасида ислом даврига қадар бўлган Ўзбекистон маданий меросининг авваллари маълум бўлмаган саҳифалари кашф этилди. Юртимизнинг жанубий қисмларида, хусусан Холчаён, Далварзинтепа, Қора тепа каби бир қатор масканлардан деворий рангтасвир, ҳайкалтарошлик, бадиий ҳунармандчилик буюмларидан иборат ажойиб намуналар топилди. Буларнинг барчаси эллинизм, хинд-буддизм ва маҳаллий бадиий анъаналарнинг ўзига хос уйғунлашувидан дарак берар эди. Антик даврнинг нодир ёдгорликларида акс этган маъбудлар, шахзодалар, сарой амалдорлари ва оддий жангчиларнинг образлари мазкур давр рассомлари ва ҳайкалтарошларининг қайта бадиий талқин предметига айланди. Бироқ, бу жараёнда маҳобатли асарлар ҳали яратилмаган эди.

Ўзбекистон санъати бўйича фундаментал адабиётлар муаллифлари, етакчи санъат тарихчилари Г.А.Пугаченкова ва профессор Л.И.Ремпель билан Чингиз Ахмаров яқин дўстона алоқаларда эди. Шу сабабли у янги илмий нашрлар ва кашфиётлар ҳақида яхши хабардор бўлган. Санъатшунослик институтида у бевосита далилий ашёлар билан танишиш бахтига мушарраф бўлди. Улар орасида рассомнинг этиборини конуссимон бош кийим кийган қушон шахзодасининг уникал ҳайкалтарошлик намунаси жалб этди. Шундан сўнг у диққат билан асосан сарой базмлари лавҳалари тасвирлаган ўрта асрлар Сўғд деворий сурати намуналарини ўрганди. Машхур юнон саркардаси Александриялик Искандарнинг зодагон сўғд қизи Роксанага уйланиши тарихий воқеани синчиклаб ўрганди. Буларнинг барчаси XX аср Ўзбекистон маҳобатли рангтасвиридаги илк маротаба исломгача бўлган маданий меросга мурожаат қилинган “Сўғд тўйи” асарининг яралишига замин ясади. Мазкур деворий суратнинг яралиши тарихи ҳақида А.Ҳакимов ўзининг Ч.Ахмаров ижодига бағишланган янги тадқиқотида батафсил баён этган.

1988 йилда инглиз, франсуз ва немис тилларида фундаментал китоб-альбом «Искусство Средней Азии. С древнейших времен до наших дней» дунё юзини кўради. Г.А.Пугаченкова мазкур тадқиқотда Ангрендаги масканлардаги деворий суратларни тадқиқ этишидан мақсад олиманинг фикрига кўра Ч.Ахмаровнинг “Сўғд тўйи” деворий сурати ўрта асрларга оид Афросиёб ва Панжикент суратлари анъаналарини ижодий давоми саналса, “Искандар девори” эса Шарқ миниатюра рангтасвиридаги Искандар ови саҳналарининг ўзига хос қайта бадиий талқини ҳисобланиши фикри билан боғлиқдир.

А.Ҳакимовнинг тадқиқот давомидаги хотираларида Турбаздаги “Тулистон” кафесидagi деворий суратнинг илк маротаба кўришидаги таассуротларини қуйидаги сатрларда баён этади: “Ташландиқ кафенинг биринчи қаватида чангли атмосферада гўё қуёш нурлари каби маэстронинг деворий сурати равшан намоён бўлди. Левкада темпера бўёқлари билан ишланган деворий сурат камтар ўлчамларда эди – улар бир-бирига алоҳида мустаҳкамланган ярим мертли баландликдаги ёғоч панно бўлиб, барча композиция 15 метрли узунликдаги П-симон шаклини ҳосил қилган эди”. Бугунги кунда деворий суратнинг ҳолати аянчлидир. Унинг баъзи жойлари томдан ёмғир сувлари тушиши оқибатида девордан оқиб тушган излар билан қопланган ва деворий суратга зарар етказган”.

А.Ҳакимовни мазкур панно мусаввирнинг бошқа деворий суратларидан нима учун бу қадар катта фарқ қилиши ҳақида ўйлантиради. Бу фарқ нафақат рассомга ноодатий бўлган материалда, балки ранглар мажмуида ҳам намоён бўлган. Мазкур асарга бағишланган Р.Х.Такташнинг мақоласида ҳам персонажларнинг Ахмаровга хос типажларга ўхшамаслиги белгилаб ўтилган, бироқ унинг сабабларига ишора этилмаган. Лойиҳанинг иқтисодий характери ва деворий суратнинг кичик ўлчамларига қарамай Ч.Ахмаров ишга синчковлик ва катта маъсулият билан қарайди. Бунортмачилар масканнинг “Лашкерек” – “Лашкар” (аскарларнинг дам олиш жойи билан боғлиқ ҳолда) маҳаллий номидан келиб чиқиб, Ахмаровга қадим Сўғд шаҳарчалари – Панжикент, Афросиёб ва Варахша каби деворий суратлардаги образларга таяниб асар яратишни таклиф этишади. Рассом эса мутлоқ ўзгача вариант, уруш мавзусини эмас, аксинча тинчлик ва халқлар дўстлиги мавзусини таклиф этади. Тўй лавҳасининг композиция ечими қуйидагича ҳал этилган. Марказда келин ва



куёв жуфтлиги тасвирланиб, уларнинг ҳар икки томонидан совға ва ҳадялар билан элчилар, ўзга халқ вакиллари ҳамда бўйсундирилган ёки империя билан дўстона алоқалар ўрнатган юрт вакиллари келишмоқда. Композициянинг марказлашган ва асосий лавҳанинг икки томонидан кўп сонли фигуралар билан тўлдирилган ечими Ч.Ахмаров ўзининг бир қатор ишларида қўллаган. Жумладан, Самарқанддаги Улуғбек музейи (1963-1965 йй.) ва “Юлдуз” кафеси интерьериди (1970 йй.), газчилар санъат Саройидаги Ибн Сино мавзусига ишланган деворий суратда (1980 йй.) Ангреннинг Турбаз қишлоқчасидаги “Гулистон” кафесидаги деворий сурат композициясига монаддир. Композициянинг учга бўлинишида Чингиз Ахмаров кафе барининг “П” шаклидаги хонаси периметрини ҳисобга олган. Учта деворга ёғоч планшетга муайян ўлчамлардаги деворий суратни ўрнатишни мўлжаллаган. Хонанинг кўндаланг қисмида, яъни “П” шаклининг юқори қисмида Варахшадаги марказий лавҳанинг ўрин олиши мўлжалланган эди. Бироқ, Ахмаров бир оз ўзгача вариантни таклиф этади. Бу ҳақида рассомнинг ўзи куйидагича хотирлайди: “Оромгоҳ масканига келиб ва иншоотни кўриб чиқиб, мен жанг мавзусига эмас, балки аксинча - тинчлик ва халқлар дўстлиги мавзусини яратиш фикрига келдим. Завод раҳбариятига менинг фикрим маъкул бўлди. ... Шу тарзда, мен “Сўғд тўйи” шартли ном остида композиция эскизлари устида жиддий иш бошлаб юбордим, ва тез орада оромгоҳнинг у қадар катта бўлмаган зали деворлари учун учта композициядан иборат картина устида ишлай бошладим”.

“Сўғд тўйи” композициясининг марказий қисми триптих кўринишида ечим берилган. Ч.Ахмаров ўзининг қисқа таҳлилида мазкур лавҳани шу тарзда баён этади: “Келин томонга совға кўтарган аёллар йўл олмоқда: сўзанада Самарқанд тимсоли - куш, мевалар ва бўлажак фарзандлар учун бешик тасвири жойлаштирилган”. Шарқда қадимдан товус шохона куш сифатида қабул қилинган ва у деворий суратнинг концепциясида келин ва куёвнинг юқори табақа вакиллари эканликларидан далолат беради. Кушнинг тумшуғидаги тасма эса, ашхараванд деб аталиб, зардўштийлик қадриятларида у шохона ҳукумат ва маъбудлардан келиб чиқишлик рамзи ҳисобланган. Шунга ўхшаш куш тасвирларини авваллари сўғдларнинг матоларида учратиш мумкин эди. Уларнинг тепасида турли жонзотлар тасвири ишланган тўпбаргул шаклидаги нақш ўрин олган.

Либоси ва ташқи кўринишидан аввалги лавҳалардан тубдан фарқ қилувчи еттинчи рақам остидаги сахнада иккита категориядаги қаҳрамонлар тасвирланган. Улардан бири қора сочли қизлар бўлса, бошқа гуруҳ европаликлар кўринишидаги қизлардир. Улар мазкур даврда жуда долзарб бўлган турли халқ ва ирқларнинг иттифоқини акс эттирувчи гуманистик ғояни намоён этган. Осиёлик қиёфасидаги аёл ва қизлар - сўғдликлар бўлса, олтин сочли гўзаллар – қадим эллинларнинг наслини давом эттирувчи авлодлар деб ҳисоблаш мумкин. Зеро, Ўзбекистон ва Тожикистон худудларида сариқ сочли инсонларни тез-тез учратиш мумкин. Жавлон Умарбековнинг хотираларига кўра Ч.Ахмаров мазкур маълумотни яхши билган ва ўз ғоясини акс эттиришда омадли қўллай олган.

Мазкур сахна композицияси рамзий буюмлар билан тўла. Масалан, чап томондаги қора сочли қиз мўжаз арфани ушлаб турибди. Арфа – маънавийлик ва юқори санъатнинг тимсоли саналади. Кекса аёл эса кўлида серфарзандлик, авлоднинг давомийлиги рамзи сифатида бешик-беланчакни кўтариб турибди.

Композициянинг марказида рассом лавҳанинг асосий қаҳрамонлари бўлмиш келин ва куёвни жойлаштирган. Келин ва куёв куёш фони остида анор шаклига монанд тасвирланган. Қадимда Марказий Осиёда келинларга анор совға қилиш анъанаси мавжуд бўлган. Анор мустаҳкам оила ва кўп фарзандлик рамзи сифатида талқин этилган. Тўй маросимида ёш оилага анор мевасидаги донлар миқдорида фарзандлар тилаш одат бўлган. Ч.Ахмаров Марказий Осиё халқларининг тарихий қадриятлар ва фольклор анъаналардан ўз композициясида маҳорат билан фойдалана олган.

“Сўғд тўйи” картинасининг марказий композицияси симметрик тарзда ечим топган бўлиб, унинг марказида келин ва куёв, ён томонларда эса ўзаро мутаносиб бўлган иккита гуруҳ жойлашган. Деворий суратнинг асосий қаҳрамонлари қора қошли куёв ва келин безакдор равоқ остида бир-бирларинг қўлларидан ушлаган ҳолда тасвирланган.

Уларнинг нигоҳлари томошабиндан яширинган ҳолда, бир оз пастга қараган. Бу бир томондан келин-куёвлик маданияти одоби ва андишаси бўлса, иккинчи томондан шарқона камтарликни ифода этади. Уларнинг қўлларида шакли жиҳатидан бодом гулини ёдга солувчи катта елпиғич акс этган. Оёқлари остида эса ҳаёт дарахтининг ўсиб бориши рамзи



сифатида услублаштирилган новдалар ишланган. Гарчи муайян ҳаракатсизлик ҳолатида тасвирланган бўлсада, бу қаҳрамонлар ички титроқ ва бахтли ҳаяжонга тўла. Уларнинг ҳар иккиси поклик тимсоли бўлмиш оқ либосларга бурканган. Либосларнинг матоси ва безак парчалари уларнинг сўғдларга хослигини таъкидлаб турса, либос бичими, тож шакли нисбатан қадимгироқ даврларнинг анъанавий либосларини ёдга солади. Келин ва куёв қиёфаси чизгилари, этник типи уларни Ч.Ахмаровнинг кўк-ҳаворанг услубига тегишли суратлари ва деворий рангтасвиридаги севишганлар образлари типига яқинлаштиради. Бироқ, барча композиция контекстида уларнинг ҳаракатсиз улуғвор қоматлари аввалги пластик шеърини оҳангдаги асарлардан фарқли равишда эпик таъсирчанлик билан йўғрилган.

Олд планнинг пастки қисмида чап томондаги гул кўтарган қизчага симметрик тарзда ёш болакай тасвири жойлаштирилган. Болакай кўлида нақшлар билан қопланган шарсимон буюмни кўтариб турибди. Эҳтимол, бу буюм Она заминни ёки ҳадя кўтарган қиз ва ўғил серфарзандлик рамзини англатади. Болаларнинг тасвирини турлича талкин этиш мумкин. Ўндан ошиқ турфа хилдаги композиция гуруҳлари орқали Ч.Ахмаров деворий суратнинг композицион яхлитлигини сақлаб қола олган. Лавҳалар алоҳида қисм сифатида мантиқан ва секин аста биринчисидан кейингисига ўтиб боради ва томошабинни марказий қаҳрамонлар келин ва куёвга яқинлаштиради.

Деворий сурат ҳақидаги Ч.Ахмаров ўзининг тавсифларида чап томонда шимол, ўнг томонда эса жануб вакиллари акс эттирганини гапириб ўтган бўлсада, мазкур маҳобатли композицияда анча йирикроқ муаммо – “Шарқ ва Ғарб цивилизацияси” формуласига фалсафий қараш намоён бўлади. Чингиз Ахмаров умрининг сўнгги дақиқаларига қадар кўлидан қаламни туширмаган. Унинг энг сўнгги ишлари 1995 йилнинг бошлари билан белгиланади.

Ч. Ахмаровнинг яна бир маҳобатли асари Ангрэнда жойлашган Гулистон кафесидаги Сўғд тўйи асаридир. Кўриниб турибдики Ч.Ахмаров “Сўғд тўйи” маҳобатли рангтасвирида улкан ишни амалга оширган. Бу асосан рассомнинг иконографик ва умумий композициянинг бадиий ечимидаги изланишларда намоён бўлади. Деворий сурат турфа хил инсон қоматлари, жонзотлар ва маиший буюмларга тўла. Рассом либослардаги ўзига хослик ва персонажларнинг ташқи этник қиёфаси ёрдамида ҳадя келтирувчилар гуруҳининг худудий ўзига хослигини кўрсатишга интиланган. Умуман олганда рассом маҳорати деворий суратнинг бадиий ечими ва ўзига хос колоритида ўз аксини топган.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. А.Хакимов “Нетленный свет ” Жизнь и творчество Чингиза Ахмарова Т. 2018
2. А. Хакимов История Искусств Узбекистана Т.2018
3. Абдуллаев Н. Ўзбекистон санъати тарихи. Тошкент – 2007. б. 230. Б.22.
4. Умаров. А. Предисловие//Чингиз Ахмаров. Путь в искусство. Воспоминания. Т.2007., стр. 15
5. Чепелев В. Искусство Советского Узбекистана. – Л.: Изд. Ленинградского областного союза советских художников, 1935. – 130 с.
6. Ахмедова. Н. Хранитель сада.//Ч. Ахмаров. Сводный каталог произведений. М.2010., стр. 19
7. Такташ. Р. Согдийская свадьба. //Творчество. 1978.№7



## УРМА ЧОЛҒУЛАР ИЖРОЧИЛИГИДА МИЛЛИЙ ВА МАҲАЛЛИЙ УСЛУБЛАР

Олимхўжа Исломович Каримов

Бухоро давлат университети Санъатшунослик  
факултети Мусиқа таълими кафедраси доценти  
o.i.karimov@buxdu.uz

**Аннотация:** Ушбу мақолада Марказий Осиё халқлари маданиятида урма шаклланиш тарихи ва мусиқий меросимизда тутган ўрни ҳақида фикр юритилган. Ўрта асрларда мавжуд бўлган ва ҳозирги даврга қадар бир қатор тараккиёт босқичларини босиб ўтиб мукамал даражада шаклланган зарбличолғулар сози хусусида маълумотлар келтириб ўтилган.

**Калит сўзлар:** “Хатна” ёки “Ўғил тўй”, “Ёш тўйи”, “Никоҳ тўйи”, “Қиз базми”, “Ётоқ тўйи”, “Фотиҳа”, “Ҳино бандон”, “Келин салом”, “Саллабандон” ва “Рахтзанон”, “Домод барии”.

Марказий Осиё халқлари маданиятида урма чолғуларнинг ўзига хос услубий йўналишлари, миллий ва маҳаллий ижрочилик хусусиятлари авлоддан-авлодга ўтиб, бизгача етиб келган. Масалан, “Ҳо-замзам” кўшиғини Тожикистонда фольклор услубларида айтилишини учратиш мумкин. Бу кўшиқ даврлар ўтиб анча такомиллашиб, замонавий мусиқа ижрочилигида ўз ўрнига эга бўлган. Унинг фольклор услубига бирмунча яқинлиги, усул тартиблари Бухоронинг “уфар”ига ўхшаб кетади. Бирок, Бухоро анъанавий уфарининг ижро этилиш хусусиятини ўзга бирор этник гуруҳ ёки халқники билан солиштириб бўлмайди. У фақат Бухорога хос услубий шаклда эканлиги билан алоҳида ажралиб, сезилиб туради. Р.Абдуллаев “Марказий Осиё маросим мусиқаси” тадқиқотида, асосан ўзбек, туркман, қозоқ, қирғиз ва қорақалпоқ каби туркийзабон аҳоли билан бирга, форс-тожик вакиллари ҳам ёндош яшаши натижасида миллий анъаналарнинг мусиқий-маънавий ҳаётда кўплаб урф-одатлар, байрамон базмлар, диний маросимларнинг нақадар кўшилиб-чатишиб кетганлиги ҳақида қизиқарли фикр-мулоҳазалар юритади.

Марказий Осиё халқлари оилавий турмуш тарзида урма чолғуларда ижро этиладиган “Хатна” ёки “Ўғил тўй”, “Ёш тўйи”, “Никоҳ тўйи”, “Қиз базми”, “Ётоқ тўйи”, “Фотиҳа”, “Ҳино бандон”, “Келин салом”, “Саллабандон” ва “Рахтзанон”, “Домод барии” каби удумларда муайян мусиқий намуналарни жалб этиш анча ривож топган. Ўзбек ва тожик халқлари миллий урф-одатлари, турли асрий анъаналари, жумладан, “саллабандон”, “рахтзанон”, “жойғундорон”, “келин талбон”, “чиллагурезон”, “фотиҳа” тўйлари асосан аёллар иштирокидаги маросимлар бўлиб, буларни ўтказишдан олдин, диний удумдаги “оши биби сешанбе”, “биби мушкулкушо”, “падар оши”, “Пайғамбар оши”, каби маросимлар ҳам ўтказилади. Сўнг, навбати билан юқорида кўрсатилган маросимлар нишонланади. Бухорода киз тўйлари ёки суннат тўйлари билан олдин ош “падар оши” ёки “наҳорги ош” берилади. Унда асосан халқ мумтоз ашулалари, Шашмақомдан парчалар 2-3 ижрочи томонидан, дойра, ғижжак ва танбур жўрлигида, баъзан эса сато, тор ва бошқа чолғуларда ҳам ижро этилади. Соф “нўла-самўла” ўқиш услуби ғижжак ёки жиғғак “хучир” чолғусида айтилади, баъзан дойрада фақат тароват бериб турилади. Бу ўқиш усулиёти рубоий айтиш услубларига ҳам яқинлашади. Бундай жиддий ва салмоқли ўқишлар Тожикистоннинг Кўлоб ва Қўрғонтепа услубларида ҳам мавжуд, аммо уларда соф самўла, фардхонлик, наътхонлик дутор ёки хучир чолғуси жўрлигида айтилади.

78 ўлчови Тожикистоннинг барча вилоятлари – Душанбе, Кўлоб, Қўрғон-тепа, Помир, Хўжандда ижро этилади. Бу ўлчов Туркменистонда ва Ўзбекистоннинг Самарқанд вилояти ва Фарғона водийсида ижро этилса, 88 ўлчовли усуллар фақатгина Тожикистоннинг Помир-Бадахшон ҳудудида қўлланилади. Қолган ўлчовдаги усулларни Марказий Осиёнинг барча ҳудудларида учратиш мумкин. Аммо, оҳангга жўр бўлиб чалинадиган усулларнинг ўз навбатида фарқи катта. Бунда “мавригхонлик” “Шашмақом” йўналиши билан боғланганлиги ҳам диққатни жалб этарлидир. Масалан, Бухоро мавриги ижрочиси Тўхфахонда бештадан то саккизтагача бўлган бўлинмаларда айланма даромад (кириш) ва буромад (чиқиш) ҳамда авжлардан иборат бир неча кўшимча қисмлар мавжудлигини айтиб ўтган. Олияхон ижросида эса занг-бандининг кўпгина сўзлари мавригхонлик қисмларидан олинган бўлиб, шеъринг матнининг анча қисқартирилганлигини кўриш мумкин. Мавригхонлик дойра, занг



ва қайроқ созларида ижро этилади. Мавригихонликни фақат дойра, занг, қайроқ кабилар воситасида ижро қилиниши, унинг Шашмақом қисмларига маълум даражада яқин услубий йўналишга эга эканлиги диққатни жалб этади. Масалан, “Соқийнома”нинг иккинчи қисмида “Занг” (шогирд орқали ёддан) айтилади. Бухоро “Занг банди” бўлимининг асосий қисмларидан бири Мавриги-хонликнинг иккинчи асосий қисми “Уфар” бўлса, учинчи асосий бўлинмасига “мухаммас”хонлик, лапарлар ва шеърий айтишув-лардан иборат мусобақалар киради. Мавригихонлик, асосан уч тоифа ижрочилар: қўш дойрачи, созанда-ракқос ва ҳофизлар дойрасида амалга оширилади. Ижро пайтида муайян қисмларни такрорлаш ва савол матнларини қайтариш ёки жавоб тарздаги қайтармалар қоидаларини бажаришда ҳофизнинг шогирди ҳам жўр бўлиб, иккала хонанда (устоз ва шогирд) иштирок этади. Ҳозирги кунда Занг-бандининг “мухаммас” қисмида эса сўзларни талаффуз этиш, бандларнинг ҳар бирида очиш ва ёпиш, янги бандгўйликка киришдан олдин дойрачилар “Сафалак” – “уфар” ва қайтармаларни ижро этадилар. Занг бандининг 1-бўлимида ўзига хос кириш қисми 3\8 ўлчовли ритм-усулда бошланса, ундан кейинги 2-қисми “Ай нозанин” ва “Оранжевой” 5\8 ўлчовдаги куйдан сўнг, 3-қисм – 6\8 ўлчовли уфар тусидаги “Бой-бой” радифли айтимга ўтилади. Мавригихонликда лапарлар, рақсбоп қисмлар билан бир қаторда мухаммаслар ҳам муҳим ўрин тутди. Умуман мавригихонлик аслида эркаклар базми ва бошқа йиғинларга мансуб бўлган. Ҳозирги даврда эса унинг аёллар билан қўшилиб ижро қилиниш ҳоллари ҳам мавжуд.

Албатта, Марказий Осиёнинг қадимги давлатларида, юқорида кўрсатилган жанрлар, дойра ижрочилиги кузатилишида у ёки бу давлатда ўзгача ритмик тузилиш ва яқинлик ёки бетакрор ягона услубларда бўлади. Ф.Кароматли Хоразм, Бухоро ва Тожикистоннинг Помир ҳудудларидаги турли хил бетакрор ва бой мусиқа санъат турларини назарий ва амалий жиҳатдан кенг ёритиб, тадбиқ этади. Ф.Кароматов, Н.Нуржонов тадқиқотларида Помир халқининг миллий удумларини кўп қиррали шаклларда тасвирий хусусиятлар ва нотографик услубда батафсил кўрсатиб, дойра ҳамда якка ижродаги (Дафф чолғусида), Помир анъанавий удумларини касбий хусусиятларини очиб берганлар. Улар “Чўп базай”, “Раққоса базай”, “Чатроқий”, “Қобуай”, “Хатер”, ва ҳоказо номланишларга эга.

Хоразм маҳаллий анъаналарида жуда кўп усуллар Бухоро Шашмақомидан олинган. Аммо, айрим уфар таснифларида улар ўз аниқ усулига эгадирлар. Бу усул ҳам тарихий усул таснифи ҳисобланади.

Бухоро раққосаларининг саломга чиқиш, асар боши уфарида ва мавригихонликнинг мухаммас қисмларида дойра-сафолак уфарида ўзаро яқинлик мавжуд.

Қайроқ ўйинлари Бухоро, Самарқанд ва Хоразмда қадимги даврлардан бошлаб, икки қўл бармоқлари ёрдамида, бир қўл иккинчи қўлдаги қайроқлар садолари билан савол-жавоб қилгандек ижро қилинади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Чолғу ижрочилиги ва ансамбли. Ўқув қўлланма / Каримов О.И., -Бухоро: «Садриддин Салим Бухорий» Дурдона нашриёти, 2019.
2. Чолғу ижрочилиги (прима рубоби, кашқар ва афғон рубоблари). Ўқув қўлланма / Каримов О.И., - Бухоро: «Садриддин Салим Бухорий» Дурдона, 2020.3.
3. Каримов, О. И. (2020). Значение специфических особенностей и воспитательных возможностей узбекских народных инструментов. *Academy*, (3(54)).
4. Каримов, О. И. (2020). ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ МУЗЫКАЛЬНЫЕ ВЗГЛЯДЫ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ МУЗЫКИ. *Вестник науки и образования*, (22-2 (100)).



## MADANIYAT VA SAN'AT SOHALARIDA TA'LIM OLAYOTGAN TALABALARNI ESTETIK TARBIYALASHDA XORAZM DASTONLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

**Madrimov Baxram Xudoynazarovich**

Buxoro davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti

Musiqa ta'limi kafedrasini professori

b.x.madrimov@buxdu.uz

**Annotatsiya:** Doston xalq ma'naviy qadriyatlarini qorishiq holda mujassamlashtirgan og'zaki ijod shakllaridan biri bo'lib, unda qo'shiq kuylash, musiqa deklamatsiya qilish, bayon qilish kabi badiiy-estetik qadriyatlar o'z aksini topgan. Dostonlarda yuksak insoniy fazilatlar ulug'lanadi, ular baxshilar tomonidan ijro etiladi. Dostonlarning hissiy kuchi orqali ajdodlarimizning aralashib ketgan falsafiy, diniy, axloqiy qarashlari, urf-odatlarini, turmush tarzi badiiy tafakkur mahsuli sifatida bayon qilinadi.

**Kalit so'zlar:** zardushtiy, muqaddas, "Avesto", kitob, qahramon, doston, afsonalar, Siyovush, marosim, musiqiy ohanglar, tarix, Araks, daraxt, quruq meva.

Xorazm dostonchiligi o'zining qadimiy ildizlari, betakror uslublari, shevasi hamda yorqin jozibali kuy va qo'shiqlari bilan ajralib turuvchi boy murakkab va ayni damda mushtarak adabiy-musiqiy voqelikdir. Ko'pchilik turkiy xalqlarda bo'lgani kabi Xorazm dostonlari ham aralash, ya'ni hikoya, she'r, ba'zi hollarda she'riy tarzda namoyon bo'ladi. Xorazm dostonchiligining boshqa janrlardan farqi, uning musiqiyliigi, qo'shiq matnlarining keng rivojlanganligi, ravon avjlari, serjilo cholg'u muqaddimalari, parda va tovushga xos qator belgilari bilan ajralib turadi. Dostonchi ularni asosan ochiq ovozda yakka dutor yoki tor jo'rligida kuylaydi. "Doston" forscha so'z bo'lib, turli ma'nolarni anglatadi:

1. Doston-afsona, rivoyat, hikoya.
2. Doston-nasr yo nazmiy matnga asoslanib, musiqa bilan aytiladigan poema, ertak.
4. Doston-cholg'u asboblarida barmoq o'rni va shu joyda hosil qilinadigan parda.

Doston atamasini A.Fitrat quyidagicha ta'riflaydi: "Burungi turklarning shulon, motam, to'y kabi umumiy yig'inlarda, ibodatxonalarda baxshilar qo'bizlarini chalib, o'rnug'a yarasha dostonlar, maxtanishlar, ashulalar, marsiyalar o'qur ekanlar". Ko'rinib turibdiki, adabiyot, she'riyat, musiqa, tomosha va qator san'at turlarini o'zida mujassamlashtiruvchi dostonlar Sharq xalqlari adabiyotida shaklan va mazmunan boy, ko'p qismli adabiy asar hisoblanadi.

Xorazm dostonchiligining ildizlari qadim zamonlarga borib taqaladi. Markaziy Osiyo xududida ilk madaniyat o'choqlaridan biri bo'lgan bu diyorda dostonchilik an'analari, miloddan avvalgi XI-X asrlardayoq keng taraqqiy topganligiga oid ayrim ma'lumotlar mavjud. Jumladan, zardushtiylarning muqaddas "Avesto" kitobidagi "Yasht" deb ataluvchi xudolar va qahramonlar haqidagi doston va afsonalar, ularda Siyovushni Siyovarshin, Jamshidni esa Yima nomlari bilan aks etishi, "Vandidod" nomli diniy marosimlar va qoidalarning musiqiy ohanglar jo'rligida ijro qilinganligi Qo'yqirilganqal'a topildiqlarida aks ettirilgan. Gerodotning "Tarix" kitobida "Araks" (Amu) bo'yida yashovchi xalqlar daraxtning quruq meva va shoxlarini tutatib, bu tutundan mast bo'lib o'yinga tushadilar va sho'x qo'shiq aytadilar, deb yozilgan.

Miloddan avvalgi I asr va eramizning XIII asri orasidagi davrga oid Xorazm tangachalarida Siyovush chavandoz - xudo timsolida aks ettirilgan. Son-sanoqsiz haykalchalarda tasvirlangan otlarning kallasi, "Hazorasp" afsonasining kelib chiqishi va boshqa dalillar insonning otga sehrli afsonaviy mavjudot sifatida sig'inganligi va mehr qo'yganligining yaqqol dalilidir. Afsonalarda ta'kidlanishicha, Hazorasp o'rnida besh buloq bo'lib, u yerdan suv ichgani sehrli, ilohiy otlar uchib kelar ekan. Sulaymon payg'ambar ularni tutish maqsadida, suvga musallas aralashtiradi. Suvni ichgan otlar kayfi oshib ucha olmay qoladi. Sulaymon payg'ambar esa ularning qanotlarini qirqib odamlarga beradi va qo'lga o'rgatishni buyuradi. O'sha otlarning soni mingta bo'lib, Hazorasp nomi shundan qolgan ekan. Bu an'ana keyinchalik me'rojnoma'dagi Muhammad payg'ambarning oti al Buroq, Hazrat Alining oti Duldul, Rustam dostonning oti Raxsh, "Alpomish" dostonidagi Boychibor, Go'ro'g'lining oti G'irotlarning timsolida o'z aksini topgan. Buning natijasida "Rakba'ni" (Rakb-otliq), "Suvora" (Suvoriy-chavandoz) qo'shiqlarining kelib chiqishiga zamin yaratilgan.

Islom dini, xususan, Qur'oni Karim negizida shariat asoslarini targ'ibot qiluvchi har xil qissalar, doston va dostonisifat nomalardan: "Me'rojnoma", "Sultonboboning me'roji", "Bobo Ravshan",



“Payg‘ambarlar hikoyati”, “Yusuf va Zulayho”, “Kiyiknoma” kabi musiqiy jihatdan boy dostonlar yaratilib keng tarqalgan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, XI–XIII asrlarda ko‘p elatli turkiy xalqlarning o‘g‘iz qabilalari Markaziy Osiyo tekisligi, Sirdaryoning quyi oqimi va Orol bo‘ylarida yashaganlar. XI asrning I yarmida saljuqiy sultonlar yetakchiligida Eronning shimoliy, Kavkaz ortining janubiy va kichik Osiyo yerlarini zabt etib, u joylarda asosan o‘g‘iz tillarini tarqatganlar. Shu bilan birga, madaniyatning boshqa turlari, shuningdek, dostonchilik san‘ati ham keng yoyilgan. Turk xalqlarida doston aytuvchilarni qadimda o‘zan (o‘zib ketmak, oldinda boruvchi–B.M.) deb yuritilgan. O‘zanlar qo‘biz chalib kuylaganlar va Qo‘rqit boboni o‘zlariga piru ustoz deb bilganlar. Bobo Qo‘rqit butun Osiyo, Kavkaz ortida yashovchi turkiy xalqlarda afsonaviy qo‘shiqchi, dostonchilik asoschilaridan biri sifatida gavdalanadi.

Rivoyatlarda aytilishicha: Qo‘rqit bobo onasidan tug‘ilganda xaltacha ichida bo‘lgan. Uni ko‘rganlar qo‘rqib ketadilar va xaltani ochib qarasarlar ichida nimjon chaqaloq yotgan bo‘ladi. Uni ko‘rib barcha xursand bo‘lib, quvonib ketadi va bizni boshidan qo‘rqitdi, shuning uchun, ismi Qo‘rqit bo‘lsin, deb bolani shu nom bilan ataydilar.

Ikkinchi rivoyatda esa: qarigan Qo‘rqit boboning jonini olish uchun ajal doimo kuzatib yurar ekan. Ammo Qo‘rqit bobo kechayu – kunduz hech tinmasdan “Hayot qo‘shig‘i”ni kuylar va buning natijasida ajal unga yaqinlasha olmas ekan. Bir kuni u charchab, holdan toygan va ko‘zi bir nafas uyquga ketgan paytda ajal zaharli “qayroq ilon” qiyofasida uni chaqadi va Qo‘rqit bobo vafot etadi. Shundan beri “Hayot qo‘shig‘i” va ajal o‘rtasida tinimsiz kurash borar emish.

Rivoyatlardan ko‘rinadiki, doston qo‘shiqlarini kuylash, ularni ijro etish qadimda paydo bo‘lib, avloddan–avlodga o‘tib kelayotgan musiqiy meros sifatida talqin qilinadi.

Xorazm dostonchiligida ikkita yirik uslub mavjud bo‘lib, baxshilarning o‘z iboralari bilan aytganda, ular Shirvoniy va Eroniy uslublar deb yuritiladi.

Shirvoniy uslubdagi baxshilar doston nomlarini qanday atalishini yaxshi bilsalar ham ko‘pincha birovga aytishni sir tutadilar. Shirvoniy uslubdagi baxshilar, asosan, dutor, tor, garmon, g‘ijjak, doira jo‘rligida doston aytadilar.

Eroniy uslubdagi dostonchilar, asosan, dutor bilan doston aytadilar. Ko‘pincha unga bulomonchi va g‘ijjakchi jo‘r bo‘ladi, lekin, doirachi qatnashmaydi. Eroniy uslubdagi dostonchilarning kuylari musiqiy vaznlarning soddaligi, vazminligi, mungliligi, tovush ko‘lamining cheklanganligi bilan ajralib turadi.

Xorazm dostonchiligida ikki xil dutor qo‘llanilib, ularning biri katta (uzunligi 970–1040 mm), ikkinchisi uzun (bo‘yi 1300 mm) dutorlardir. Bu cholg‘u asbolari tut yoki o‘rik yog‘ochidan yasaladi. Ular qovurg‘ali–dilma dutor va o‘yib ishlangan–qazma dutor deb yuritiladi, qopqog‘i esa tut yog‘ochidan yupqa qilib ishlangan. Dutorlarning ikkkalasini ham yuqori tori taxminan kichik oktava “re” va pastki torlari katta oktava “sol” yoki “lya” ba‘zan “qo‘sh tor” qilib sozlanadi.

Xorazm dostonlarining tarbiyaviy ahamiyati, ularda yuksak go‘zallik va baxt–saodatga erishishning birdan–bir yo‘li–maqsad sari qat’iy intilish, sabr va chidam, matonat, mardlik, qahramonlik ko‘rsatishdan iborat ekanligi kuylanadi. Shuningdek, muhabbat umuminsoniy qadriyat sifatida insonning ma’naviy qiyofasini belgilab beradigan omil, har qanday yovuzlik ustidan qilinadigan g‘alabani ta’min etadigan kuch, insonni jasoratga undaydigan va qalbidagi barcha ezgu fazilatlarni ro‘yobga chiqaradigan vosita sifatida tarannum etiladi hamda o‘quvchi-yoshlarni sadoqatli qahramonlar timsolida shu tuyg‘uga ilhomlantiradi.

Dostonlardagi milliy g‘urur tuyg‘usi kuylovchi va tinglovchi o‘rtasidagi estetik muloqot vositasi va ma’naviy muhit ta’sirida o‘quvchi ongida shakllantiriladi.

Dostonlarda pedagogik tarbiya manbalari va vositalarining o‘zaro ta’siri hamda aloqasi yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu esa, o‘quvchini har tomonlama shakllantirish, unga estetik tarbiya berishga keng yo‘l ochadi.

Musiqqa ta’limi darslarida Xorazm dostonlari namunalaridan foydalanish, o‘quvchilarda tarixiy qahramonlar va ularning jasoratini yaqqol tasavvur qilishga imkon beruvchi muhim vositadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Matyoqubov B. Xorazm doston ijrochilarining zarhal sahifalari. Xorazm, 1999. – 51 b.
2. Matyoqubov B. Xorazm doston ijrochilarining zarhal sahifalari. –Xorazm, 1999. – 51 b.
3. Нурматов Х. Проблемы эстетического воспитания учащихся начальных классов узбекских школ на уроках музыки: Дисс. ... канд. пед. наук. –Т., 1981.- 147 с.
4. Матякубов Б. Музыкальные особенности Хорезмских дастанов: Автореф. ... канд. искусствоведения. –Т., 1996.- 23 с.



## MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIDA TA'LIM OLAYOTGAN TALABALARDA AXLOQIY TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHDA XUSAYIN VOIZ KOSHIFIYNING USTOZ-SHOGIRD MUNOSABATLARI HAQIDA FIKRLARI

Norova Shoira Umrzoqovna,

Buxoro davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti  
Musiqqa ta'limi kafedrasida katta o'qituvchisi.  
s.u.norova@buxdu.uz

**Annotatsiya:** Ilm amalda tadbiq etilmasa, axloqiy talablarga rioya qilinmasa, “mevasiz daraxt va yog‘i yo‘q chiroq” kabidir. Shayx Sa‘diy aytganiday:

Daraxtning mevasi ilmning amalidir, bil. Ilmingga qilmasang amal mevasiz daraxtsan. Javonmardlar uchun xalq ichida yaxshi xulq bilan nom qozonish, baxtga erishish yo‘lida riyozat chekishi, dustiga, yaqinlariga, xalqqa yordami tegishi muhim hisoblangan. Poklik, halollik, ijtimoiy va ilohiy talablarni bajoni dil ijro etish zaruriy sifat bo‘lgan. Eng muhimi bularni ilm bilan egallash mumkin.

**Kalit so‘zlar:** shaxsiy, axloqiy, xuquqiy, ijtimoiy, sifat, sodda, ravon, bayon, tariqat, piru muridlik, oxista, odob, axloq.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, javonmardlik tariqatiga kirgan yosh kishi uning talab, qoidalarini o‘zi mustaqil egallash ancha qiyin. Shuning uchun mazkur” tariqat yo‘liga kirgan kishi pirga extiyojmanddir”(12,22) Voiz Koshifiy bu borada Jaloliddin Rumiyan baytlar keltiradi :

Pir yozdir, o‘zgalar misli kuzak,  
Xalq tundir, pir misoli oy demak.  
Yulni bilgan pir holidan sen gapir,  
Pirni tanla, so‘ngra fahr yo‘liga kir.

Xusayn Voiz Koshifiy javonmardlarning shaxsiy, axloqiy, xuquqiy, ijtimoiy sifatlarni sodda ravon bayon qilib, mazkur tariqatning boshqa tariqatlardan ayri tomonlarini bayon qilib, yoshlarda shu talab va sifatlarni tarbiyalovchi piru muridlikka doir sifatlarni ham atroficha bayon qiladi.

Mazkur tariqat yo‘li murakkab va qiyin. Shuning uchun bu yo‘lni ixtiyor etgan yoshlar adashmasliklari, ularni har xil kishilar chalg‘itmasliklari uchun, pir rahnamolik vazifasini bajaradi. Koshifiy yozadi: Bilgilkim, tariqat yo‘lining qaroqchilari ko‘pdir, ular nodon va kalta fahmlarni xiyla –nayrang donosi bilan makru firib domiga tushirish payidadirlar. Shuning uchun rahnamo bo‘la oladigan, pirlilik (shayxlik) shart – sharoiti va ruknlari (asoslari)ni yaxshi biladigan odamni pir, deb tanlash lozim.

Pir (shayx )tariqat bo‘yicha «O‘zi kamolot darajasini egallagan va boshqalarni ham kamolga yetgazishga qodir va shayxlik shartlari, ruknlaridan to‘la xabardor kishiga aytadilar» (12,23). Pir e‘tiqodli, pok, to‘g‘ri yo‘ldan adashmaydigan, yetarli bilim egallagan, tariqat ilmini chuqur o‘zlashtirgan kishi bo‘lishi kerak.

Pir muridi (shogirdi) ning tariqat bo‘yicha har turli savollariga, qiyinchiliklariga javob berishi, uning mushkilotini osonlashtirishi kerak bo‘ladi. Ustoz (pir ) o‘z so‘zida, ahdiga turadigan va tariqat qoidalarini saqlashda sobit qadam, shogird tarbiyasini maromida olib boradigan inson bo‘lishi lozim. O‘z navbatida saxiy, shogirdga har tomonlama moddiy va ma’naviy yordam bera oladigan, so‘zida qat‘iy turadigan shaxs bo‘lishi kerak.Ustozlik qiladigan pir pok va pokdoman, xayoli – diyonatli, oliyhimmat va ta‘magirlik illatlaridan xoli bo‘lmog‘i darkor Pir mushfiq – mehribon, murid(shogird) dan marhamatini darig‘ tutmaydigan, halim, bosiq va kechirimli bo‘lishi muhimdir. Eng muhimi mohir murabbiy bo‘lib, ”muridni tarbiyalay olsin”.Pir “muridga asta – sekin, oxista ta’sir etib, uni o‘z irodasiga bo‘ysundirsin”. Pir o‘zining xush-xulq, odob – axloqi chuqur bilimi bilan murid qalbiga yo‘l topib, ” toki murid ham uning hoziru g‘oyibida hurmatini birday saqlaydigan bo‘lsin» (12,24)

Adib yozadiki, shayxlik me‘yori-uning «qalbidan muridning chuqur joy olishi, murid murodikim hosil bo‘lishidir» (12,25 ). Bundan tashqari shayx (pir) muridni barcha g‘am – anduh, zulmatdan xalos etishi, o‘ziga ravo ko‘rmaydigan narsalardan muridni asrashi, murid uchun buyurilgan qoidalarga o‘zi ham rioya qilishi, «o‘zini bamisoli cho‘pon, muridlarni esa rama hisoblab, har qanday sharoitda ham murid himoyasidan bosh tortmaslik,» murid molu mulkini o‘z manfaati uchun ishlatmaslik va o‘zgartirmasligi shart. Pir daryo kabi saxovatli, hamma narsani fikr – andisha bilan



hal qilishi lozim. Shayx hech kimga xiyonat ko‘zi bilan qaramasligi va barchaga mehribon rahmdil bo‘lishi kerak. Pir doimo ilm o‘rganishi yomonlar bilan hamfikir bo‘lmay, g‘iybat va yolg‘ondan, saqlanishi kishilarga «xursandchilik istashi va shu xislatlarni o‘z muridlariga yetkazishi» zarur.

Husayin Voiz Koshifiy o‘z navbatida muridning odobi va shartlarini ham o‘z risolasida bayon qiladi. Murid madomiki javonmardlik taraqqatiga kirar ekan, eng avval «irodat (ixlos bilan tariqat yo‘liga kirishi) ulug‘ davlatdir va agar bu murid qalbida nish ursa, barcha saodatlarining urug‘i shudir» (12,25). Bu borada Shayx Sa‘diy demishlar :

Irodat bo‘lmasa, saodat izlama,

Riyozat chekmayin ijobat izlama.

Shundan qilib chiqib, «murid» so‘zining ma‘nosi istovchi, xohlovchi degan ma‘nolarni beradi, deb yozadi adib. Chunonchi, «botinda xohish bo‘lmasa, zohirda hech bir amal ko‘zga tashlanmagan» (12,26) Javonmardlik tariqatiga kirish yoki pirga murid bo‘lish shunchaki bir jo‘n narsa emas, balki ma‘lum talab va sifatlarga ega bo‘lgan kishigina murid bo‘lishi mumkin. Koshifiy o‘z asarida muridning xislatu-sifatlarini birma–bir bayon qiladi. O‘quvchiga ishonarli bo‘lishi uchun uning fikrlarini aynan keltiramiz :

Agar muridning nechta sifatleri bo‘lishi kerak, deb so‘rasalar, o‘nta deb aytgil. Avval shuki, u balog‘at yoshiga yetgan bo‘lishi kerak. Chunki balog‘atga yetmagan kishini tavbaga keltirib bo‘lmaydi va tavba qilmagan odam muridlikka munosib emas. Ikkinchidan, u oqil odam bo‘lishi lozim, chunki aqlli bo‘lmasa, so‘zning pastu balandi, ramziy –botiniy ma‘nolarini anglamaydi. Uchinchidan, muslim bo‘lsin, zero agar musulmon bo‘lmasa, tavba keltirishi mumkin emas. To‘rtinchidan, talabgor bo‘lsin, ya‘ni talab yo‘liga jiddiy jaxd bilan qadam qo‘ymasa, taraqqiy etmaydi. Beshinchidan, sadoqatli bo‘lsin, chunki agar sidqi dildan kirishmasa, piring ma‘rifati kungildan joy olmagan va agar piring so‘zi diliga ta‘sir etmasa, u maqsadiga yetolmaydi. Oltinchidan, tobe‘ bo‘lsin, ya‘ni piring ixtiyorida bir qadam ham chekinmasin. Yettinchidan, baland idrokli bo‘lsin, ya‘ni o‘tkir zehn va ziyraklik bilan to‘g‘ri yo‘lni topib olsin. Sakkizinchidan qabul etuvchi bo‘lsin, ya‘ni piring so‘zlarini rost deb qabul qilsin va pirga maqbul tushsin. To‘kkizinchidan, qanoatli bo‘lsin, ya‘ni faqat zaruriy extiyojga yarasha narsalar ( yeb-ichish, kiyinish) bilan qanoatlansin, ortiqchasini talab qilmasin, zero ortiqcha talablar kishini tariqat yo‘lidan chetlashtiradi. O‘ninchidan, solim (butun) bo‘lsin, ya‘ni boshqa pirga qo‘l bermagan bo‘lsin, boshqa kishi bilan kelishib, ahd qilmagan bo‘lsin, chunki ahdu paymon bitta bo‘ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Imom Abu Xamid G‘azzoliy. Ixyou ulumid-din (Din ilmlarini jonlantirish).- Toshkent: Movarounnaxr nashriyoti, 2003 yil, 232-bet.
2. Zaripov K. Yoshlarning ta‘lim - tarbiyasida hadislardan foydalanish - Buxoro: Muallif bosmaxonasi, 1994 yil, 27-bet.
3. Zaripov K. Ta‘lim – tarbiyada hadislardan foydalanish.- Buxoro: Buxoro nashriyoti, 1996 yil, 64-bet.
4. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniyy yoxud javonmardlik tariqati. N. Komilov tarjimasi.- Toshkent, 1994, 112-bet.
5. Norova S. U. Imam Abu Hamid Al-Ghazali. Teacher-Student Coaching Relations //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 01. – C. 441-445.
6. Umirzakovna N. S. WAYS TO IMPROVE LEARNING EFFICIENCY USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – T. 1. – №. 01. – C. 41-47.



## ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНИДА МИЛЛИЙ-МАЪНАВИЙ МЕРОСНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

Джухонова Ноҳида Ҳаётжонова  
Фарғона давлат университети  
Психология кафедраси ўқитувчиси  
Телефон: +998936402461  
noxida88@mail.ru

**Аннотация:** Ушбу мақолада янгилаш ва модернизация қилишнинг бугунги янги босқичида маданият ва санъатнинг ҳаётимиздаги ўрни ва аҳамиятини ошириш, ёш авлод-мизни миллий ва умуминсоний кадриятлар, она-юртга меҳр ва садоқат руҳида тарбиялаш мақсадида ёритиб берилган.

**Калит сўзлар:** маънавий етуклик, ақлий заковат, руҳий, маънавий камолот, инсофу-диёнат, мурувват, меҳр-оқибат.

Мустақиллик йилларида мамлакатимизда маданият ва санъат соҳасини ривожлантириш, жаҳон миқёсидаги илғор тажрибалар асосида замонавий маданият ва санъат муассасалари барпо этиш, уларнинг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш, ижодкор зиёдиларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш масалаларига давлатимиз томонидан устувор аҳамият қаратиб келинмоқда.

Аҳоли, хусусан, ёшларнинг маданий савиясини юксалтириш, уларни миллий ва умум-башарий маданиятнинг энг яхши намуналаридан баҳраманд этиш, шу асосда маънавий етук, баркамол шахсларни тарбиялаш, ёш истеъдод эгаларининг қобилияти ва салоҳиятини рўёбга чиқариш борасида кенг қўламли ишлар амалга оширилди.

Шу билан бирга, маданият ва санъат соҳасини бошқаришда эскича усуллар сақланиб қолаётгани, мавжуд муаммоларни ҳал этиш бўйича комплекс ёндашувнинг етишмаслиги, маданият муассасаларининг фаолиятини ташкил этиш, аҳолига маданий хизмат кўрсатишда оқсоқликка йўл қўйилаётгани, аксарият жойларда маданият ва санъат масканларининг моддий-техника базаси бугунги кун талабларига жавоб бермаслигини қайд этиш зарур. Айниқса, соҳа учун юқори малакали кадрлар тайёрлашда мавжуд талаб ва эҳтиёжларни ҳисобга олмаслик, уларни қайта тайёрлаш, малакасини ошириш борасида пухта тизим яратилмагани маданият соҳасида ягона давлат сиёсатини самарали амалга ошириш, бу йўналишдаги устувор вазибаларни тўлиқ бажариш имконини бермаяпти.

Жамият ҳаётидаги улкан ўзгаришлар, телевидение, радио ва матбуотнинг мавқеи кун сайин ортиб бораётгани, бир қарашда урф-одат ва анъаналарни ўрганиш масалалари замонавийлашиш жараёнлари комида қолаётгандай туюлсада, уларнинг жамият ҳаётидаги, шахс маънавияти ва мафкурасининг шаклланишидаги аҳамияти камаяётгани йўқ. Албатта, урф-одат ва анъаналар ҳамда маросимлар ўз вазифасини тўғри ўташи учун улар бевосита халқ томонидан тўла эътироф этилиши, кундалик турмуш тарзининг ажралмас қисмига айланган бўлиши керак.

Давлатимиз раҳбари Ш.Мирзиёев ташаббуслари билан тасдиқланган 2017-2021 йилга мўжалланган “Ҳаракатлар стратегиси” ҳамда “Беш ташаббус” ижролари ҳам айнан ёшлар бўш вақтларини унумли фойдаланишлари учун маданият, санъат, адабиёт ва спорт соҳаларида ўзларининг иқтидорларини кўрсатишлари учун имкониятлар эшигини очиб беришга туртки бўлди.

Миллий маънавий кадриятларимиздан ўринли фойдаланиш ёшларда юксак маънавият-ни, гўзал шарқона одобни тарбиялашга хизмат қилади. Ақлий заковат, руҳий, маънавий камолот, инсофу-диёнат, мурувват, меҳр-оқибат булар барчаси маърифатли, маънавият-ли инсонларнинг асосий фазилатларидир. Ана шу фазилатларни ёшларимизда шакллантириш бугунги куннинг муҳим вазифасидир. Бу вазифани амалга оширишда миллий кадриятларимиз битмас-туганмас манбаа бўлиб хизмат қилади.

Анъана ва урф-одатлар моҳиятига кўра инқилобий, жанговарлик ва меҳнатсеварлик хусусиятига эга бўлиб, умумийлик, халқаро, байналмилал ва миллийликни ўзида акс эттиради. Масалан, атоқли кишиларнинг таваллуд топган саналарини нишонлаш (Абу Али Ибн Сино, Ал Хоразмий, Мирзо Улуғбек, Амир Темур, Алишер Навоии ва ҳоказо), Наврўз,



пахта ва ҳосил байрами, узум сайли кабилар эса миллий хусусият касб этади.

Ҳозирги даврда чақалоқларни тантанали равишда рўйхатга олиш, гўдакка исм кўйиш, 16 ёшга етган ўспиринга паспорт топшириш, биринчи кўнғирок, сўнгги кўнғирок, биринчи курслар билан учрашув, катта ҳаётга йўлланма бериш маросими, тантанали равишда ишчилар, деҳқонлар, зиёлилар сафига қабул қилиш, меҳнат фахрийларини пенсияга кузатиш, «Кумуш тўй», «Олтин тўй», «Ховли тўйи», «Пайғамбар ёши» кабилар анъаналар қаторига кирази.

Юқоридаги мулоҳазаларимиздан келиб чиққан ҳолда мутлақо янги шахсни таркиб топтириш устида фикр юритмасдан, балки бой қадрият, маънавият ва руҳиятга асосланиб, мустақил республикамиз фуқароларини ватанпарвар, фидойи, иймонли, эътиқодли, виждонли, софдил, самимий, саховатли, меҳнатсевар, жасоратли, мард, эрксевар, ақлзаковатли, юксак ахлоқли, миллатпарвар, байналмилал руҳда тарбиялаш — фаровон турмушга, қудратли ва бой мамлакатга муҳим замин ҳозирлайди.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Каримов И.А. Ўзбекистон: Миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Тошкент, Ўзбекистон, 1993, 74-б.
2. Каримов И. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т.: “Ўзбекистон”, 2011. – Б. 416
3. Раҳимов С. Абу Али ибн Сино таълим ва тарбия ҳақида. 79-бет
4. Қодирий А. Маънавият юлдузлари. Т.: Халқ мероси нашриёти. 2001, 78-бет



## “SHARQ MUTAFFAKKIRLARINING CHOLG’U SOZLARI RIVOJI VA TAKOMMILLASHUVIGA QO’SHGAN HISSALARI”

**Rajabov Azamat Sharifovich,**

Buxoro davlat universiteti San’atshunoslik fakulteti  
“Musiqqa ta’limi” kafedrasida katta o’qituvchisi  
rajabovazamat266@gmail.com

**Annotasiya:** Ushbu maqolada sharq mutaffakkirlarining cholg’u sozlari rivoji va takomillashuviga qo’shgan hissalari ifodalangan. Musiqaning keng ta’sirchan tarbiyaviy imkoniyatini o’rta asr mutafakkirlari Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqalar yuqori baholashganliklari va bu haqidagi maxsus asarlari mazkur maqolada keng yoritib berilgan.

**Kalit so’zlar:** Musiqqa, san’at, mutafakkirlar, asarlar, kuy, qo’shiqlar, ohang

Kundalik hayotimizda, jamiyatimizning madaniyatini vujudga keltirishda, uning ma’naviy hayotida, davrimizga munosib har tomonlama barkamol badiiy didli, sog’lom fikrli yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazishda musiqqa san’atining o’rni ahamiyatli bo’lib kelmoqda. Jumladan, mehnatkash xalq tomonidan yaratilgan kuy va qo’shiqlar kishi qalbini o’ziga rom qilib, asrlar osha xalq uchun ilhom manbai bo’lgan va insonlarga ma’naviy ozuqa berib kelgan. Xalqimiz o’zlarining bebaho musiqqa durdonalarini yaratgani uchun bu asarlar hozirgi milliy musiqamizga asos bo’lish bilan bir qatorda, doimo go’zallikka tashnalik sezgan inson qalbi to’ridan o’rin olib kelmoqda. Inson qalbi go’zallikka tashnalik sezish bilan bir vaqtda go’zallik muhitidan ozuqa oladi va shakllanadi. “Musiqqa - bu san’at, san’at esa mo’jizadir. Yurak va miyaning shunday xilvat joylari borki, unga faqat san’at vositasidagina kirish mumkin” degan edi sharq mutafakkiri Abu Ali Ibn Sino.

San’at – ijtimoiy ong shakllaridan biri bo’lib, insoniyat ma’naviy madaniyatining tarkibiy qismi, dunyoni ma’naviy anglashning maxsus turidir. San’atning turli ko’rinishlari voqelikni, undagi hodisa, narsa va holatlarni o’zlariga xos usullar yordamida aks ettiradi (Masalan, musiqqa – tovushlar, ularning o’zaro bog’lanishi, uyg’unligi orqali). Lekin shu bilan birga, ular o’rtasida ma’lum umumiylik mavjud. Bu umumiylik shundan iboratki, ularning hammasida voqelik badiiy - obraz tarzda aks ettiriladi.

Milliy istiqloq mafkurasini yoshlar ongiga singdirish jarayonida san’at alohida o’rin tutadi. Shuningdek, san’at inson ma’naviy dunyoqarashini kengaytiruvchi, uni shaxs sifatida tarbiyalovshi vositalardan biridir. San’at insoniyatning ezgulik tomon harakati uchun zarur bo’lgan o’zaro muloqotlar vositasi bo’lib, turli qit’alar va davlatlarni o’zaro bog’laydi. San’at odamlarning his - tuyg’ularini, tafakkurini mavhum tarzda emas, balki jonli badiiy qiyofalarda aks ettiradi, chunki u o’ziga xos his - tuyg’ular xazinasidir. San’at asarlari yaratilishi ikki narsani, ya’ni badiiy obrazli tafakkur qilishni hamda uni amalda ifoda eta olish malakasini o’z ichiga oladi. San’at ilohiyotning tuhfasi, ijodiy mehnat mahsulidir. Agar badiiy obrazli fikr yuritish voqelikni badiiy o’zlashtirish imkonini tug’dirgan bo’lsa, faqat ijodiy mehnatgina uning voqelikka aylanishiga asos bo’la oladi. San’atning barcha turlari badiiy shaklga ega bo’lib, u ko’proq asar tuzilishi (kompozitsiyasi) bilan bog’liq. Asar tuzilishi tomoshabin yoki o’quvchi diqqat-e’tiborini g’oyaviy muddaoga qaratish imkonini beradi. G’oya asar mazmunining asosini tashkil qiladi. Asarning g’oyaviyligi uning mazmundorligidan darak beradi. Shunday qilib, san’at asarlarining mazmuni badiiy g’oya, asar mavzusi, asar syujeti hamda san’atkor tomonidan baholangan hayot hodisalarining yig’indisini tashkil qiladi. Bu san’at turi barcha davr daholari e’tiborini o’ziga jalb qilib keldi. Arastu: “Musiqqa ko’ngilga axloqan muayyan ta’sir ko’rsatuvchi quvvatga ega. Musiqqa shunday xislatga ega ekan, u yoshlarni tarbiyalash vositalari qatoriga qo’shilmog’i lozim”, - deb ta’kidlaydi.

Boshqacha qilib aytganda “Musiqqa kishi ruhining axloqiy tomoniga ma’lum darajada ta’sir etadi, bas shunday ekan, u yoshlarning tarbiyalaydigan predmetlardan biri bo’lib xizmat qilmog’i lozim”, - degan edi. Jumladan bunday misollarni ko’plab keltirish mumkin. Darhaqiqat, insonni estetik tarbiyalashda, uning estetik didini oshirishda musiqqa tengsiz ahamiyat kasb etadi.

Musiqaning keng ta’sirchan tarbiyaviy imkoniyatini o’rta asr mutafakkirlari A. N. Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqalar yuqori baholashganlar va bu haqda maxsus asarlar ham bitganlar. Abu Nasr Farobiyning (873-950) “Katta musiqqa kitobi” (“Kitob al



- musika al kabir”), Ibn Sinoning (980-1037) ”Davolash kitobi” (“Kitob ush-shifo”) qomusidagi “Musika haqida risola”, Al-Xorazmiyning (X asr) ”Bilimlar kaliti“, Safiuddin Urmaviyning (1216-1294) ”Oliyjanoblik haqida kitob“ yoki “Sharafiya kitobi”, Jomiyning (1414-1492) “Musika haqida risola” kitoblarida musiqa ijrochiligi va xalq cholg’ulari haqida muhim ma’lumotlar bayon etilgan. Ibn Zaylining (1044-yilda vafot etgan) ”Musika haqida to’liq kitob”i (“Kitob ul- kabi fil-musiqiy”) uning musiqa ilmidagi yagona va bebaho kitobidir. U yangi usulni –musiqada lادلarni harflar bilan ifodalash usulini ishlab chiqdi. Abduqodir Marog’iy (XV asr) Abduqodir Ibn-G’oyibiy (Marog’iy) Ozarbayjonning Marog’ shahrida tug’ilgan bo’lsada, hayotining ikkinchi yarmi Temur saroyida – Samarqandda o’tgan va Hirotda vafot etgan. ”Musika ilmida ohanglar to’plami” (“Jami a-alxan fi-ilm al-musiqiy”) risolasida musiqa haqida ta’limotni –kamoncha, yetti torli g’ijjak kabi bir turdagi musiqa cholg’ulari borlligi haqidagi ma’lumotlar bilan boyitdi. Qutbiddin ash - Sheroziy (1236-1310) eronlik musiqa nazariyotchisi sifatida tanilgan bo’lib, o’z risolasida kamonchali tanbur haqida ibratli mulohazalar bildirgan hamda inson ovozi musiqa asboblari ichida eng yoqimli deb hisoblangan. XVII asrda yashagan buxorolik musiqashunos Darvish Ali o’z risolasidagi tanbur, chang, qonun, barbot, chag’ona, ud, rud, rubob, qobuz, g’ijjak, shemane, ruxavza, kungura kabi musiqa cholg’ulari haqida batafsil ma’lumot bergan.

Buyuk Sharq mutafakkirlarining merosi xalq cholg’ularini o’rganish sohasida ham tarixiy qimmatga ega. Abu Nasr Muhammad Farobiyning mashhur asari – “Musika haqida katta kitob” (“Kitob al-musika al-kabir”) ulkan ahamiyatga ega. O’rta asr olimi bu kitobida ikki xil musiqa ijrochiligi: ohangni inson ovozi (qo’shiq san’ati) va cholg’ular vositalarida qayta tiklashga ajratadi. Farobiy mohir ijrochi sifatida musiqa cholg’ularining jamiyat hayotidagi rolini o’rganishga ahamiyat beradi va u: ”...Jangu-jadallarda, raqslarda to’y - tomoshalarda, ko’ngil ochar bazmlarda hamda ishq - muhabbat qo’shiqlarini kuylashda chalinadigan o’ziga xos cholg’ular bor”, - deb yozgan edi. Farobiyning yuqorida keltirilgan fikri cholg’ularning turli - tumanligi va ularning nafaqat saroy a’yonlari, balki shahar va qishloq aholisi hunrmandlari orasida, shuningdek musiqa madaniyatida yetakchi rol’ o’ynaganligini tasdiqlaydi.

Kitobning ikkinchi qismi boshdan oxir o’sha davr musiqa cholg’ulariga bag’ishlangan. Unda lyutnya, tanbur, ud, nay, rubob, chang, shohruh, qonun va boshqa musiqa cholg’ulari izchil va batafsil ta’riflanadi. Farobiy torli – mizroblil yutnyani o’sha davrda eng keng tarqalgan cholg’u hisoblagan. Lyutnya o’ziga xos mizrob (chertma) vositasida chalingan, dastasida esa ligatura (lada) lar joylashgan. IX-X asrlarda lyutnya arabcha ud nomini oladi. Bu cholg’u ko’pgina Sharq mamlakatlarida, Kavkaz orti xalqlari orasida hozirgi kungacha saqlanib kelinyapti. (Zamonaviy ud namunalari Toshkent Davlat Konservatoriyasining sohaviy –tajribaviy sinovhonasida mavjud). “Musika haqida katta kitob” da Farobiy yana bir cholg’u asbobi – tanburni ham ta’riflaydi. Olimning fikricha, tanbur (dilni tirnash) udga eng yaqin turadigan cholg’ulardan biridir. Tanburda torlar noxun yordamida chertiladi. Tanbur xuddi ud kabi keng tarqalgan va xalq sevgan cholg’udir. Tanburning ikki yoki uch lez tori bo’lgan. Uning ikki turi ma’lum: Xuroson va Bag’dod tanburlari. Bag’dod tanburining maqomlari kamroq (beshta), cholg’u dastasi kaltaroq bo’lgan. Xuroson tanburining maqomlari ko’p bo’lgan, dastasi cholg’u bo’g’zidan to dastaning yarmigacha oralig’ida pardalar joylashgan. Tanburning bu turi shu kungacha o’z shaklini yo’qotmay, musiqa ijrochiligi amaliyotida yakkanavoz hamda ansambl cholg’usi sifatida amaliyotda foydalanib kelinyapti.

Farobiy shuningdek nayni ham ta’riflaydi. U turli xil damli musiqa cholg’ularini ovoz hosil qilish printsipiga ko’ra naysimon guruhiga kiritadi, ya’ni nay quvurida havoning damli harakati orqali tovush hosil bo’ladi. Ulardan biri oddiy nay yoki bir yo’nalishda joylashgan ko’p teshikli nay. Bu turdagi bo’ylama naylar yoki turlicha ataluvchi naylar hozirgi kunda ham Sharq xalqlari orasida mavjud. Uni v’yetnamliklar “sao”, tojiklar “tutek”, tatarlar “kaval”, qozoqlar “sibizg’a”, ozarbayjonlar “ney”, qirg’izlar “yoo”, “choor” (cho’ponlarning cholg’u asbobi), o’zbeklar “nay” deb ataydi.

Olimlar ko’pincha o’rik yoki tut daraxtidan ishlanadign keng tarqalgan surnay haqida ham to’xtaladi. Farobiy shuningdek, dunay (mizmar) ni ham tilga oladi. Dunay hozirgi qo’shnay yoki turkman xalq cholg’usiga o’xshab – dilli tyuy dyuk (qo’sh qamish naychadan tuzilgan cholg’u) ga o’xshaydi. Farobiy risolasida o’zi yashagan davrda mavjud bo’lgan rubobni ham batafsil ta’riflaydi. O’sha davrdagi rubob ham hozirgi qashqar rubobiga o’xshab rezonator va uzun dastadan tuzilgan. Ikki xil chertma torli rubob mavjud bo’lgan: Biri yog’och dekali va asosiy qismi yog’ochdan, ikki pastki qismi charmdan ishlangan dekali. Farobiy shahodat berishicha,



chang ochiq torlarning tebranishi orqali ohang hosil qiluvchi musiqa cholg'ulari turkumiga kiradi. O'sha davrdagi changning 15 tori bo'lgan, ular diatonik sozlangan va ikki oktava oralig'iga teng tovushqatorga ega bo'lgan. Risolada ta'riflangan barcha cholg'ular raqs, ashula, yakkanavoz va ansambl ijrochiligiga jo'r bo'lishda foydalanilgan. Farobiyning guvohlik berishicha, ud cholg'usi ansambl ijrochiligida yetakchi rolni o'ynagan. "Cholg'u asboblari haqida kitob" da olim tanbur, rubob, chang kabi cholg'ularini udda chalinayotgan kuyga yoki yakkanavoz xonandaga uyg'un jo'r bo'lish uchun sozlash usullarini tushuntiradi. Shunday qilib, Sharqning ulug' allomasi musiqa ilmining bir bo'limi sifatida cholg'ularni o'rganuvchi cholg'ushunoslik sohaga asos soldi. Bu soha keyinchalik boshqa olimlarning asarlarida ham keng boyitildi va rivojlantirildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ro'ziyev Sh. Xorshunoslik. T.; O'qituvchi. 1987.
2. N.Sharafiyeva. Xorshunoslik. T.; O'qituvchi. 1988.
3. Kushayev A. Estetik tarbiya asoslari. T.; O'qituvchi.1987.
4. G.Sharipova. Musiqa o'qitish metodikasi. TDPU. 2000.
5. D.Soipova. Musiqiy va musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish. T.; 2005.
6. Asafyev.B.V. O xorovom iskusstve. M.; Muzika. 1980.
7. Aidriyeva. A.M. Metodika prepodovaniya xorovogo dirijorovaniya. M.; Proyevedeniya. 1989.



## ЎҚУВЧИЛАРГА ЎЗБЕК МИЛЛИЙ ФОЛЬКЛОР ҚЎШИҚЛАРИ ВОСИТАСИДА ЭСТЕТИК ТАРБИЯ БЕРИШ

**РажабовТўхтасин Ибодович.**

Бухоро давлат университети Санъатшунослик факултети.  
Муסיқа таълими кафедраси кафедраси доценти, п.ф.б.ф.д.(PhD)  
t.i.rajabov@buxdu.uz

**Аннотация:** Мақолада ўзбек муסיқа фольклор кўшиқларини ўргатиш учун кўлла-ниладиган усул ва методлар олиб бориладиган дарс жараёнининг самарадорлиги, ўқувчиларига хос хусусиятларини белгилаб олиш, кўшиқлардан фойдаланилган тур-ли муסיкий жанрларни мақсадли ўрганиш орқали ўқувчиларнинг маънавий-ахлоқий ҳислари, қарашлари ва уларга эстетик тарбия бериш, муסיқа дарсларида кўшиқларни ўргатиш орқали ўқувчиларнинг шаклланганлик даражасини аниқлаш учун амалга оши-риладиган ишлар ёритилган,

**Калит сўзлар:** фольклор кўшиқлари, оханг, ритм, усул, метод, таълим, эстетик тарбия, ўргатиш жараёнининг самарадорлиги, ахлоқ, муסיқа маданияти.

Миллий ҳамда умуминсоний кадриятларга асосланган, ҳуқуқий жамиятни барпо этиш мақсадида қатор ишлар амалга оширилмоқда. Чунончи, таълим-тарбия жараёни мазмунига миллий истиқлол мафқураси ғояларини сингдириш, ўқувчиларга миллий кадриятлар, анъ-аналар ва кўп асрлик муסיкий мерос воситасида эстетик тарбия бериш муаммоси алоҳида долзарблик касб этмоқда. Ёш авлоднинг муסיкий истеъдодини, маданиятини юксалтириш, халқ оғзаки ижоди намуналарининг гўзал кўринишларига ошно қилиш, мақом санъати дурдоналарини севиб ўрганиш мақсадида мамлакатимизнинг кўпгина қарор ва фармонлар имзоланган. Бундай имкониятларнинг яратилиши, биринчидан, болаларда куй-кўшиққа, санъатга мухаббат уйғотиб, уларда чолғучилик, ижрочилик каби билим, кўникма ва малака-ларни шакллантиради. Иккинчидан, муסיқа санъати асосида ўқувчи шахсининг маънавий, ахлоқий маданиятини, миллий ғурур ва ватанпарварлик тарбиясини амалга оширади. Ижо-дий маҳорат, нафосат ва бадиий дидни ўстиради, фикрлаш даражасини кенгайтиради. Санъ-ат ва адабиётнинг инсон қалби мемори эканлигини яна бир бор тасдиқлайди. Учунчидан, муסיқа санъати навқирон авлодимизнинг юксак маънавият руҳида камол топишига кучли таъсир кўрсатади. Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, мустақилликнинг биринчи йиллари-данок мамлакатимизда муסיқа санъатини кенг ривожлантиришга алоҳида аҳамият берилди. Айниқса, мумтоз муסיқий меросимизни асраб- авайлаш ва ўрганиш, уни ёш авлодга без-авол етказиш давлат сиёсати даражасига кўтарилди.

Бунинг натижасида нуфузли халқаро муסיқа анжуманлари. Президенти Ш.М.Мирзиёев ташаббуслари билан 2019 йил 5-10 апрел кунлари Термиз шаҳрида ўтказилган, тарихий аҳамиятга эга нуфузли “Халқаро бахшичилик санъати фестивали”, 2019 йил 28-29 апрел кунлари Бойсун туманида ўтказилган “Бойсун баҳори” анъанавий Халқаро очик фестивали, “Шарқ тароналари” 2018 йилдан бошлаб, “Нурли наволар” халқаро фольклор фестивали-ни Нурато туманида ўтказишга киришилганлиги ҳам амамиятга моликлигини таъкидлаш жоиз. Ўзбек фольклоршунослигида кўшиқшунослик алоҳида тармоқ бўлиб, у уч йуналиш-да қарор топган: биринчиси - халқ кўшиқларини ёзиб олиш, тўплаш; иккинчиси - китобат этиш, нашр қилиш; учинчиси - илмий- эстетик жихатдан таҳлил қилиш. Шу мантиқдан қаралса, ўзбек халқ кўшиқларини тўплаш ва китобат ёхуд айрим китобларга дарч қилиш олис тарихга эга. Шуни таъкидлаш ўринлики, ўзбек қалқ кўшиқларини узлуксиз равиш-да илмий мақсадларда ёзиб олиш ишлари аслида XX асрнинг 20 - йилларидан кенг тус олди. Ҳозиргача республикамизнинг турли ҳудудларида олиб борилган фольклор экспеди-циялари натижасида кўплаб халқ кўшиқлари ёзиб олиниб, тўпланган материаллар асосида тўпламлар эълон қилинди. Ўзбек халқ кўшиқларини ўрганилиши, тўплаб нашр этилиши дозирги кунда кўпгина тадқиқотчи олимларимиз томонидан ҳам ишлар олиб борилмоқда.

Халқ оғзаки ижодида салмоқли ўрин эгаллайдиган кўшиқлар фақат куйлаб ижро этишга мўлжалланганлиги билан ижрочи ва тингловчиларнинг диққатига тез тушади. Ҳатто акса-рият кўшиқлар ўйин (рақс) воситасида маълум бир чолғу асбоби ёрдамида ижро этилиши жидатидан ҳам эътиборга моликдир. Кишиларнинг муסיқа санъатига бўлган қизиқишини,



меҳрини оширишида, мусикий дид, билим ва тушунчалар доирасини шаклланишида халқ кўшиқлари ўзининг соддалиги, ихчамлиги, ўйнокилиги, куйлашга қулайлиги билан адами-ятлидир. Кўшиқ куйлашда мусикий билимларни узлаштириш малакалар шаклланиши жараёнининг ўзига хос хусусиятларини аниқлаш имконияти кўпроқдир. Куйловчида бундай билимлар бевосита унинг ҳиссиёт олами орқали эмоционал асосда шаклланиб боради. Яни мусиқани тинглашдан эмоционал идрокка, ундан сўнг эса онгли тафаккурга ўтилади.

Ўзбек халқ фольклор кўшиқларини ўргатиш орқали кишиларни мусиқага қизиқтиришнинг етакчи воситаларидан биридир. Уларга халқнинг ўз куйи, кўшиғи олдин ҳам таниш бўлган характери мазмуни билан тез ёқиб қолади.

Инсонда мусиқий эшитиш кўникмаси "алла" кўшиғи орқали ҳосил қилиниб, сўнгра эр-калалар ва овутмачоклар халқ кўшиқлари ёрдамида фаол ошириб борилади. Кейинчалик, эса бола гапиришни ўргангач, ўзи ҳам бевосита ижрочилик малакаларини эгаллаб олиб, ўзининг мусиқий тасаввурларини тинимсиз ривожлантириб боради. Бундан кўриняптики, халқ кўшиқлари инсонда мусиқий билимларнинг шаклланиши ва ривожланиши учун асосий пойдевор вазифасини ўтайди.

Халқ шеърятининг қадимий, оммавий, аънавий тури саналувчи кўшиқлар инсонга, инсониятга доимий дамрод булиб, унга маънавий турмушда қўмакчи, хилма-хил маросимларнинг бетакрорлигини таъминловчи бадиий қисми вазифасини ўтаб келмоқда. Чунки ранг - баранг жанрлардан ташкил топган ва бир яхлит тизим доирасида бирлашиб, ижтимоий даётнинг турли содалари билан шартланган ўзбек халқ кушиқлари ўзига хос салмоқли уринга ва илмий кимматга эга. Улар бетакрор бадиияти, мазмундорлиги, оангдорлиги, таъсирчанлиги, жозибадорлиги ва тарбиявий-эстетик аҳамияти билан барчани ўзига мафтун этиб келмоқда. Халқ кўшиқларида инсоннинг рудий олами, ички кечинмалари, турмушида содир бўлувчи кўнгилли ва кўнгилсиз воқеалар, ғам-андуд ёки шоду хуррамликлари, меҳнат машаққатлари, севги изтироблари ҳис-туғулар орқали аниқ бадиий образларда гавдалантирилади.

Албатта, инсоният томонидан кашф қилинган санъат турлари муайян шакл ва мазмунга эга булса-да, улар моҳиятан ягона нуқтада туташади. Кўшиқ ҳақида сўз кетганида, айниқса, маълум бир ижрога ёки миллий аънададаги мусиқага дахлдорлик ҳақида гапирилганда, унинг табиатга таҳлид асосида такомиллашганига амин бўламиз. Ҳаттоки унинг архитекtonикаси ҳам табиат унсурларига асосланиши шубҳасиз. Бу ходиса нафақат туркий, балки бутун жадон халқлари кўшиқчилигининг ибтидосига хос муштарак хусусият саналади. Ахир инсоннинг қалб туғёнлари, дил нолалари, имон-этиқоди бари-бариси ўзининг санъат намунаси сифатидаги ибтидосини тақлиддан, яъни табиатга тақлиддан олганлиги маълум.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси // Халқ сузи. - 2017. - 4 авг. - №153 (6347)
2. Ражабов. Д. Ражабов Т. Халқ кўшиғи ва мусиқа ижрочилиги.Тошкент Наврўз нашриёти. 2018 й.
3. Сафаров О, Очилов К. Бойчечак. Тошкент -1984 й.
4. Ражабов Д.З., Ражабов Т.И. Формирование и развитие узбекской народной лирики Вестник института культуры детства 20 выпуск Материалы Всероссийской научной конференции (с международным участием) Челябинск 2018 год 170-176 стр.



## FORTEPIANO SOZINING KELIB CHIQUISH TARIXI VA UNING MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIDA O'QITILADIGAN FANLARDA TUTGAN O'RNI

**Raxmatov Nurbek Erkinovich,**

Buxoro davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti

Musiqa ta'limi kafedrasini o'qituvchisi

Telefon: +998 90 710-64-46

nurbekrus@gmail.com

**Annotasiya:** Ushbu maqolada fortepiano cholg'usi tarixi va evolyusiyasi, klavishli cholg'u asboblari (klavesin) yaratilishi tarixi hamda ushbu ajoyib sozlarning yaratuvchisi Bartalmeo Kristofori haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** klavesin, fortepiano, klavish, klavikord, royal, pianino, diapazon, registr, oktava, subkontr, pedal.

Organ eng qadimgi cholg'u asboblardan biri hisoblanadi. Organ klavishlari keng bo'lgan va ular musht bilan bosilgan, ular XI asrda qo'llangan noqulay lukidon, katta pishanglar o'rniga kelgan. XVI asr boshida keng klavishlar o'rniga hozir ham qo'llanilayotgan va qulay bo'lgan ingichkarog'i bilan almashtirildi. Shu yul bilan organ klavishli cholg'u asbobi bo'lib qoldi.



Klavikord birinchi torli klavishli cholg'u asbobi hisoblanadi. U deyarli o'rta asrlarda paydo bo'lgan. Klavikord hozirgi fortepiano qurilmasiga o'xshash qurilmaga ega bo'lgan. Ammo uning ovozi nixoyatda yumshoq va past bo'lgan, uni ko'p sonli tomoshabinlar oldida chalib bo'lmas edi. Klavikord barokko davrining eng yoqimli va jarangli klavishli cholg'u asboblardan biri hisoblanadi. Klavikordda har bir klavish uchun bittadan tor bo'ladi, va bunday klavikord "bog'langan" deyiladi. Klavikord past ovozli asbob bo'lishiga qaramay kremento va diminuendo qila olgan.

Klavesin deb nomlangan boshqa klavishli asbob XV asrda Italiyada kashf etilgan. Klavesinlar bir yoki ikki (ba'zan uch) simli bo'lgan, klavish bosilganda qush patidan (mediatorga o'xshash) plektor torni chertishi bilan ovoz chiqarilgan. Klavesin torlari zamonaviy pianinodagi kabi klavishlarga parallel joylashgan. Konsert klavesini ovozi keskinroq, lekin uzun notalar cho'ziqroq jaranglashi uchun kompozitorlar bezaklar (melizm) qo'rganligi uchun nihoyatda past eshitilgan.



Klavesindan shuningdek dunyoviy qo'shiqlarda, kamer musiqasida va orkestrda raqamli bas partiyasini ijro etish paytida jo'rnavozlik uchun foydalanilgan. Klavesinlar asosan uy musiqasida foydalanishga mo'ljallanganligi uchun odatda ular juda bezatilgan va uy bezagi bo'lib xizmat kilgan.



Bartolomeo Kristofori

XVIII asr ostonasida kompozitor va musiqachilar ifodaviyligi bo'yicha skripkadan qolishmaydigan yangi klavishli asbobga ehtiyoj sezidilar. Ayniqsa momoqaldiraq guldirashi fortissimo, muloyim pianissimo va nozik dinamik o'tish qobiliyatiga ega bo'lgan keng qamrovli ovozli asbob zarur bo'lib qolgan edi. Medichi oilasi uchun musiqa asboblari ishlash bilan shug'ullanadigan italiyalik Bartolomeo Kristofori 1709 yili birinchi fortepianoni kashf etgan. U o'z kashfiyotini "gravicembalo col piano e forte" deb nomladi, bu "past va baland ovozda chalinuvchi klavishli asbob" degani edi. Bu nom qisqartirilib "forteplano" so'zi paydo bo'ladi. Keyinchalik Germaniyalik musiqa o'qituvchisi Kristofor Gotlib Shryoter (1717 y.) va fransuz Jan Marius (1716 y.) shunday asbob yasadilar.

Kristofori fortepianosining ovoz chiqarish qurilmasi klavish, namatli bolg'acha va bolg'achani qaytaruvchi maxsus uskunadan iborat bo'lgan. Bu fortepianoda dempferi ham, pedali ham bo'lmagan. Klavish bosilganda bolg'acha torga uriladi, u tebranadi, bu tebranish klavesin yoki klavikord tori tebranishiga o'xshamaydi. Qaytargich bolg'achani tor tebranishiga halaqit bermasligi uchun orqaga tortib oladi. Keyinchalik ikkilama repetitsiya kashf qilindi, bu bolg'achani yarim



tushirish imkonini beradi va trel ijrosiga va tez takrorlanadigan notalarni ijrosiga yordam beradi (hususan, tremolo va boshqa melizmlar ijrosiga).

Fortepiano – torli – klavishli turga mansub klavishli musiqa asbobi. Pianino (torli vertikal joylashgan). Bu asbob nomi “forte” va “piano” italyancha soʻzlarni qoʻshilishidan kelib chiqqan, ular “baland” va “past” ovoz maʼnosini beradi.

Koʻpchilik royal bilan pianining farqiga bormaydi, bu asboblarning aslida nafaqat shakli, balki hajmi bilan ham farqlanadi. Bunda deka, tor va mexanik qism joylashuvida farq bor: royalda u gorizontal, pianinoda vertikal joylashgan. Musiqa sifati masalasida royal yahshiroq va pianino odatda “fortepiano” bir sinfiga mansublanadi.

Bu asboblarning hajmi haqida gapirilganda, pianino balandligiga koʻra uch turga boʻlinadi. Balandligi 120 sm dan kam boʻlgan asboblarning birinchi turga kiradi. Bunday pianinoni kichikroq xonaga ham joylashaveradi va u boshlovchi kichik yoshdagi musiqachilarga maʼqul, asbobdan musiqa maktabida oʻqiyotgan yoki mustaqil oʻrganayotgan foydalanadi. Ularning ogʻirligi 150 kg dan oshmaydi.

Ikkinchi turdagi pianino balandligi 150 santimetr boʻladi. Uning hajmi kattaroq boʻlib, yaxshiroq ovoz beradi. Bu pianino 400 kilogrammgacha ogʻirlikda boʻladi va baʼzilar konsert modeli hisoblanadi, yaʼni ulardan tinglovchilar oldida chiqish qilish mumkin.

Uchinchi toifaga mansub boʻlgan fortepianolar odatda ellik yildan ortiq umr koʻrgan boʻladi. Ular katta xonalarga oʻrnatiladi. Bu asbobning balandligi 1,5 metrdan balandroq, ogʻirligi bir yarim tonnadan ortiqroq boʻladi. Ovozi ham yaxshi jaranglaydi.

Asbobning har qanday uygʻun ovozini buzib qoʻyish mumkin. Bunga asbobga nisbatan notoʻgʻri munosabat, ortiqcha quruq yoki nam, issiq yoki sovuq sabab boʻlishi mumkin. Ehtiyotsiz tashilgan pianino ham buzilishi tabiiy.

Garchi fortepiano pesalari oʻn sakkizinchi asrning oʻttizinchi yillaridayoq yozila boshlangan boʻlsa, ular bu asr oxiriga kelib yanada ommalashdi. Bunga Mosartga oʻxshagan kompozitorlar yoʻl ochdi. Hozirgi paytda fortepianoning raqamli “avlodi” sintezatorlar ishlatilayapti.

Tor va pedallar fortepianoning ovozini chiqishiga va boshqa vazifaviy xususiyatlarga javob beruvchi asosiy elementlar hisoblanadi.

Fortepiano har qanday orkestrning bevosita qismi yoki mustaqil, yakka chalinadigan asbob oʻrganiladi va yaxshi xotira hamda eʼtibor talab qilinadi, shuning uchun bu asbob bolalikdan musiqa maktablarida oʻrgatilishi boshlanadi. Musiqa taʼlimining dastlabki bosqichi yetti yil atrofida davom etadi. Soʻngra taʼlimni musiqa kollejlari va OTMLarida davom ettiriladi.

Fortepianodan foydalanish davomida fortepianoni mahoratli mutaxassislariga sozlatib turishi zarur boʻladi. Shundagina fortepiano bir necha musiqachilar avlodiga xizmat qiladi.

Klavishli musiqa asboblari – richaglar tuzimi yordamida ovoz chiqaradigan va maʼlum tartibda joylashgan hamda asbob klaviaturasini tashkil etadigan klavish yordamida boshqariladi.

Shunday qilib klavishli musiqa asboblari dastlab Yevropada paydo boʻlib keyinchalik butun dunyoga tarqaldi. Bu cholgʻu asboblarni yasagan ustalarning nomlari esa manguga muhrlanib qoldi. Shu bilan birga bu cholgʻu asboblari yanada rivojlanishda davom etib, takomillashib bormoqda.

Fortepianodan foydalanish davomida fortepianoni mahoratli mutahassislariga sozlatib turishi zarur boʻladi. Shundagina fortepiano bir necha musiqachilar avlodiga xizmat qiladi. Bu cholgʻu asboblarni yasagan ustalarning nomlari esa manguga muhrlanib qoldi. Shu bilan birga bu cholgʻu asboblari yanada rivojlanishda davom etib, takomillashib bormoqda.

Fortepiano cholgʻu asbobi Oʻzbekistonga XIX asrda kirib kelgan. Hozirgi kunda keng ommaga tarqalib, musiqa taʼlim tizimiga zaruriy musiqa cholgʻu asbobi sifatida oʻquv dasturiga kiritilgan. Shu jumladan, Halq ijodiyoti fakultetining «Folklor etnografik jamoalariga rahbarlik», “Xalq ashula va raqs ansambllariga rahbarlik”, “Cholgʻu jamoalariga rahbarlik” va “Vokal jamoalariga rahbarlik” yoʻnalishlarida tahsil oluvchilariga fortepiano cholgʻu asbobini oʻquv dasturiga kiritilgani ham talaba yoshlarning musiqiy ilm salohiyatini oshirish va madaniy estetik saviyasini tiklashdek vazifalarni bajarishga xizmat qilib kelmoqda.

Xalq ijodiyoti yoʻnalishlarida musiqiy taʼlim oluvchi talabalar oʻz kasb mohiyatidan kelib chiqib xalq musiqa cholgʻulari, xalq ogʻzaki ijodi – lapar, ashula va raqslarni mukammal tarzda oʻrganish bilan birga Yevropa musiqa cholgʻu asbobi, yaʼni fortepianoni muntazam ravishda oʻzlashtirib kelmoqda. Oʻqituvchining vazifasi - bu cholgʻu asbobini texnik jihatdan oʻzlashtiribgina qolmay, oʻz oʻquv uslubiyotida bor bilimi, malakasi va mahoratini ishga solgan holda talabani keng



musiqiy savodxonligini oshirish bilan birga, uning dunyoqarashini ya'ni, musiqiy tafakkurini kengaytirishi va madaniy – estetik saviyasini shakllantirishi zarur.

Fortepiano keng diapazonli klavishli, o'ziga xos murakkab cholg'u asbobi hisoblanadi. U ijrochidan tinimsiz mehnat va harakatni, yuksak musiqa savodxonligini va muntazam ravishda mashq va mashg'ulotlarni talab etadi.

Fortepiano fanidan mashg'ulot jarayoni yakka tartibda o'tkazilib, bu jarayon o'qituvchiga har bir talabaga individual yondashib, alohida uslubni qo'llash imkoniyatini beradi. Har bitta talabaning bazaviy tayyorgarligi, o'zlashtirish qobiliyati va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'qituvchi fortepiano asbobida ijodiy obraz yaratish jarayoniga kirishib ketadi. Bu ijodiy jarayonda ustoz shogirdiga dastur asosida dars beradi, musiqa asaridagi bajarilishi kerak bo'lgan vazifalardan tashqari talabalarni ijodiy fantaziyasini oshirib, musiqiy obrazni yaratish, bastakorning fikrini yoritish bilan birga talabaning musiqiy ongini shakllantirib, madaniy-estetik saviyasini rivojlanishiga imkon yaratib beradi. O'qituvchi bu jarayonda talabaning mashg'ulot davomida olgan bilim ko'nikmalari va ijrochilik mahoratini oshirish vazifalarini rivojlantirgan holda, olingan ma'lumot va ijrochilik mahorati uslubiyatini talabaga yuqori darajada yetkazib beribgina qolmay, dars jarayonidagi quyilgan aniq maqsad va vazifalarni bajarib, talaba-ijrochini muntazam ravishda professional-intellektual qobiliyatlarini shakllantirib va rivojlantirib borishi shart.

Musiqa asarini ijro etish va kuyning mazmun-mohiyatini ko'rsatib berish uchun ijrochilar har xil musiqa asboblaridan foydalanishi mumkin. Lekin ulardan farqli o'laroq fortepianoda bir muncha spesifik afzallik tomonlar mavjud. Ayni chog'da fortepiano cholg'u asbobi ijrochi- talabani mukammal yetuk musiqachi bo'lib yetishishiga katta hissa qo'shadi va bu davlat ta'lim tizimida o'z amaliy isbotini topgan. Forteplano, royalni boshqa musiqiy asboblaridan farqi shundaki, u ko'p tembrli, ko'p ovoqli cholg'u asbobi hisoblanib, uni butun bir orkestr bilan taqqoslash mumkin. Ya'ni royal har xil murakkab musiqa tovushlari va musiqa kombinatsiyalarini o'zida birlashtirgan holda ifodalab berish mumkin. Bu musiqa asbobida xilma-xil janr va stildagi musiqa asarlarining (jumladan, vokal jo'rligida yoki boshqa cholg'u asbobi jo'rligida ijro etiladigan asarlar yoki katta partitura bo'ladimi) barchasini royal imkoniyatlaridan kelib chiqib ijro etish mumkin. Lekin fortepianoning talabalar musiqiy tarbiyasida va musiqa ta'lim jarayonidagi o'rni faqatgina shular bilan chegaralanib qolmaydi. Forteplano uchun asarlar, forteplano jo'rligida ijro etiladigan asarlar va forteplano adabiy-badiiy merosi, barcha o'quv metodik qo'llanmalar, ijrochilarimizning musiqiy ma'naviyatini boyitib, ularning yetuk musiqachi bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, forteplano cholg'u asbobi bo'yicha mashg'ulot jarayoni yakka tartibda o'tkazilib, bu jarayonda o'qituvchi individual tarzda, ya'ni har bitta talabaning qobiliyati, tayyorgarligi va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda amaliy mashg'ulot o'tkazadi. Bu mashg'ulot jarayoniga ijodiy yondoshgan holda berilgan musiqa asarlarining har biriga to'xtalib o'tib, uning janri, stili, texnik jihatlarini ko'rib chiqish bilan birga, bu asardagi bastakorning g'oyasi, ko'zlagan maqsadi va yaratmoqchi bo'lgan obrazi haqida chuqur to'xtalib o'tiladi. Musiqa obrazini yaratish, uning badiiy jihatini ko'rsatib berish jarayonida talaba bor bilim va ko'nikmalarini, musiqa tovushlarini eshita bilish qobiliyati, musiqa ritmlarini yodlab qolish qobiliyati va musiqa ongini ishga soladi. O'zi ijro etayotgan kuyini tinglab eshitgan holda, musiqaviy his-tuyg'u tasavvurlarini, fantaziyasini uyg'otib va kuyning ritmik jihatini va musiqaviy ongini rivojlantiradi. O'z ijrosini o'zi nazorat qilgan holda, ijobiy va salbiy tomonlarini ustoz yordamida aniqlab, madaniy va estetik did-saviyasini shakllantirib boraveradi. Musiqa asari obrazini yaratish va uning ijrosi bilan ko'rsatib berish jarayonida talaba fikrlaydi, o'z ijrosini o'zi tinglab, solishtirgan holda izlanadi va fortepianoda kerakli tovushlarni chiqaradi. Kuyni nafaqat texnik jihatdan, balki ijodiy tarafdin ham mukammal tarzda yetkazishga harakat qiladi. Bu jarayon albatta o'qituvchi nazorati ostida bajariladi. O'qituvchi talabaga to'g'ri yo'llanma va amaliy ko'rsatmalar berib, talabaning o'zi mustaqil ravishda izlanishiga ham imkon yaratib berishi lozim. Musiqa asarlarini tanlab talabaga dastur berish borasida o'qituvchi talabaning tayyorgarlik darajasiga va o'zlashtirish qobiliyatiga e'tibor qaratishi lozim.

Hayotimiz taraqqiyot tomon intilib borar ekan, yoshlarimizga keng imkoniyatlar ochilgan bir paytda ularni komil inson, yetuk mutaxassis bo'lib, shakllanishidagi ezgu ishlarni amalga oshirishga biz ustozlar o'z hissamizni qo'shib, bor kuchimizni ishga solishimiz lozim. O'qituvchi o'qitayotgan faniga talabani qiziqtirib, kerakli bilim va ko'nikmalarni berib borishdan tashqari, ularning ichki dunyosini boyitib, dunyoqarashini kengaytirib, madaniyati, estetik saviyasini oshirib, mukammal inson bo'lib shakllanishiga asos yaratishi lozim. Bu borada har bir o'qituvchi



o‘z uslubiy yo‘llanmasi bo‘yicha o‘qitish va o‘rgatish uslubini shakllantirib ish olib borishi kerak. Yakka tartibda o‘tkaziladigan fortepiano fani dars jarayonida o‘qituvchi va shogird ijodiy muloqotda bo‘lib, qo‘yilgan maqsad va vazifalarni bajaribgina qolmay, ularni bajarishda talabanning darsga faol qatnashishini nazorat qilib borishi kerak. Buning uchun o‘qituvchi doim o‘z ustida ishlashi va malakasini oshirib borishi lozim. O‘z madaniyati, bilim va malakasi, tafakkuri yuqori bo‘lgan va ishiga ijodiy yondoshgan o‘qituvchigina talabada ijobiy hislarni uyg‘ota olishi mumkin.



## MADANIYAT VA SAN'AT TA'LIMIDA O'QUVCHILAR JAMOASINI MUSIQIY-ESTETIK TARBİYALASHNING AYRIM MASALALARI

**Ruziyev Davron Yuldashevich**

Buxoro davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti  
Musiqqa ta'limi kafedrasida dotsenti  
d.y.ruziyev@buxdu.uz

**Annotasiya:** Pedagogika fani o'quvchilar jamoasini tarbiyalashni eng muhim masalalardan biri sifatida ko'rib chiqadi. Taniqli rus pedagogi S.T. Shatskiy ta'limning tarkibiy qismi bo'lgan o'quvchilar jamoasining tarbiyalashni alohida emas, balki barcha pedagogik faoliyat bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. U bolalar jamoasining barcha turdagi faoliyati bilan ishlash yo'l va usullarini katta hissiy va ijodiy ishtiyoq bilan bog'liq bo'lishini e'tirof etadi.

**Kalit so'zlar:** Xor, ansambl, orkestr, jamoaviy musiqqa, bilim, malaka, ko'nikma.

Estetik tarbiya tizimida musiqqa san'ati yetakchi o'rinda turadi. Shunga ko'ra musiqqa san'atining inson ma'naviy-ma'rifiy kamolotidagi tutgan o'rnidan kelib chiqib, yoshlar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, yuksak estetik va axloqiy madaniyatni shakllantirish orqali moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligini ta'minlashga katta ahamiyat qaratilishi davr talabidir. Shu maqsadda bolalar musiqqa va san'at maktablari muassasalarida musiqiy madaniyat targ'ibotini amalga oshirish, o'quvchilarning musiqiy madaniyati saviyasini kengaytirish, milliy cholg'u asboblari ijro etish, xor, orkestr, ansambl va boshqa san'at turlarini takomillashtirish, elektron dasturiy mahsulotlar orqali musiqani o'qitish jarayonlarini texnologiyalashtirishni yanda keng yo'lga qo'yilishi yoshlarni musiqiy-estetik tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqiy vositalar yordamida estetik tarbiya usullarini takomillashtirish har doim musiqiy va pedagogik ilmiy tadqiqotlarning mavzusi bo'lib kelgan va bo'lib qoladi. Chet elda faoliyat yuritgan olim-ma'rifatchilar S.T.Shatskiy, P.P.Blonskiy, A.V.Suxomlinskiy, B.V. Asafev, N.Ya.Bryusova, M.A. Rumer, V.N. Shatskaya, N.G. Grodzenskaya, D.B. Kabalevskiy, O.A. Apraksina, O'zbekistonda esa M. Axmedova, S.K. Annamurodova, M. Xamidov, D.D. Jo'raboeva, V.G. Miretskaya, F.Q. Jo'rayev, H.Nurmatov, S.X. Fayzulina, F.X.Xalilov, E.E.Emmanuel', N.S.Qiyomov, N.I.Rejemetova va boshqalar o'rta maktablar va maktabdan tashqari muassasalarda musiqiy va estetik tarbiya muammosini muvaffaqiyatli hal etishga salmoqli hissa qo'shdilar. Ular o'z asarlarida yosh avlodga, jamiyat quruvchilariga musiqiy va estetik tarbiya berish o'ta zarur ekanligini ta'kidladilar, chunki busiz fuqaroning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash mumkin emas.

Tarbiyaning umumiy muammolarini o'rganish shundan dalolat beradiki, bolani jamoa ta'sirida tarbiyalash, uning axloqiga ijobiy ta'sir qiladi, ijtimoiy, zaruriy fazilatlarini shakllantiradi, mehnatsevarlik, javobgarlik hisini uyg'otib, intizomli bo'lishga undaydi. Bolalar musiqqa va san'at maktablariining xor, ansambl, orkestr faoliyatida o'quvchi shaxs sifatida musiqiy-estetik tarbiyalanish imkoniyatlarini shu jamoa faoliyatidan oladi. Xor, ansambl, orkestr jamoasida o'quvchining shaxsi to'liq va har tomonlama rivojlanib boradi. Jamoaviy faoliyat o'quvchining shaxsiy xislatlarini o'zgartirish mumkin, lekin uning ta'lim olish, tarbiyalanib borish sifatiga ta'sir qiladi.

Ma'lumki, musiqiy bilim, malaka va ko'nikmani o'quvchilar tomonidan izchil egallab olmaslik musiqqa asari mazmun-mohiyatini amaliy jihatdan shakllantirib bo'lmaydi. Vaholanki, inson tafakkuri borliqdan uning mohiyati tomon mudom chuqurlashib boradi. Shunday ekan, bolalar musiqqa va san'at maktablari badiiy repertuarlar ustida tizimli ravishda ishlashi kerak. Bu birinchidan, o'quvchilarni bilim, malaka, mahorat va ko'nikmalarini chuqurlashtiradi hamda yangi qirralarni ochadi. Ikkinchidan, keyingi bosqichlardagi ijrochilik ishonchli ravishda kamol topadi, uning yangi xususiyatlari va timsolini aniqlashga davat etadi. Shu bilan birga, musiqqa asarlarini tizimli ravishda puxta o'rganib borish o'quvchilarni hissiy kuchi, aqliy jihatdan yetukligi, axloqiy fazilatlarini faollashtiradi.

Musiqaning tarbiyaviy imkoniyatlari juda keng. Lekin uning ta'sirchanligi haqiqiy estetik jihatdan yoqimli, chiroyliligini tasvirlash uchun aniq tizim, maqsadli ishlar amalga oshirilishi kerak, bo'lmasa, eng ajoyib musiqqa ham tushunarsiz, keraksiz, begona bo'lib qoladi. Shuning uchun ham o'qituvchi o'quvchilar tomonidan oson o'zlashtirib olingan musiqqa asaridan tortib to qiyin



o'zlashtirilgan musiqa asarlarini muntazam ravishda takrorlab, chaldirib turishi darkor. Musiqa asarini ijro etishni o'rganish davomida ijrochilik tartibi, talab va qoidalariga rioya qilmasdan turib musiqa asarini to'g'ri, chiroyli, ta'sirli ijrosini ta'minlab bo'lmasligi va tinglovchiga, shuningdek ijro etuvchining o'ziga ham mazkur musiqa asarining g'oyaviy-estetik, badiiy mazmun-moyiyatini yetkazib bo'lmasligini o'quvchilarga eslatib turishi kerak.

O'qituvchi har bir musiqa asaridagi ritmik tuzulmani ijrochilar tasavvurida shakllantirib borishimaqsadga muvofiq. Asarni birgalikda ijro etish jarayonida ijroning badiiy uyg'unligi, ya'ni ansambl (birgalikdagi) ijrosini ta'minlash ham muhimdir. O'qituvchi birinchi navbatda, o'quvchilar ijrosidagi umumiy ijro ansamblini to'g'ri yo'lga qo'yishi zarur. So'ng esa guruhlar hamjihatligidagi ansamblni hosil qilishi kerak. Bularning barchasi butun jamoa ijrosidagi umumiy ansamblni sifatli bo'lishini ta'minlaydi.

O'quvchilarda jamoaviy musiqa faoliyati haqida aniq tasavvur hosil qildirish pedagogik va psixologik nuqta nazardan o'ziga xos mehnat qilishni talab etadi. Orkestr, xor, ansambl fanlaridan dars beruvchi o'qituvchilar birinchi navbatda, o'quvchilarda jamoaviy ijro texnikasiga oid tasavvurlarni o'stirishga alohida e'tibor berishi kerak. Buning uchun mashq ijrochilik texnikasining o'stirish uchun bosh mezon hisoblanuvchi vazifalar – cholg'u yoki vokal guruhlari va ular ijrosi uchun taalluqli bo'lgan partiyalar hamda butun jamoa ishini to'g'ri tashkil etishi kerak. Mashg'ulotlar davomida tovushlar garmonikasiga oid ko'nikmalarni rivojlantirib borishi va buning uchun ijroning o'ziga xos usullaridan o'rinli foydalanishi darkor. O'quvchilar tomonida cholg'ular ijrosidagi ansamblni, qo'shiq kuylashni tog'ri his etishga o'rgatish ham muhim. Ohang va kuyni intonastiya jihatdan sofligi ustida ishlash esa o'quvchilarda musiqa asari ijrosiga yanada ijodiy yondashish tasavvurini hosil qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Рузиев Д. Ю. Некоторые психологические особенности развития навыков игры на инструменте и подпевания //Academy. – 2020. – №. 3 (54).
2. Рузиев Д. Ю. ОРКЕСТР КАК СРЕДСТВО МУЗЫКАЛЬНО-ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ //Academy. – 2020. – №. 11 (62).
3. Ruziyev D.Yu. Orkestr vositasida musiqiy-estetik tarbiya (Monografiya). –Buxoro: OOO “Sadrididdin Salim Buxoriy” Durdoni nashriyoti, 2021. -152 b.
4. Миршаев У. М. Музыкально-эстетическое воспитание и современные требования к учителю музыки //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99).
5. Ruziev Davron Yuldashevich and Mirshaev Ulugbek Psychological and Pedagogical Bases of the Organization of Problem-based Education through Folk Songs// International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 04, 2020 ISSN: 1475-7192 // pp.6834-6838
6. Ruziev D.Yu. Ways Of Working On Musical Compositions // The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. –N.



## МАДАНИЯТ ВА САНЪАТИМИЗ РИВОЖИДА МУМТОЗ МУСИКА ЖАНРЛАРИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

**Ҳасанов Ҳалим Равшанович,**

Бухоро давлат университети Санъатшунослик  
факультети Мусиқа таълими кафедраси ўқитувчиси  
h.r.hasanov@buxdu.uz

**Аннотация:** Ушбу мақолада Ўзбекистон Республикаси маданият ва санъати ривожига мумтоз мусикамиз жанрларининг тутган ўрни ва бугунги кундаги аҳамияти кенг ёритилган. Бугунги ўзбек мусиқа санъатининг жаҳон сахналарида эришаётган ютуқлари ҳамда катта ашула ижрочилиги ва оилавий ансамбллар фаолияти ҳақида фикр юритилган.

**Калит сўзлар:** Мумтоз мусиқий мерос, бастакорлик, гастрол, концерт, кўшиқ, терма, лапар, ялла, кўрик-танлов.

Ўзбек мусиқа маданияти қадимий ва ранго-ранг, айна пайтда янги замон анъаналарини ўзида мужассам этган ҳолда ривож топмоқда. Бунда аввало беназир халқ мусиқаси, мумтоз мусиқий мерос, миллий бастакорлик ҳозирги замон бастакорлиги, шунингдек халқ хаваскорлиги ҳамда жўшқин оммабоп эстрада ижодиёти каби шаклан ва услубан ниҳоятда сержило жабхалар намоён бўлади. Истиклол шарофати билан миллий-маънавий қадриятларимизга бўлган диққат-эътибор, унутилаёзган анъаналаримизни тарихан қисқа муддат ичида қайта тикланиши, муттасил тараққий эттириш мақсадидаги янгиланиш, ислох этиш жараёнларида устиворлик касб этди. Шунингдек кўшни ва узоқ хорижий мамлакатлар билан маданий-мусиқий алоқаларни ўзаро бойитиш йўлида ривожлантириш саъй-ҳаракатлари ҳам долзарб аҳамиятга эга бўлди.

Бугунги ўзбек мусиқа санъатининг жаҳон сахналарида эришаётган ютуқлари таҳсинга сазовордир. Бунга, хусусан, Ўзбекистон композиторлари асарларининг йирик ва нуфузли хорижий ижрочи жамоалари репертуарларидан ўрин олиши, етук санъаткорларимиз — Турғун Алиматов АҚШ, Абдухошим Исмоилов АҚШ, Франция, Германияда, Муножот Йулчиева Францияда, Юлдуз Усмонова Голландия ва Германияда, Насиба Абдуллаева ва «Ялла» ансамбли АҚШда, Миллий симфоник оркестри Туркияда, «Сўғдиёна» ўзбек халқ чолғулари камер оркестри Испания, Голландия, Германия мамлакатларида муваффақият қозонган гастрол ва концертлари ёрқин мисолдир. Шунингдек ушбу ўн йиллик даврида элликдан ортиқ ёш истеъдодли созанда ва хонандалар нуфузли Халқаро танловларнинг совриндорлари бўлишди. Улар орасида пианино ижрочилари — Улуғбек Полвонов (Португалия, 1991; Италия, 1996; Германия, 1996; Грузия, 1997; АҚШ, 1998), Гулнора Алимова (Франция, 1993; Португалия, 1994; АҚШ, 1995), Наргиза Алимова (Италия, 1996; Беларуссия, 1996; Шимолий Корея, 1997), Ирина Гульзарова (Италия, 1997; Италия, 1999; Украина, 2000), Рустам Абдуллаев (Греция, 2000), хонандалар — Анна Гузаирова (Италия, 1993), Сайда Мамадалиева (Шимолий Корея, 1996), Севара Назархонова (Болгария, 1999), камонлиторли чолғу ижрочилари — Дилшод Назаров (виолончель, Франция, 1999), Суннат Иброхимов (виолончель, қозоғистон, 2001), Марина Саркисова (скрипка, Туркия, 2000), Анастасия Юденич (скрипка, Франция, 2001), дамли чолғу ижрочиси — Али Измайлов (қозоғистон, 1995) ва бошқалар бор.

Маълумки, ўзбек халқининг маънавий гўзаллиги асрлар қаъридан келаётган куй-охангларида ўзининг ажойиб, бетакрор бадиий инъикосини топган. Уламоларимиз берган таъ-рифлардан бирига кура, мусиқа — инсон рухининг озиридир. Бинобарин, миллий мусиқа куп асрлар давомида аждоқларимиз бой маънавиятининг, теран тафаккурининг, баркамол рухиятининг садолардаги жонли ифодаси ва, айна пайтда, янги, буюк давлат бунёдкори бўлмиш жамиятимизнинг рух, қуввати ва жон озиридир.

Мустақиллик йиллари ўзбек анъанавий мусиқасига эътибор янада кучайди. Миллий қадриятлар, урф-одатлар ва маросимларнинг тикланиши мусиқа соҳасида ҳам анча ўзгаришларга сабаб бўлди. қадимий миллий мусикамиздаги бой бадиий-тасвирий воситалар билан бир қаторда, янги жанр ва турларини ўзлаштириш натижасида ўзбек мусиқа санъати яна ҳам юксак даражага кўтарилди. Шу боисдан республика микёсида кўплаб кўрик-танловлар ташкил қилинмоқда. Хусусан, ушбу ўн йилликда катта ашула ижрочилиги



ва оилавий ансамбллар (Кўқон, 1991; Шахрисабз, 1994), «Алла» ижрочилари (Тошкент, 1992, 1998, 2000; Марғилон, 1996), туй-маросим кўшиқлари ижрочилари (Тошкент, 1993), фольклор-этнографик жамоалари «Чашма» танлови (Тошкент, 1994), «Истеъдод» номли ёш хонандалар (Тошкент, 1995), бахши-шоирлар (Денов, 1991; Нарпай, 1993; Тошкент, 1997; Термиз, 1999), мақом ижрочилари ва халқ чолғулари ансамбллари (Шахрисабз, 1996), «Бархаёт сиймолар» (Тошкент, 1997, 1998), оилавий ансамбллар (Жиззах, 1998), фольклор-этнографик ансамбллари (Тошкент, 1999), М.Узоқов ва Ж.Султанов номидаги ёш хонандалар (Марғилон, 1999), Хожи Абдулазиз Расулов номидаги ёш хонандалар (Самарқанд, 1997), Комилжон Отаниёзов номидаги ёш хонандалар (Урганч, 2001), Ю. Ражабий номидаги IV Халқаро ва V Республика Мақом ижрочилари (Тошкент, 1995, 1999), оилавий ансамбллар (1995) ва фольклор-этнографик жамоалари (1996), телефестиваллар шулар жумласидандир.

Шу билан бирга, кўшиқ, терма, лапар ва яллаларимиз бутун Ўзбекистон бўйлаб ўтказил аётган катта байрамларда, айниқса, Мустақиллик Наврўзга бағишланган тантана ва оммавий сайилларда, таниқли ва ёш санъаткор-хаваскорлар иштирокида берилган турфа концерт-томошаларда ҳам ўзининг ёрқин ифодасини топмоқда.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўрисида”ги онуни ва “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури.” - Т.:Маърифат, 2014 йил.
2. Анъанавий кўшичилик ва мақом асослари. Фан дастури. Тузувчилар: М.Мамиров, - Т.: 2001 йил.
3. Ахмедов Ф. Оммавий байрамлар режиссураси.-Т.: Алоқачи, 2008 йил.
4. Файзуллаев Е. Бўлажак мусиқа ўқитувчилари бадиий дидини шакллантиришда ўзбек мумтоз мусиқаси имкониятларидан фойдаланиш.-Т.: 2008 йил.



## О‘ЗБЕК МИЛЛИЙ АКАДЕМИК DRAMA TEATRI SPEKTAKLLARIDA FOLKLOR TOMOSHALARINING AKS ETTIRILISHI

**Xamidova Shaxlo Shermatovna**  
O‘zDSMI katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada teatr san’atida folklor etnografik manbalardan foydalanish va uning spektakl muvaffaqiyatida tutgan o‘rni haqida so‘zlanadi.

**Kalit so‘zlar:** Folklor, etnografiya, teatr, spektakl, aktyor

Zamonaviy o‘zbek teatri o‘z an’anaviy qadriyatlarini saqlab kelayotgan, shu bilan birga insoniyatning eng nodir yutuqlarini o‘zida singdirgan san’atdir. Ahloqiy qadriyatlar, insoniylik, tarix va zamonaviylik – bugungi o‘zbek teatrlarini o‘ziga jalb etmoqda. Hayotni o‘zida oynadek aks ettirgan teatr san’ati insonning ma’naviy dunyosini kengaytirish, o‘z kamchiliklarini chetdan turib kuzatish imkonini beradi. Davr teatrning ana shu jihatlari hisobga olgan holda bugungi kunda zamonadoshlarimizga ibrat bo‘larli salmoqli asarlar yaratishni taqazo etmoqda. Keyingi yillarda teatrlarimizda zamonaviy mavzularda asarlar yaratilib, sahnalashtirish yildan yil sezilarli tus oldi. Zamonaviy mavzular, asosan melodrama, komediya, tragikomediya janrlari doirasida ishlanmoqda. Ayniqsa teatrlarda etnografiya va folklor manbalar vositalaridan foydalanish butun bir uslubiy yo‘nalish sifatida ko‘zga yaqqol tashlanib, o‘zbek sahna san’atining o‘ziga xosligini kuchaytirishga hizmat qilmoqda. Sahna asarlarida unut bo‘layozgan qadriyatlar, urf-odatlar, udumlar qayta tiklanib, tomoshabinga taqdim etilmoqda. Aynan, ushbu sahnalar orqali bugungi kun muammolari oila rishtasi, qaynona-kelin munosabatlari, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi mehr oqibatning aks etishi tomoshabinlarda katta qiziqish uyg‘otmoqda. Bu asarlarning aksari komediya janrida o‘z ifodasini topmoqda. Komediya hamma zamonlarda ham ijtimoiy hayotda uchraydigan nuqsonlar, kishilar fe’lidagi salbiy illatlarni qoralagan. Dramaturglar o‘z asarlarida muammo va kamchiliklarni satira va yumor orqali ko‘rsatishga, jamiyatga, hayotiy muammolarga o‘z tanqidiy munosabatlarini bildirishga intilganlar. Ma’lumki komediya jamiyatda ma’naviy-ijtimoiy ziddiyatlar kuchaygan davrlarda paydo bo‘ladi. Demak shunday ekan, komediya tomoshabinlarda ko‘tarilgan mavzu yuzasidan mushohada qilishga, kulgu zamiridagi achchiq haqiqatni anglashga, hizmat qilmog‘i lozim.

Ana shunday spektakllardan biri Milliy teatrdan sahnalashtirilgan dramaturg E.Xushvaqto‘vning “Chimildiq” asaridir. Dramaturgning deyarli barcha asarlari katta shov-shuvga sabab bo‘lmoqda. Nafaqat poytaxt, balki viloyat teatrlarida ham tomoshabinlar tomonidan iliq kutib olinadi. “Chimildiq”ni sahnalashtiruvchi rejissyor T.Azizov aktyorlar ijrosidan tortib, dekoratsiyava liboslargacha folklor-etnografik uslubda aks ettirishga intildi. Folklor asosida sahnalashtirilgan spektaklda voqea o‘zbekona to‘ydan keyingi bo‘ladigan hodisalar atrofida kechadi. Asarda yoshlarimiz uchun hamma vaqt nozik masala hisoblangan umr yo‘ldosh, jufti halol tanlash “savdosi” samimiy va yumshoq kulgu, hamda yengil didaktik ruhiyatga ega. Yoshi o‘ttizdan oshsa ham o‘z g‘ururini yo‘qotmagan, ko‘cha-kuyda har kimlar bilan yetaklashib yurmagan Yigit chimildiqqa qadam bosadi. Navnihol, o‘n sakkizga kirmagan, xurliqo Qiz ham sha’riy nikoh bilan shu chimildiqqa kiradi. Qizning suv solingan oftobani norozi ohangda to‘q etib yerga qo‘yishidan asarga tugun tushadi. O‘qishni orzu qilgan jufti halolini ko‘rmay turib ota so‘zi bilan chimildiqqa kirgan qiz o‘z taqdiridan aslo rozi emas. Ammo, vaqt o‘tgani sayin Qizning ko‘z o‘ngida Yigit fazilatlari tobora ochilib boraveradi. Tugun hikoyat asosida yechimini topadi. Albatta, bu borada ko‘pni ko‘rgan, ikki yoshning taqdiri uchun javobgar Momoning xatti-harakatlari, kuyinishlari ham behuda emas. Nihoyat Qiz Yigitni chimildiqda o‘tgan bir necha soatda sevib qoladi. Chimildiq muqaddas, unga kiruvchi yoshlarning niyatlari, o‘y-fikrlari ham pok bo‘lmog‘i lozim. “Istiqlol va milliy teatr” to‘plamida S. Qodirova shunday yozadi: “Chimildiq” spektaklida ma’lum darajada “tomoshada tomosha” uslubi qo‘llanilgan. Chunki unda ijrochilar muayyan obrazlar qiyofasida yashab turib, marosimda qatnashib, tomosha ko‘rsatadilar. Demakki har bir ijrochi go‘yoki ikki qiyofada namoyon bo‘ladi. Tomoshada tomosha uslubi o‘zbek teatri uchun yangilik emas, albatta. Ammo “Chimildiq”da bu uslub uzukka ko‘z qo‘yganday yarashgan”(2, 155).

Spektakldan ko‘zlangan maqsad nafaqat “Chimildiq”ni muqaddasligini ko‘rsatish, balki o‘zbek xalqining oilaga bo‘lgan munosabatini ham ifodalashdan iborat. O‘tmishda, oila qurmoqchi bo‘lgan qiz va yigit chimildiqda uchrashishgan va shu yerdan ularning rishtalari bir



umrga bog‘langan. Oilada erkak va ayol munosabatlari shu qadar ahloqiyki, ular ko‘z nigohi orqali bir-birini tushunishgan. Uzoqqa bormaylik o‘zimizning buvi yoki buvalarimiz oriyat, hayo kuchliligidan, bir-birining ismini aytib chaqirishga botina olmaganidan, to‘ng‘ich farzandlari ismi bilan chaqiradilar. Hayotning og‘ir-yengili birgalikda sabr-matonat bilan yengadilar. Ularga ajralish yot edi. Chunki ular “Chimildiq” deb atalmish muqaddas dargohda Olohni tilga olib so‘z berishgan.

Biroq bugungi kunda oila yoshlar uchun bir bekatdek bo‘lib qoldi, o‘zi hohlagan joyida tushib qoladigan. Har kuni uchrashib bir-biriga takror-takror sevgi izhor qilib, turmush qurgach ajralib ketayotgan yoshlar qancha. Shu sababli, “Chimildiq”da ko‘tarilgan g‘oya bugungi kunda oila ostonasiga qadam qo‘yayotgan yigit-qizlarga bir-birlari oldidagi burchlariga, er-xotinlik majburiyatlariga jiddiy munosabatda bo‘lishga chorlaydi. “Chimildiq”ning muvaffaqiyatini avvalo Erkin Hushvaqtoy pyesasidagi ifoda uslubi belgilab bergan.

Hulosa o‘rnida aytish mumkinki, ushbu spektaklda folklor etnografik qarashlar go‘zal tarzda ochib berilgan. Bu kabi spektakllar yoshlarni tarbiyalashda ularni ma‘naviyatini shakllantirishda va milliy an‘anamiz, folklorimizni targ‘ib etishda katta manba bo‘lib hizmat qilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

1. E.Xushvaqtoy. “Chimildiq”. Toshkent 2010 y.
2. “Istiqlol va milliy teatr”. To‘plam. Yangi asr avlodi. T, 2002 y, 155-bet.
3. Ikromov H. “Davr va teatr”. O‘zbekiston milliy inseklopediyasi nashriyoti, Toshkent 2009 y, 96 bet.



## MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIDA FAN TA'LIM VA ISHLAB CHIQRARISH O'RTASIDAGI INTEGRATSIYANI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI

**Baxromjon Inatullayev Boqijanovich**

Namangan davlat universiteti tayanch dotsenti

**Komilxo'jayev Zoxidjon Shuxrat o'g'li**

Namangan davlat universiteti 3- bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda kadrlar tayyorlash tizimida yuzaga kelayotgan fan, ta'lim va ishlab chiqarish soh asidagi muammolar va ushbu sohani rivojlantirish uchun madaniyat va san'at tizimidagi amalga oshirish foyda beradigan takliflar keltirib o'tilgan.

**Annotation:** This article presents the problems in the field of science, education and production that are emerging in the system of personnel training today, and suggestions for the development of this field in the system of culture and arts.

**Аннотация:** В статье представлены проблемы в области науки, образования и производства, возникающие сегодня в системе подготовки кадров, и предложения по развитию этого направления в системе культуры и искусства.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning bugungi taraqqiyotida jamiyatning barcha sohalari qatori, madaniyat sohasida ham kadrlar tayyorlash siyosati izchillik bilan olib borilmoqda. Biroq, bugungi axborotlashgan jamiyatda globallashuv sharoitida inson ongi, tafakkuriga qaratilgan hurujlar ortib bormoqda. Bu jarayonda jamiyatning har bir a'zosini ongli ravishda turmush tarzini tashkil etishi bu nafaqat zamonaviy tendensiyalar, balki milliy an'ana va qadriyatlarga sodiqlik asosida sodir bo'ladigan ijtimoiy jarayondir. Bu jarayonda esa madaniyat muassasalarining ham funksiyalari mavjud bo'lib, ajdodlar va avlodlar o'rtasida madaniy merosni tashuvchilik funksiyasi, targ'ibot funksiyasi, manipulyasiya funksiyalari yuzaga chiqadi. Bu funksiyalarni to'laqonli ado etishning yagona sharti yuksak ma'naviy fazilat va zamonaviy bilim, tajriba va ko'nikmaga ega raqobatbardosh kadrlarga bog'liq. Bu o'z o'zidan madaniyat sohasida kadrlar tayyorlashda fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi bilan bog'liq bo'ladi.

Jahon amaliyotida fan va ishlab chiqarish integratsiyasining eng asosiy texnik jihatlaridan biri texnopolislar, ilmiy parklar va texnoparklar hisoblanadi. Bularni o'zaro hamkorligi innovasion jarayonlarni tashkil etishi uchun zaruriy sharoitlarni yaratishda, yangi turdagi sinov mahsulotlarini hamkorlikda ishlab chiqishga xizmat qiladi. Chunki, innovasion loyihalarni amalga oshirishga kerakli jihozlar va moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda fan va ishlab chiqarish integratsiyasi muhim omil hisoblanadi. Natijada, ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi innovasion klasterlarni shakllanishiga xizmat qiladi<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish Harakatlar strategiyasining "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" deb nomlangan 4-qismi 4.1. bandida yaqin besh yilda aholini ish bilan bandligi va real daromadlarini izchil oshirish, buning uchun esa "yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari bandligini ta'minlash" kabi vazifalarni hal etish ko'zda tutilgan.<sup>2</sup> Bu masalalarni bugungi mehnat bozor tamoyillari asosida hal etishda "ta'lim-fan-ishlab chiqarish" innovasion hamkorligini amalga oshirish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyulda "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son qarori<sup>3</sup> madaniyat sohasida kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari oldiga madaniyat vazirligi tizimidagi muassasalarda nafaqat malakaviy

<sup>1</sup> Алиев Я.Э. Таълим, фан ва ишлаб чиқариш ўртасида инновацион ҳамкорликни ривожлантириш йўллари.// "Мамлакат иқтисодий хавфсизлигини асосий йўналишлари" мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари. 2019. -Б. 34.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харажатлар стратегияси тўғрисидаги ПФ-49-47-сонли фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 27 июлда "Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-3151-сон қарори // Халқ сўзи газетаси 2017 йил 28 июл



amaliyoti balki, ta'lim jarayonining amaliy, laboratoriya mashg'ulotlarini ijodiy ishlab chiqarish bilan birgalikda tashkil etish, shuningdek, ta'lim yo'nalishlari davlat ta'lim standartlari mazmunini madaniyat tizimidagi dolzarb muammolar yechimiga qaratish vazifasini qo'yadi.

Madaniyat vazirligi huzurida faoliyat yuritayotgan madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazi respublika hududidagi madaniyat muassasalari faoliyatida uchrayotgan muammolarga ilmiy-uslubiy yondashuv asosida yechim ishlab chiqar edi. Biroq aholi o'rtasida olib borilgan o'rganish natijalari globallashuv va axborot davri nafaqat dunyoning turli mamlakatlari, balki bir mamlakatning turli hududidagi etnoregional xususiyatni o'rganmay, shu hudud ijtimoiy-madaniy hayotida uchrayotgan muammolar bartaraf etish mumkin emasligini ko'rsatmoqda. Birgina, tizimda keng aholi qatlamini qamrab olish imkoniyati mavjud bo'lgan madaniyat muassasasi –madaniyat markazlari hodimlarining salmoqli qismi oliy ma'lumotga ega emasligi, ijodiy qobiliyati bo'lsa-da, aholi bilan ishlash ko'nikmasining yo'qligi, madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazi tomonidan ishlab chiqilgan metodik qo'llanmalar to'laqonli faoliyatni rivojlantirishga ta'sir eta olmayotganligi mazkur markazning viloyatlarda filiallarini tashkil etish yoki uning alternativ varianti integrasion ta'lim klasterlarini tuzish zaruratini ko'rsatadi. Ikkinchi tomondan bugungi ta'lim islohotlarida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integrasiyasining takomillashuvi madaniyat ta'limida integrasion ta'lim klasterlarini taqazo etadi. Mazkur klasterlar o'z ichiga madaniyat sohasidagi ta'lim muassasalari, madaniyat sohasidagi ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, amaliyot bazalari, ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalarning bir butunligi bo'lib, ularning birgalikdagi vazifalar taqsimlangan faoliyati madaniyat ta'limini sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish imkonini beradi. Binobarin, klasterning asosiy maqsadi o'z tarkibiga kiruvchi ta'limiy-ilmiy-innovation salohiyatni nafaqat yuqori fuqarolik va kasbiy layoqatlilik darajasi bilan, balki raqobatbardoshligi, yangiliklarni qabul qila olish qobiliyati, yangi ta'lim dastur va texnologiyalarini loyihalash hamda amalga oshira olish qobiliyatiga ega zamonaviy ta'lim mutaxassislarini tayyorlash uchun birlashtirishdir.

Jamiyatimizning bugungi rivojlanish bosqichida integrasion ta'lim klasteri ta'limda ichki vaqtarmoqlararo aloqadorlikni ta'minlaydigan, ilmiy tadqiqot, ilmiy-metodik muassasalarda to'plangan tajriba va erishilgan ilmiy yutuqlarni madaniyat ta'limi hamda amaliyotiga yetib borishini samarali amalga oshiradigan yaqin kelajakdagi eng muhim tizim sifatida taqdim etilmoqda. Bu tizim o'z navbatida kadrlar buyurmachilari sifatida Madaniyat vazirligi tizimidagi tashkilot, muassasalarning madaniyat ta'limini rivojlantirishda faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosaqilibaytganda, ijtimoiy-madaniy faoliyatda "ta'lim-fan-ishlabchiqarish" integrasiyasining asosiy bo'g'inini tashkil etuvchi integrasion ta'lim klasteri oliy ta'lim muassasalari va madaniy xizmat ko'rsatuvchi muassasalar o'rtasidagi innovation hamkorlik tizimini to'liq shakllanishiga, zamonaviy talablarga javob beradigan mustaqil fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlashga, madaniyat muassasalarining innovation salmog'ini oshishiga, shuningdek, aholining madaniy ehtiyojlarini qondiradigan yuqori texnologiyali san'at bozorini shakllantirish imkoniyatini yaratib beradi.



## MADANIYAT VA SAN'AT SOHALARINI RIVOJLANTIRISH

**Nabijonova Nazokatxon A'zamxon qizi**

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va  
dizayn instituti magistranti, OOO  
“Ma'mur Project” firmasida arxitektor-dizayner,  
Telefon: +99899 981-62-62  
nabijonovanazokatxon@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada madaniyat va san'at sohalarini rivojlantirish, shu sohalar bo'yicha prezidentimizning qarorlari va unga alohida e'tibor berish kerakligi haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Madaniyat, jamiyat, elat, millat, badaviylik, madaniylik, antic, konkret jamiyat, san'at.

**Madaniyat** inson faoliyati va shu faolliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, badiiy tasvir, me'morchilik, teatr, kinematografiya, turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin. Antropologiyada «madaniyat» atamasi ostida mahsulotlar va ularni ishlab chiqarish, estetik ma'no berish, hamda shu jarayonlarga bog'langan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi. Bu ma'noda madaniyat o'z ichiga san'at, fan va ma'naviy tizimlarni oladi.

**Madaniyat** — jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi. «Madaniyat» tushunchasi muayyan tarixiy davr (antik Madaniyat), konkret jamiyat, elat va millat shuningdek, inson faoliyati yoki turmushining o'ziga xos sohalarini izoxlash uchun qo'llaniladi. Tor ma'noda “Madaniyat” atamasi kishilarning faqat ma'naviy hayoti sohasiga nisbatan ishlatiladi.

“Madaniyat” arabcha madina (shahar) so'zidan kelib chiqqan. Arablar kishilar hayotini ikki turga: birini badaviy yoki sahroi turmush; ikkinchisini madaniy turmush deb ataganlar. Badaviylik — ko'chmanchi holda dashtu sahrolarda yashovchi xalqlarga, madaniylik — shaharda o'troq holda yashab, o'ziga xos turmush tarziga ega bo'lgan xalqlarga nisbatan ishlatilgan.

Mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan barcha sohada hayotga tatbiq etilayotgan istiqbolli loyihalar, joylarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı bunyodkorlik ishlari xalqimizning nafaqat turmush tarzini, balki dunyoqarashini ham tubdan o'zgartirmoqda.

Bunday ezgu jarayonni madaniyat va san'at rivojiga, ijod ahliga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor misolida ham ko'rish mumkin. So'nggi ikki yilda mazkur sohaga taalluqli 20 ga yaqin Farmon va qarorlar qabul qilindi. Ular ijrosi yuzasidan sa'y-harakatlar olib borilyapti. Prezidentimizning joriy yil 28 noyabrdagi “O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori ushbu jabhadagi mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan muhim hujjat sifatida alohida ahamiyatga ega.

